O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

T.YUSUPOVA

ONA TILI DARSLARIDA KICHIK GURUHLARDA ISHLASHNI TASHKIL ETISH METODIKASI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

T.YUSUPOVA

ONA TILI DARSLARIDA KICHIK GURUHLARDA ISHLASHNI TASHKIL ETISH METODIKASI

(o‘quv-metodik qo‘llanma)

2018 2021
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
ToshDO‘TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI

TOSHKENT-2016

O‘quv-metodik qo‘llanmada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ona tili hamda akademik litseylarning hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida kichik guruhlar bilan ishlashda o‘quvchi-o‘qituvchi va o‘quvchi-o‘quvchi hamkorligi munosabatlari masalalari, kichik guruhlar bilan ishlashga qo‘yiladigan talablar, samaradorlikni ta’minlovchi usul va vositalar, kichik guruhlar bilan ishlash jarayonida qo‘llaniladigan mashqlarning turlari va mazmuni haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Muallif:

T.Yusupova, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Mas’ul muharrir:
p.f.d., professor R.Niyozmetova

Taqrizchilar:

Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek tili va nutq madaniyati kafedrasi dotsenti, p.f.n., **S.Adilova**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi **Z.Djuraboyeva**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti Ilmiy Kengashining 2016-yil 2-dekabr 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

KIRISH

Inson shaxsining kamol topishida, tafakkurining rivojlanishida, tafakkur mahsulini nutq vositasida ifodalash salohiyatini egallashida asosiy vosita bo'lmish ona tili ta'limi ta'lim muassasalarida yetakchi o'quv fanlaridan biri sanaladi. Zero, ona tili millat tafakkurini shakllantiradi, rivojlantiradi, takomillashtirib boradi va namoyon ettiradi. Prezidentimiz I.A.Karimov ham o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ona tilimizning ana shu jihatiga alohida urg'u bergan: "Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir"[1]. Shu bois ona tili ta'limi samaradorligini oshirish davlat siyosatiga aylandi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni[2] va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"[3]ning joriy etilishi ham ta'lim sohasida tub burilishlar yasadi. Mazkur hujjatlar ona tili o'qituvchilarining zimmasiga mas'uliyatli vazifalar yukladi. Chunonchi, ona tili darslarida o'tilayotgan mavzular bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilim, hosil qilinadigan ko'nikma va malakalarning "Ona tili" DTSi[4] talablari darajasida egallanishini ta'minlash, dars samaradorligiga erishish, o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish ana shunday vazifalar jumlasiga kiradi. "Bugungi xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Amir Temur bobomizning "Kuch – adolatda" degan mashhur ta'birini bugungi kunga nisbatan qo'llab aytadigan bo'lsak, men unga qo'shimcha qilib "Kuch bilim va tafakkurda" degan bo'lardim. Kelgusi asrda bu tamoyil yanada kuchayadi va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladi. Binobarin, xalqaro maydonda biz boshqa mamlakatlar bilan sog'lom fikr musobaqasiga, ijobiy raqobatga kirishmog'imiz lozim bo'ladi. Bizning kelajagimiz mana shu musobaqa va raqobatga qay darajada bardosh bera olishimizga bog'liq, o'ylaymanki,

---

1. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни // Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдеворн. – Тошкент; Шарқ, 1998. – 20-29-б.
3. Ўзбекистон Республикасининг "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури" Қонуни // Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдеворн. – Тошкент; Шарқ, 1997. – 31-60-б.
4. Давлат таълим стандартига шарх: Она тили // Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури – Таълим тараққиёти. Ахборотнома, 1-махсус сон. – Тошкент: Шарқ, 1999 – Б. 46-54.

buning uchun millatimizning salohiyati ham, aql-zakovati ham yetarli", -- deb ta'kidlaydi Prezident I.A.Karimov.[5]

Jahon miqyosida ta'lim tizimi samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni hal qilish vazifasi ustuvor bo'lib turgan bir davrda mustaqil davlatimizda ta'lim tizimining ilmiy-nazariy asoslarini yangilash yana ham muhim ahamiyat kasb etdi. Shu zaruriyat tufayli uzluksiz ta'lim konseptsiyasi yaratildi.[6] Ushbu hujjatda ta'lim jarayonini mamlakatimizning manfaatlariga mos ravishda yangilash yo'llari ko'rsatib berildi. Har bir o'quv fanini o'qitishning maqsadi, vazifalari va g'oyaviy yo'nalishlari tayin etildi.

Chunonchi, ona tili darslarida o'tilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilim, hosil qilinadigan ko'nikma va malakalarning "Ona tili" DTSi talablari darajasida egallanishi, yoshlar nutqini o'zbek tilining boy leksik va sintaktik qurilmalari bilan boyitish, ularda nutq madaniyatini shakllantirish, shu maqsadda ilg'or pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari, innovatsiyalar, interfaol usullarni ishlab chiqish zaruriyati vujudga keldi. Mana shu zaruriyat barcha metodist-olimlardan hamda ona tili va adabiyot o'qituvchilaridan darslarni samarali tashkil etish yo'llarini izlab topishga, shakli, vositalari, mazmuni va metodlarini ifoda etuvchi nazariy va metodik asoslarni ishlab chiqishga, darslarda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiradigan metod va usullardan foydalanishga, ayniqsa, jamoa bo'lib ishlashga, jamoada o'zini tutishi va jamoadoshlarini hurmat qilishni o'rgatishga doir fikr va qarashlari bayon etishga undaydi. Ma'lumki, o'quvchilarni guruhlarga birlashtirib, ular o'rtasidagi hamkorlikni yuzaga keltirish o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini emas, balki o'quvchi va o'quvchi hamkorligining yuzaga kelishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ham ushbu metodik qo'llanmada ona tili ta'limida kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish masalasini tadqiq etishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Zero, maktab ona tili darslarida va akademik litseyning hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida kichik guruhlarda ishlashni tashkil etishning o'ziga xos farqli jihatlari mavjud. Bu farqlar ularning yoshida, fikrlash malakalarida, o'z fikrini erkin, mustaqil va ravon bayon eta olishida ko'zga tashlanadi.

Shu maqsaddan kelib chiqqan holda maktabdagi ona tili va akademik litseydagi hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida kichik guruhlar bilan ishlashni tashkil etishning samaradorligini oshirish yuzasidan olib

---

5. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халкни халк, миллатни миллат килишга хизмат этсин. – Тошкент: Узбекистон, 1998. 23-24-бетлар.

6. Ўзбек мактабларида она тилини ўкитиш концепцияси. – Тошкент: УзПФИТИ, 1993. – 21-б.

borilayotgan ishlarning hozirgi holatini yoritish va tegishli xulosalar chiqarish; maktabdagi ona tili va akademik litseydagi hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida kichik guruhlar bilan ishlashni tashkil etishning samaradorligini oshirish mazmuni va usullarining metodik adabiyotlarda qay darajada yoritilganligini o'rganish va tahlil qilish; maktabdagi ona tili va akademik litseydagi hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida kichik guruhlar bilan ishlashni tashkil etishning samaradorligini oshirishning metod va usullarini, bunda foydalaniladigan eng samarali o'quv topshiriqlarini hamda mashqlar tizimini ishlab chiqish; aniqlangan va ishlab chiqilgan metodik usullar, dars ishlanmalari va tavsiyalarni tajriba sharoitida sinab ko'rish, natijalarini statistik tahlil etish, olingan ijobiy natijalar asosida ona tili o'qituvchilari uchun tavsiyalar berish kabi masalalarni hal etishni belgilab oldik.

Respublikamizda ona tili o'qitish sohasida ish olib borgan metodist olimlar M.Asqarova, A.G'ulomov, Y.Abdullaev, M.Omilxonova, O.Roziqov, M.Abduraimova, A.Sayfullaev, M.Sobirova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Yusupova, M.Qodirov, T.Yusupova, T.Ziyodova, A.Bobomurodova, O.Oxunjonova, M.Saidov, M.Mirmaxsudovalar tomonidan yaratilgan ilmiy-metodik tadqiqotlarda, metodik qo'llanma va ilmiy maqolalarda ona tili darslarini samarali tashkil etish masalalari tilga olingan. Bu ishlarda ona tili darslarinig mazmuni, uni samarali tashkil qilish yo'llari va usullari, o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini oshirish masalalari, dars jarayoniga turli xil pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish masalalari atroflicha talqin etilgan, ammo maktablarda ham, akademik litseylarda ham ona tili ta'limi jarayoniga kichik guruhlarda ishlashni tatbiq etish va jarayonni o'zaro qiyoslash masalalari maxsus tadqiq etilmagan.

Ona tili darslarini samarali tashkil etish masalasi har doim ham yuksak ahamiyat kasb etgan va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ona tili darslarining samaradorligi masalasi tadqiq etilgan ilmiy tadqiqotlardan biri bu – Sh.J.Yusupovaning "Ona tili ta'limi samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noan'anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish)"[7] nomli nomzodlik dissertatsiyasi hisoblanadi. Ishda "Aqliy hujum" metodidan, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanib o'tilgan darslardan namunalar va ularni tashkil qilish yo'l-yo'riqlari bayon qilingan. Sh.J.Yusupovaning

---

7. Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илгор педагогик технологияларни жорий этиш (ноанъанавий усуллар ва компьютердан фойдаланиш): Пед. фан номзоди ... дисс. - Тошкент, 1998 - 26 б.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari (akademik litseylar misolida)" nomli doktorlik tadqiqotida zamonaviy pedagogik texnologiyaning mazmuni yoshlarga falsafiy fikrlashga o'rgatish, ularda bilishga qiziqish uyg'otish, motivatsiya hosil qilish, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlashga emas, balki amaliyotda o'rgatish, nostandart tafakkur qilish, rang-barang fikrlar berishga odatlantirishgina emas, balki uni ta'limga tatbiq etishning dolzarb vazifa ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, ishda "Bu bizniki" usulidan foydalanish yo'llari ko'rsatilgan. Ona tili darslarida o'yin turlaridan foydalanish masalasi metodist A.Y. Bobomurodovaning dissertatsion ishida tahlil etilgan.[8] O'yin usulida darsni yoki darsning ma'lum bir bosqichini tashkil etish, albatta, o'z-o'zidan o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, ularni hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga undaydigan ta'lim usuli hisoblanadi. A.Y.Bobomurodova ona tilidan o'quvchilarga beriladigan o'yin-topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko'ra uch turga ajratar ekan, birinchi turiga qayta xotiralashga asoslangan o'yin-topshiriqlarni kiritadi. Faqat ushbu o'yinlarning kamchilik tomoni borligini eslatadi: "Qayta xotiralashga asoslangan o'yin-topshiriqlar o'quvchidan hech qanday ijodiylikni, egallagan bilimlarni yangi sharoitda qo'llashni, yaratuvchanlikni talab etmaydi. Bunday o'yin-topshiriqlarni bajarish o'quvchiga katta murakkablik tug'dirmaydi, oldin o'rganilgan mavzular va muayyan bilimga ega bo'lgan o'quvchi bunday topshiriqlarni bemalol bajarishi mumkin"[9]. Albatta, topshiriqlarni bemalol bajarish uchun bilim, ko'nikma va malakalar yaxshi egallangan bo'lishi lozim. Buning uchun esa o'quvchi o'zi unutgan narsalarini xotiraga tushirish haqida o'ylashi, biror yo'l bilan o'qib olishi, sinfdoshlaridan eshitib bo'lsa ham, bila borishi darkor.

Tajribali o'qituvchi, metodist N.Ahmedovaning "O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari"[10] nomli o'quv qo'llanmasidagi 3-mavzu aynan biz tadqiqot olib borayotgan mavzuga bag'ishlangan. Muallif o'z kitobida kichik guruhlarda ishlash metodini quyidagi reja asosida tushuntiradi: 1. Kichik guruhlarda ishlash metodining mohiyati. 2. Kichik guruhlar ishlash metodi asosida dars tashkil etish. 3. Kichik guruhlar bilan ishlash texnologiyasi. 4. Ona tili ta'limida bu metodni qo'llash. Muallif guruhlardagi o'quvchilarning sonini "3 kishidan", "4 kishidan", "5 va 6

---

8. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш. - Пед фан.номзоди ... ёзилган дисс. - Т., 1996. – 8-бет.

9. Юқорида номи кўрсатилган адабиёт. – 8-бет.

10. N.Axmedova. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent. "Tafakkur" nashriyoti. 2012. – 27-33-betlar

kishidan", "7 kishidan", "8 va 9 kishidan", "10 kishidan" iborat deb ajratadi va ularning xususiyatini ham yoritib beradi. Bunday sonli guruhlar ichida eng samarasiz guruh deb "10 kishilik" guruhni belgilaydi va shu xususiyatlarni "7 kishilik" hamda "8 va 9 kishilik" guruhlarga nisbatan ham bildiradi. Ishda kichik guruhlarda ishlashni tashkil etishning mazmuni va uni tashkil etishning yo'llari talqin etilgan bo'lsa-da, ammo kichik guruhlarda ishlash samaradorligini oshiruvchi omillar xususida, shuningdek, maktab va akademik litseylarga tatbiq etilishining o'zaro farqli xususiyatlari va mazmuni to'liq yoritilgan emas. Ayniqsa, bu jarayonda o'quvchini mustaqil fikrlashga undovchi usul, vosita va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi masalasi u qadar keng yoritilmaganligi bizni ishda shu jihatlariga e'tibor qaratishga undadi.

Shuningdek, darslarni kichik guruhlar asosida tashkil etish bilan kifoyalanmagan holda, pedagogika va psixologiya fanining so'nggi yutuqlari asosida ilk bor darslarni kichik guruhlar asosida tashkil etish samaradorligini oshirish mazmuniga aniqliklar kiritish; o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib tashkil etish ishlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish uchun metodikada qaysi sinf va bosqichlarga kam e'tibor berilayotganligini aniqlash; darslarni kichik guruhlar asosida tashkil etish samaradorligini oshirishning yondashuv va tamoyillari, metod va usullarini ko'rsatish; o'rganilayotgan barcha til hodisalarining amaliy uslubiyat, matn talabi, muloqot madaniyati, muomala odobi bilan bog'liq jihatlari ajratish va shu asosda kichik guruhlarda ishlashga doir mashqlar, savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish; shuningdek, uni amalga oshirish va ulardan foydalanish jarayonida zarur bo'ladigan ko'rgazmali qurol va texnik vositalarni qo'llash yo'l-yo'riqlari bilan ta'minlash masalalariga ham e'tibor qaratdik.

Dars samaradorligini oshirish, kichik guruhlarda ishlash pedagogik tushunchalarining nazariy – metodik talqini

Maktabdagi ona tili va akademik litseydagi hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarda hamkorlikda ishlash hissini tarbiyalash masalalarini ona tili ta'limi mazmuniga tayangan holda samarali tashkil etish ta'lim sifati monitoringi yuritilayotgan bugungi kunda yechimi ta'lim samaradorligini qaysi yo'llar bilan oshirish kerak degan savolga javob berishi mumkin bo'lgan muhim metodik muammoga aylandi. Ta'lim samaradorligini oshirish, hamkorlikda ishlash texnologiyalari va darsni kichik guruhlar asosida tashkil etish masalalari bir qator metodist olimlarning yaratgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, metodik qo'llanmalarida va ilmiy maqolalarida o'z ifodasini topgan. Chunonchi, O.Roziqov[11], Y.Abdullaev[12], M.Omilxonova[13], M.Asqarova, K.Qosimova, N.Mahmudov, A. Nurmonov, H.Ne'matov, A.G'ulomov[14], A.Sayfullaev[15], M.Abduraimova, M.Qodirov[16], Sh.Yo'ldosheva, Sh.Yusupova, R.Safarova[17], T.Yusupova, M.Sobirova[18], O.Oxunjonova, M.Mirmaxsudova[19], T.Ziyodova, M.Saidov[20], M.Qurbonova, M.Enazarovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida, metodik qo'llanmalarida,

---

11. Розиков О. Ўзбек тилидан дарс типлари: Педагогика институтларининг филология факультетлари студентлари хамда тил ва адабиет ўкитувчилари учун кўлланма - Тошкент: Ўкитувчи, 1976. - 123 б.

12. Абдуллаев Й. Сўз ишлатиш хакида // "Мактабда ўбек тили ва адабиет ўкитишни такомиллаштириш масалалари" тўплами – Т.: ЎзПФИТИ, 1982. – Б. 3-10.

13. Омилхонова М., Абдуллаев Й., Абдулахатова Р., Иногомова Р., Орифжонов А. 5- ва 6-синфда она тили дарслари (методик кўлланма). - Т.: Ўкитувчи, 1978. - 262 б.; Омилхонова М., Абдуллаев Й. ва бошкалар 7- ва 8- синфда она тили дарслари. - Тошкент: Ўкитувчи, 1982. - 205 б.

14. Ғуломов А.К., Неъматов Х. Она тили таълими мазмуни. Ўкитувчилар учун методик кўлланма. - Тошкент: Ўкитувчи, 1995. - 125 б.

15. Сайфуллаев А. Она тили дарсларида нутк ўстириш: методик кўлланма (5-синф материаллари асосида). - Т.: ЎзПФИТИ, 1997. - 72 б. Сайфуллаев А. Она тили дарсларида нутк ўстириш: методик кўлланма (6-синф материаллари асосида). - Т.: ЎзПФИТИ, 1998. - 50 б. Сайфуллаев А. Она тили дарсларида нутк ўстириш: методик кўлланма (7-синф материаллари асосида). - Т.: ЎзПФИТИ, 2000. - 52 б. Sayfullayev A.R., Sayfullayeva R.R. Ona tili darslarida nutq o'stirish (8-sinf materiallari asosida metodik qo'llanma). – Toshkent: O'zPFITI, 2002.– 51 b.

16. G'ulomov A., Qodirov M. va boshqlar. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2012, 380 bet.

17. Сафарова Р. Она тили таълимининг янгиланган мазмуни ва унинг дидактик асослари. – Т.: «Фан», 1995. – 108 б.

18. Собирова М.Ю. Ўзбек мактаблари юкори синф ўкувчиларига содда гап синтаксисини мунозара усулида ўргатиш: Пед. фан. номз.... дис. автореф. – Тошкент, 1994. – 23 б.

19. Мирмахсудова М. Ўкувчилар нутқини такомиллаштиришда грамматик терминлардан фойдаланишнинг лингвометодик асослари (5-7-синф она тили дарслари мисолида): Пед.фан.номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 24 б.

20. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўкув топшириклари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2000. – 23 б.

ilmiy maqolalarida, o'qituvchi kitoblarida, dars ishlanmalarida dars samaradorligi masalalariga e'tibor qaratilgan.

90-yillargacha bo'lgan davrda dars samaradorligni oshirish masalasiga e'tibor tom ma'noda nazariy ma'lumotlarni chuqur egallash, ularni xotiraga tushirish, qoidalarni bilish va ularga mos misollar keltirish, tahlil turlarini o'tkazish, o'rganilayotgan qoida va ta'riflarni yodlatish, misollar toptirish va mashqlar bajartirish orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish tarzida amalga oshirib kelindi. Bunda uyga vazifani so'rash, badiiy adabiyotlardan olingan parchalardan o'tilayotgan qoidalarga mos misollar topish va yoddan o'zlari bilganicha mustaqil ravishda misollar keltirish kabi ishlarni amalga oshirishga, qolaversa, nazorat ishlari, tahlilning turli ko'rinishlariga ustuvor ahamiyat berildi. Vaholanki, ona tili darslarida bilimlargina emas, balki ko'nikma va malakalar ham egallanishi kerak.

Ona tili darslarini samarali tashkil etish masalasi har doim ham yuksak ahamiyat kasb etgan va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ona tili darslarining samaradorligi masalasi tadqiq etilgan ilmiy tadqiqotlardan biri bu – Sh.J.Yusupovaning "Ona tili ta'limi samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noan'anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish)"[21] nomli nomzodlik dissertatsiyasi hisoblanadi. Ishda "Aqliy hujum" metodidan, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanib o'tilgan darslardan namunalar va ularni tashkil qilish yo'l-yo'riqlari bayon qilingan. Shuningdek, ishda "Bu bizniki" usulidan foydalanish yo'llari ko'rsatilgan.

Metodist olima Sh.Yusupovaning "Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari"[22] nomli doktorlik dissertatsiyasida ham dars samaradorligini oshirish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, unda zamonaviy pedagogik texnologiyaning mazmuni yoshlarga falsafiy fikrlashga o'rgatish, ularda bilishga qiziqish uyg'otish, motivatsiya hosil qilish, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlashga emas, balki amaliyotda o'rgatish, nostandart tafakkur qilish, rang-barang fikrlar berishga odatlantirish emas, uni ta'limga tatbiq etish dolzarb vazifa ekanligini ta'kidlaydi. Metodist o'z ishida o'quvchilar tafakkurini o'stirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati haqida to'xtalib o'tgan bo'lib,

---

21. Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илгор педагогик технологияларни жорий этиш (ноанъанавий усуллар ва компьютердан фойдаланиш): Пед. фан.номзоди ... дисс. – Тошкент, 1998. – 26 б.

22. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари. Пед. фан.доктори ... дисс. автореферати. – Т., 2005. – 44 б.

o‘quvchi tafakkurini o‘stirishda “Aqliy hujum”, “Bu bizniki” metodlarini qo‘llash yaxshi samara berishini olib borgan tajriba-sinov ishlari natijalari bilan izohlaydi.

Ona tili darslarini qiziqarli tashkil etishning eng qulay yo‘llaridan biri- o‘yin darslaridir. Ona tili darslarida o‘yin turlaridan foydalanish masalasi metodist A.Y.Bobomurodovaning dissertatsion ishida tahlil etilgan.[23] U o‘z ishida ona tilining har bir bo‘limini o‘rganishda qaysi tildagi va turdagi ta’limiy (didaktik) o‘yin-topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi va buning yo‘llarini ko‘rsatgan. O‘yin usulida darsni yoki darsning ma’lum bir bosqichini tashkil etish, albatta, o‘z-o‘zidan o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, ularni hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga undaydigan ta’lim usuli hisoblanadi. A.Y.Bobomurodova ona tilidan o‘quvchilarga beriladigan o‘yin-topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra uch turga ajratar ekan, birinchi turiga qayta xotiralashga asoslangan o‘yin-topshiriqlarni kiritadi. Faqat ushbu o‘yinlarning kamchilik tomoni borligini eslatadi: «Qayta xotiralashga asoslangan o‘yin-topshiriqlar o‘quvchidan hech qanday ijodiylikni, egallagan bilimlarni yangi sharoitda qo‘llashni, yaratuvchanlikni talab etmaydi. Bunday o‘yin-topshiriqlarni bajarish o‘quvchiga katta murakkablik tug‘dirmaydi, oldin o‘rganilgan mavzular va muayyan bilimga ega bo’lgan o‘quvchi bunday topshiriqlarni bemalol bajarishi mumkin»[24]. Albatta, topshiriqlarni bemalol bajarish uchun bilim, ko‘nikma va malakalar yaxshi egallangan bo‘lishi lozim. Buning uchun esa o‘quvchi o‘zi unutgan narsalarini xotiraga tushirish haqida o‘ylashi, biror yo‘l bilan o‘qib olishi, sinfdoshlaridan eshitib bo‘lsa ham, bila borishi darkor.

Tajribali o‘qituvchi, metodist N.Ahmedovaning “O‘zbek tili o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari”[25] nomli o‘quv qo‘llanmasidagi 3-mavzu aynan biz tadqiqot olib borayotgan mavzuga bag‘ishlangan. Muallif o‘z kitobida kichik guruhlarda ishlash metodini quyidagi reja asosida tushuntiradi: 1. Kichik guruhlarda ishlash metodining mohiyati. 2. Kichik guruhlar ishlash metodi asosida dars tashkil etish. 3. Kichik guruhlar bilan ishlash texnologiyasi. 4. Ona tili tahlimida bu metodni qo’llash. Muallif guruhlardagi o’quvchilarning sonini “3 kishidan”, “4 kishidan”, “5 va 6 kishidan”, “7 kishidan”, “8 va 9 kishidan”, “10 kishidan” iborat deb ajratadi va ularning xususiyatini ham yoritib beradi. Bunday sonli guruhlar

---

23. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш. - Пед фан номзоди ...ёзилган дисс. – Т., 1996. – 8-бет.

24. Юқорида номи кўрсатилган адабиёт. – 8-бет.

25. N.Axmedova. O‘zbek tili o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2012. – 27-33-betlar.

ichida eng samarasiz guruh deb "10 kishilik" guruhni belgilaydi va shu xususiyatlarni "7 kishilik" hamda "8 va 9 kishilik" guruhlarga nisbatan ham bildiradi. 6-sinfda o'tiladigan "Sifat" mavzusi bo'yicha takrorlash darsi loyihasini taqdim etadi. Ishda kichik guruhlarda ishlashni tashkil etishning mazmuni va uni tashkil etishning yo'llari talqin etilgan bo'lsa-da, ammo kichik guruhlarda ishlash samaradorligini oshiruvchi omillar xususida, shuningdek, maktab va akademik litseylarga tatbiq etilishining o'zaro farqli xususiyatlari va mazmuni to'liq yoritilgan emas.

Kichik guruhlarda ishlash metodining mazmun-mohiyati, kichik guruhlarda ishlash yo'llar haqidagi ma'lumotlar A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova, I.Karimjonova hammuallifligida nashr qilingan "Ona tili o'qitish metodikasi"[26] nomli darslikda ham o'z ifodasini topgan. Unda dastlab topshiriq, chalkash masala yoki savol asosida muammo tanlab olinishi, undan so'ng kichik guruhlar shakllantirilib olinishi ta'kidlanadi. Chunonchi, o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratishda ikki usuldan: birinchisida, o'quvchilar xohishiga, ikkinchisi esa hisoblash usulidan foydalanilishi aytiladi. Kichik guruhlar bilan ishlash metodida tashkil etilgan darsdan so'ng faoliyat haqida suhbat uyushtirilishi lozimligi ham uqtiriladi.

Shu o'rinda pedogika sohasida olib borilgan ishlarni ham o'rganib chiqishni lozim topdik, chunki pedagogikada kichik guruhlarda ishlash metodining mazmun-mohiyati, texnologiyasi, loyihasi, ahamiyati, ta'lim tizimida tutgan o'rni, darsning qaysi turlariga tatbiq etish mumkinligi batafsil yoritilgan. Jumladan, N. Sayidahmedov, N. Azizxo'jaeva, B. Xodiyev, L. Golish va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida, maqolalarida, o'quv va uslubiy qo'llanmalarida o'quvchilar bilan kichik guruhlarda ishlash metodikasi muammolari yoritilgan.

N.N.Azizxo'jayevning "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat"[27] o'quv qo'llanmasida seminar mashg'ulotlari davomida o'qituvchi va talaba o'rtasida munosabatga to'xtalib, unda suhbatning jonli olib borilishi nisbatan kichik guruhlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda yuqori bo'lishini uqtiradi va bunda ular o'rtasida ikki tomonlama aloqa o'rnatilishi ta'minlanadi.

B. Xodiyev va L. Golishlarning "Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari"[28] deb nomlangan o'quv-uslubiy qo'llanmasida esa

---

26. A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alautdinova, I.Karimjonova. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: "Fan va texnologiya" 2012, 363-364-betlar.

27. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006, – 240b.

28 Xodiyev B., Golish L. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari – T.: "Fan" nashriyoti, 2010, 255b.

maktab va akademik litseylarda kichik guruhlarda ishlash samaradorligini oshirishga doir yondashuv va prinsiplar, hamkorlikda o'qiyotganlar uchun asosiy qoidalar, guruhda ishlash qoidalari, guruh muzokarasini o'tkazish qoidalari batavsil bayon etilgan. Chunonchi, guruhda ishlash qoidalari sifatida quyidagilar qayd etiladi:

1. Har kim o'z o'rtoqlari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;
2.Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur;
3. Har kim yordamga muhtoj bo'lganda, uni so'rashi zarur;
4. Har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;
5. Har kim guruh ishi natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur;

N.Sayidahmedovning "Yangi pedagogik texnologiyalar" deb nomlangan uslubiy qo'llanmasida bizning tadqiq qilayotgan masala kichik guruhlarda ishlash muammosi alohida mavzu sifatida yoritilgan bo'lib, unda "kichik guruhlarda ishlash" atamasiga ta'rif beriladi, uni qo'llash usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, qo'llanmada "Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash"ga oid ko'rsatmalar ham berilgan, "Menyu", "Debatlar", "Tanqidiy fikrlash" kabi metodlarning fan sohalarida qo'llanilishi yoritilgan.

R.J.Ishmuxammedovning "Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari"[29] nomli monografiyasida ham samaradorlikni oshirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati to'g'risida aytib o'tilgan. Ushbu uslubiy qo'llanmada o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, treninglar va ochiq munozaralar o'tkazish, yakka, juftlikda, kichik guruhlar va jamoada ishlashni tashkil qilish hamda o'quvchilar va tinglovchilarni pedagogik jarayonga tayyorlash masalalari yuzasidan tavsiyalar, shuningdek, dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda o'tkazilgan darslardan namunalar, ularni o'tkazish metodikasi, bunday darslarni kuzatish hamda uni tahlil qilish bo'yicha fikr-mulohazalar o'z ifodasini topgan. Shuning bilan birga akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida tashkil qilinadigan turli ritual, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ham berilgan.

Z.O.Haydarovning "Ta'lim jarayonida interfaol o'qitish usullarini qo'llashning ahamiyati" nomli maqolasi ham mazmun-mohiyatiga ko'ra kichik guruhlarda ishlash muammosini tadqiq etishga bag'ishlangan[30].

29.Ishmuhammedov.R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari". – T, 2009, 3-b

30. Z.O.Xaydarov. Ta'lim jarayonida interfaol o'qitish usullari qo'llashning ahamiyati. "Ta'lim texnologiyalari". 2013-y, 3-son, 17-b

Unda *"Interaktiv"* tushunchasiga ta'rif beriladi. Interaktiv ta'lim metodining dialogik ta'lim metodi ekanligi, uning o'quvchi va o'qituvchi yoki o'quvchi va kompyuter o'rtasidagi o'zaro birgalikdagi faoliyat jarayonini ko'zda tutishi haqida fikr bildiriladi. Muallifning fikricha, mazkur o'qitish metodi bilish faoliyatini maxsus shaklda tashkil etish degan ma'noni bildiradi.

Interaktiv o'qitish metodini qo'llash jarayonida o'quvchilarning barchasi bilish jarayonida faol qatnashadilar, ular o'zlari bilgan, esga tushirgan, o'ylagan ma'lumotlariga tayanishlari, ulardan bilish jarayonida foydalanishlari mumkinligini tushunadilar va shunga moslashadilar. Birgalikdagi aqliy bilish, izlanish faoliyatida har bir o'quvchi shaxsan ishtirok etib, unga o'z hissasini qo'shadi. Bilimlari, g'oyalari, qarashlari, nuqtai nazarlari, faoliyat ko'rsatish usullari bilan o'quvchilar o'zaro fikr almashadilar. Bu jarayon samimiylik, bir-birlarini o'zaro qo'llab-quvvatlash kabi fazilatlar hisobiga amalga oshirilishi kerakki, bu esa ularning bilish jarayonidagi hamkorligini mustahkamlaydi. Fikrlarini davom ettirgan holda interaktiv faoliyatning 5ta asosiy elementlarini sanab beradi:

1.Ijobiy-samimiy o'zaro bog'liqlik.
2.Guruhda shaxsiy mas'uliyatni his qilish.
3.Hamkorlikda ishlash malakasi.
4.Bir-biriga tahsir etuvchi o'zaro faoliyat.
5.Guruhda ishlay olish malakasi.

Ko'rinib turibdiki, mazmun-mohiyatiga ko'ra bu interaktiv metod kichik guruhlarda ishlash metodiga juda o'xshaydi. Chunki o'quvchi va o'quvchi hamkorligi ham, o'quvchi va o'qituvchi hamkorligi ham, qolaversa, o'quchilar amal qilishi lozim bo'lgan talablar aynan o'xshash. Xulosa shuki, kichik guruhlarda ishlash mazmun-mohiyati bilan interfaol usullar sirasiga kiradi, uning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

D.Abdurazzoqovaning "Zamonaviy ta'lim kutubxonasi" ruknida yoritilgan "Kichik guruhlarni tashkil etish qoidalari" nomli maqolasida kichik guruhlarni tashkil etishda uning unda o'quvchilarni guruhlarga taqsimlash usullari va o'sha jarayonda nimalarga diqqatni qaratish zarurligi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Quyidagi shartlarni sanab o'tadi: 1) har bir guruhda shu fanni yaxshi biladigan o'quvchi bilan birga o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchi ham bo'lishi shart; 2) guruhdagi o'quvchilar bir-birini tushunadigan bo'lishi maqsadga muvofiq; 3) guruhdagi o'quvchilar yuzma-yuz o'tirishlari kerak; 4) vazifani boshqa

guruhlarga nisbatan oldih bajarib bo'lgan guruh ishtirokchilariga qo'shimch topshiriqlar ham oldindan tayyorlanishi lozim; 5) taqdimot vaqtida har gal boshqa-boshqa o'quvchining chiqishi muhimligini inobatga olishi zarur. [31].

B.Karimova o'zining "Ijtimoiy psixologiya asoslari" nomli darsligida, dastavval, "Guruh o'zi nima?" degan savolga shunday javob beradi: "Guruh – ma'lum ijtimoiy faoliyat maqsadlari asosida to'plangan, muloqot ehtiyojlari qondiriladigan insonlar uyushmasidir."[32] Guruh uchun ikkita asosiy mezon mavjud: ya'ni biror faoliyatning (mehnat, o'qish, o'yin, muloqot, maishiy manfaatlar) hamda unda insonlarning o'zaro muloqoti uchun imkoniyatning bo'lishi lozim.

Guruh deganda, psixologiyada insonlar yig'indisi tushunilib, ular ma'lum umumiylik yoki umumiy sifatlar asosida birlashadilar, - deya uqtiradi psixolog olim M.G.Davletshin.[33] Guruhda shaxs ma'lum bir o'rinni egallaydi. ***Kichik guruh*** bu – a'zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi va bevosita shaxslar orasida munosabatda bo'luvchi kishilar guruhidir.[34] Insonning o'zgalar ko'zi o'ngidagi guruh ichki munosabatlarida tutgan o'rni shaxs statusi deyiladi. Insonlarning guruhda bor bo'lishi ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Guruhda shaxslarning bir-biri bilan hamkorlik qilishi va o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlashiga psixologik moslashuvchanlik deyiladi. Shuhingdek, guruhiy faoliyatda pxisologik iqlimning ahamiyati katta.

Xulosa qilib aytish mumkinki, biz o'rgangan va tahlil qilgan ilmiy metodik va pedagogik-psixologik adabiyotlarda kichik guruhlar bilan ishlashni tashkil etish masalalariga to'xtalib o'tilgan. Uning mazmun-mohiyati ochib berilgan, tashkil qilish bosqichlari yoritilgan. Lekin o'zbek tili o'qitish metodikasiga oid adabiyotlarda bu muammo yetarlicha tahlil qilinmagan, uni tashkil etishda samaradorlikka erishish yo'llari ko'rsatib berilmagan.

Maktab va akademik litseylarda kichik guruhlarda ishlash samaradorligini oshirishning bugungi holati

Ishimizning bu bo'limida darslarni kichik guruhlar asosida tashkil etish samaradorligini oshirish mazmuniga aniqliklar kiritish va uning mazmuni, shakl, vosita, metod va usullarini tadqiq etish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili va akademik litseyning hozirgi

---

31. Абдураззокова Д. Кичик гурухларни ташкил этиш кондалари. "Умумтаълим фанлари методикаси", 2013, 2-сон, 16-бет.

32. Karimova B. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T: O'qituvchi, 1994, 172-bet.

33. Davletshin M.G., To'ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya. – T: 2002, 74-bet.

34. Karimova B. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T: O'qituvchi, 1994, 75-bet.

o'zbek adabiy tili darsliklarini o'rganib chiqishni, ularda kichik guruhlar bilan ishlash imkoniyati qay darajada ekanligini aniqlashni lozim deb topdik. Dastavval, umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litsey Davlat ta'lim standarti va dasturlarini o'rganib chiqdik.

Maktabda ona tili o'qitishning asosiy mazmun – mohiyati hozirgi kun ta'limi maqsadlariga monand tuzilgan Davlat ta'lim standarti, dastur va darsliklarda o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, dastur va darsliklarning didaktik asosi o'quvchiga ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi; o'qituvchiga o'quvchining o'rganish faoliyatini boshqaruvchisi; darslikka (o'quv topshiriqlariga) o'quvchi va o'qituvchi faoliyatlarini o'zaro bog'lovchi vosita sifatida yondashishdan iboratdir. Shunga ko'ra, o'quvchining ta'lim jarayonida faol ishtirokchi ekanligi uning darslik topshiriqlari asosida o'qituvchi rahbarligida kuzatish – darslik (o'qituvchi) topshirig'i asosida ona tili hodisalaridan berilgan namunalarni kuzatishga; izlanish – o'ylash, xotirada tiklash, so'rash, lug'at, qomus, ma'lumot manbalaridan foydalanish asosida hodisalar sirasini boyitishga; alohidaliklarni sharhlash – berilgan va o'zi davom ettirgan til sirasidagi har bir hodisani alohida-alohida sharhlashga; qiyoslash – til sirasidagi hodisalarni o'zaro qiyoslashga; umumiylikni aniqlash – siradagi hodisalarning o'xshash va umumiy, farqlarni topish – siradagi hodisalarning bir-biridan farqli tomonlarini aniqlashga; tasnif etish – til sirasidagi hodisalarni o'xshashlik va farqlari asosida guruh hamda guruhchalarga ajratishga; xulosa chiqarish – hodisalar sirasi haqida umumlashma (xulosa, qoida) hosil qilishga; aloqadorlikni aniqlash – o'rganilgan hodisalarning yondoshlari (ma'nodoshlari, shakldoshlari, vazifadoshlari, zidlari va h.k.) bilan munosabatlarini (yaqinlik, o'xshashlik va farqlarini) aniqlashga; qo'llash – hodisalarni mustaqil ravishda yozma va og'zaki shakllarda sharhlab, ijodiy matn tuzishga qaratilgan mustaqil ishlarni bajarishida o'z aksini topadi. DTS va dastur tahlilidan ko'rinib turibdiki, bu kabi mustaqil ishlarni bajarish o'quvchilarni kichik guruhlarga birlashtirib, hamkorlikda ishlashiga imkon yaratib beradi.

Ma'lumki, ona tili ta'limi natijasida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalar uch parametrli standart ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi. Ular quyidagilar:

1. O'qish texnikasi;
2. O'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi;
3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Demak, bu parametrli standart ko'rsatkichlar ham o'quvchilarni hamkorlikda ishlatish imkonini beradi.

DTS va dastur asosida yaratilgan maktab "Ona tili" darsliklarini o'rganib chiqish va undagi nazariy ma'lumotlarni, mashq va topshiriqlar tizimini tahlil qilish natijasida shunday xulosa keldik:

5-sinf "Ona tili" darsligini tahlil qilganimizda yangi mavzuni o'tish va uni mustahkamlashga qaratilgan darslardan 23-, 25-, 28-, 34-, 38-, 43-, 54-, 56-, 67-, 68-, 91-, 113-, 134-, 147-, 148-, 149-darslardagi nazariy ma'lumotlarni tushuntirish jarayonida, takrorlash darslaridan esa 20-, 29-, 45-, 75-, 93-, 99-, 102-, 116-, 179-, 194-darslarda nisbatan kichik guruhlar bilan ishlash imkoni mavjud. 3-dars 11-mashq, 4-dars 18-mashq, 11-dars 46- va 49-mashqlar, 17-dars 61-mashq, 19-dars 2-topshiriq va 70-mashq, 21-dars 81-, 85-, 92-, 111-, 121-, 126-mashqlar, 38-dars 1-topshiriq, 146- va 183-mashqlar, 53-dars 2-topshiriq va 190-, 203-204-, 208-, 229-, 247-, 267-, 270-, 294-mashqlar, 90-dars 2-topshiriq, 312-, 315-, 344-, 356- va 357-mashqlar, 130-dars 1-topshiriq, 415-, 473-, 499-, 580-mashqlarni bajartirish jarayonini ham sinfdagi o'quvchilarning guruh bo'lib ishlashlarini ta'minlagan holda tashkil etish mumkin.

6-sinf "Ona tili" darsligining tahlili shuni ko'rsatdiki, yangi mavzu va uni mustahkamlashga qaratilgan darslardan 15-, 19-, 31-, 33-, 60-, 66-, 85-, 86-, 95-, 101-, 103-, 105-, 106-, 108-, 117-, 118-, 123-, 126-, 128-, 132-, 138-, 139-, 142-, 145-darslardagi nazariy ma'lumotlarni tushuntirish jarayonida, takrorlash darslaridan esa 42-dars 3-va 4-topshiriqlar, 50-darsdagi savol-javob, 112-dars 1-va 3-topshiriqlar, 133-dars 1-va 5-topshiriqlar, 147-va 148-dars 3- va 6-topshiriqlar, 461- 462-mashqlar, 164-darsdagi savol-javob, 477-mashqni bajartirish jarayonini ham sinfdagi o'quvchilarning guruh bo'lib ishlashlarini ta'minlagan holda tashkil etish mumkin.

7-sinf "Ona tili" darsligining tahlili bo'yicha shuni aytish mumkinki, yangi mavzuni o'tish va uni mustahkamlashga qaratilgan darslardan 11-, 15-, 17-, 58-, 59-, 70-, 72-, 72-, 84-, 89- darslardagi nazariy ma'lumotlarni tushuntirish jarayonida, takrorlash darslaridan esa 1-, 2-, 3-, 4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10-darslardagi barcha mashqlar, 12-, 24- darslardagi savol-topshiriqlar, 25-darsdagi 1-4-topshiriqlar, 61-, 62-, 81-, 82-, 84-, 94-, 111-, 144-, 167-, 168-, 172-, 179-, 229-, 234-, 248-, 266-, 269- mashqlarning mazmun-mohiyati sinfdagi o'quvchilarning guruh bo'lib ishlashlarini ta'minlagan holda tashkil etish imkonini beradi.

8-sinf "Ona tili" darsligining tahlili shuni ko'rsatadiki, yangi mavzuni o'tish va uni mustahkamlashga qaratilgan 10-, 17-, 19-, 20-, 32-, 33-, 34-, 35-, 37-, 39-, 40-, 42-, 51-, 52-, 60-, 61-, 62-, 65-, 68-, 70-, 71-, 72-, 73-, 74-, 75-, 82-, 86-, 91-, 92-darslardagi hamda takrorlash darslari

va unda berilgan mashq va topshiriqlar mazmun-mohiyati nazariy ma'lumotlarni tushuntirish jarayonida o'quvchilarning guruh bo'lib ishlashini tashkil etish imkonini yaratadi.

9-sinf "Ona tili" darsligini o'rganish va tahlil qilish natijalari shuni ta'kidlaydiki, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 12-, 14-, 18-, 19-, 24-, 28-, 29-, 30-, 39-, 46-, 48-, 55-, 56-, 58-, 59-, 60- darslar va ularda berilgan 13-, 19-, 20-, 28-, 52-, 69-, 95-, 101-, 103-, 117-, 122-, 125-, 130-, 132-, 134-, 137-, 146-, 147-, 151-, 152-, 156-, 164-, 169-, 208-, 211-, 255-, 259-, 261-, 263-, 264-, 268-mashqlarni va 7-dars 1-topshiriq, 14-darsdagi 3-topshiriq, 19-dars 1-topshiriq, 24-dars 1-topshiriq, 28-dars 1-topshiriq, 29-dars 1-topshiriq, 32-darsdagi 3-4-topshiriqlar, 51-darsdagi 2-3-topshiriqlarni bajartirish jarayoniga kichik guruhlar bilan ishlash usulini tatbiq etish mumkin.

Demak, maktab "Ona tili" darsliklari tahlil qilish natijalari darsliklarda berilgan nazariy qoida va mashq hamda topshiriqlarning mazmuni dars jarayonini kichik guruhlarda ishlash orqali tashkil etish imkoniyatlarining mavjudligini ko'rsatib turibdi.

Navbatdagi bosqichda akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darsligini o'rganib chiqdik va shunday xulosaga keldik:

Akademik litsey "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligining 1-bosqich qismini tahlil qilganimizda yangi mavzuni o'tish va uni mustahkamlashga qaratilgan darslardan 6-, 7-, 8-, 9-, 10-, 11-, 12-, 24-, 25-, 26-, 27-, 32-darslardagi nazariy ma'lumotlarni tushuntirish jarayonida, takrorlash darslaridan esa 1-dars 3-mashq, 2-dars savol-javob, 7-mashq, 3-dars, 9-10-, 12-mashqlarni bajarish jarayonida nisbatan kichik guruhlar bilan ishlash imkoni mavjud. 3-dars 9-10-12-mashqlar, 5-dars 28-mashq, 6-dars 1-, 2-, 3-topshiqlar va barcha mashqlar, 7-dars 1-2-topshiriqlar va barcha mashqlar, 10-dars 54-mashq, 11-dars 57-mashq, 13-dars 69-mashq, 17-dars 1-2-topshiriqlar, 102- va 115-mashqlar, 35-dars 206-mashqni bajartirish jarayonini o'quvchilarning guruh bo'lib ishlashlarini ta'minlagan holda tashkil etish mumkin.

Darslikining 2-bosqich qismini tahlil qilganimizda yangi mavzuni o'tish va uni mustahkamlashga qaratilgan darslardan 2-, 3-, 4-, 5-, 9-, 10-, 11-, 14-, 17-, 18-, 19-, 20-, 22-, 24-, 25-, 26-, 29-, 30-, 31-, 34-, 35-, 36-, 37-, 38-, 40-darslardagi nazariy ma'lumotlarni tushuntirish jarayonida, takrorlash darslaridan esa 1-dars savol-javob, 1-2-3-4-5-6-7-8-22-23-24-mashqlar, 2-dars 40-mashq, 4-dars 58- va 60-mashqlar, 6-dars 110-111-, 113-mashqlar, 10-dars, 13-131-mashqlar, 16-dars 180-181-182-mashqlar, 21-dars 223-mashq, 22-dars 229-230-, 232-, 236-mashqlar, 24-dars 252-,256-mashqlar, 40-dars 383-mashqni bajartirish jarayonida nisbatan kichik

NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT-RESURS MARKAZI

guruhlar bilan ishlashni tashkil etish imkoniyatlari borligi ko'zga tashlandi.

3-bosqich qismini tahlil qilish natijalariga ko'ra 5-, 13-, 19-, 20-, 22-, 23-, 24-, 32-, 33-, 34-, 35-, 38-darslardagi nazariy ma'lumotlarni tushuntirish jarayonida, takrorlash darslaridan esa 1-dars 1-, 6-mashqlar, 5-dars 42-52-mashqlar, 8-dars 54-mashq, 9-dars 61-63-mashqlar, 13-dars, 92-mashq, 17dars 125-mashq, 24-dars 1-topshiriq, 32-dars 1-topshiriq, 189-200-, 205-mashqlar, 40-darsdagi topshiriqlarni bajarish jarayonida nisbatan kichik guruhlar bilan ishlashni tashkil etish imkoniyatlari borligi ko'zga tashlandi.

Maktab va akademik litsey dastur va darsliklari tahlili natijalariga ko'ra aytish mumkinki, darslikdan o'rin olgan barcha nazariy ma'lumotlar va amaliy topshiriqlar o'qituvchiga darsni kichik guruhlar asosida tashkil etish imkonini beradi. Alohida ta'kidlash mumkinki, darslikdagi topshiriq hamda mashqlarning mazmun-mohiyati va bajarilish tartibining o'ziyoq ham o'qituvchiga, ham o'quvchiga jamoa bo'lib ishlashga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

Ona tili mashg'ulotlarini kichik guruhlar asosida tashkil etish jarayonlari dastlab dars kuzatish yo'li bilan o'rganildi. Bunda biz Toshkent viloyati Olmaliq shahridagi 17 -, 20 - maktablardagi ona tili darslari va Navoiy davlat konchilik instituti qoshidagi 3-sonli akademik litseyda o'qitilayotgan hozirgi o'zbek tili darslarini kuzatdik. Jami bo'lib maktablarda 40 ta, akademik litseylarda esa 15 ta dars kuzatildi. Bunda ona tili o'qituvchilarining ish tajribasidagi yutuqlarni aniqlash, kamchiliklar va ularning sabablari haqida mahlumotlar to'plash, kichik guruhlar bilan ishlashni tashkil qilishning qanday amalga oshirilayotganligini bilib olish, maktab va akademik litseyda ularni qo'llashning o'zaro farqli tomonlarini ajratib olishni maqsad qilib oldik; o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining qay ahvolda ekanligiga, shuningdek, kichik guruhlarda ishlashga oid ko'nikma va malakalariga ham alohida e'tiborni qaratdik. Kuzatilgan darslar asosida quyidagi yutuq va kamchiliklarni ko'rsatish imkoniga ega bo'ldik:

– Ko'p hollarda ona tili o'qituvchilari darsni kichik guruhlar asosida tashkil etish va uni o'tkazishda ayrim jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'ymoqdalar, ya'ni darsning barcha bosqichini qamrab olishi yoki olmasligi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lmagan holda, rejasiz ish olib bormoqdalar; shuningdek, maktabda ham, akademik litseyda ham o'quvchilarni guruhlarga ajratishda deyarli bir xillikka yo'l qo'yildi, ya'ni uchta guruhga ajratildi, bu esa eng samarasiz guruh hisoblanadi; guruhlar

uchun beriladigan savollar ham mavzuga aloqador bo'lmagan ma'lumotlarni ham qamrab olgan, lekin bunday savollar takrorlash darslarida yaxshi samara beradi, ammo kichik bir mavzu doirasida u qadar kutilgan natijani bermaydi; barcha darslarda tahlil turlariga kamdan-kam holatlarda murojaat etiladi, mustaqil ravishda lingvistik tahlil o'tkazish jarayonini to'g'ri tashkil etish e'tibor qaratilmaydi; ko'pincha mavzu o'tilayotganda nazariy ma'lumotda tilga olingan lingvistik termin-tushunchani o'quvchilarning tushungan-tushunmaganliklari tekshirilmaydi.

– Aksariyat o'qituvchilarning esa darsni kichik guruhlar asosida tashkil etish va uni o'tkazishda qator yutuqlarga erishayotganligining guvohi bo'ldik, ya'ni takrorlash darslarini boshdan-oyoq kichik guruhlar asosida tashkil etishga harakat qildilar; unda ko'rlab zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishga urindilar; yangi mavzularni o'tishda ham uni mustahkamlash jarayonida o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib savol-javoblar olib bordi, amaliy topshiriq va mashqlarni bajarishga undadi; lekin bu o'qituvchilarning darslarida guruhlar soni uchtagacha bo'lib, undagi o'quvchilarning soni 10-12 tani tashkil etdi, bu esa jamoa bo'lib ishlashning eng samarasiz usuli ekanligini bildiradi.

Darslarni kuzatish bilan bir qatorda o'qituvchilar bilan quyidagi mazmunda savol-javoblar ham olib bordik. Ular bilan olib borilgan suhbat natijalarining tahlilini quyidagi jadvalda keltiramiz:

1-jadval

Suhbat-da qat-nashgan o'qituv-chilar soni	***Savollar***	***Javoblar***	
14	Kichik guruhlar bilan ishlash metodi haqida tushunchaga egamisiz?	Qisman egaman (14 nafardan 12 tasi)	Yo'q (14 nafardan 2 tasi)
12	Bu usulning ustun tomoni nimada deb o'ylaysiz?	Savol javobsiz qoldi	Savol javobsiz qoldi
15	Samarali natijaga erishish uchun guruhdagi o'quvchilar soni nechtagacha bo'lsa	10 ta bo'lgani ma'qul (15 nafardan 13 tasi)	8 ta bo'lgani ma'qul (15 nafardan 2 tasi)

	yaxshiroq?		
10	Agar sinfdagi yoki guruhdagi o'quvchilar soni 30-32 nafarni tashkil etsa, ularni nechta kichik guruhga ajratgan ma'qul deb o'ylaysiz?	10 ta bo'lgani ma'qul (10 nafardan 8 tasi)	8 ta bo'lgani ma'qul (10 nafardan 2 tasi)
15	Kichik guruhlarda ishlash metodini darsning qaysi qismida unumli qo'llash mumkin?	Takrorlash darslarida va darsning mustahkamlash bosqichida (15 nafardan 6 tasi)	Faqat takrorlash darslarida (15 nafardan 9 tasi)
15	Kichik guruhlar bilan ishlash uzluksiz ta'limning, asosan, qaysi bosqichida amalga oshirilsa samarali natija beradi deb o'ylaysiz?	O'quvchilar yoshi va qobiliyatiga hamda o'tilayotgan mavzuning mohiyatiga ko'ra barcha bosqichlarda (15 nafardan 8 tasi)	Faqat akademik litsey o'quvchilari bilan (15 nafardan 7 tasi)
10	Umuniy o'rta ta'limning nechanchi sinf o'quvchilari uchun ushbu metodni qo'llasa dars samaradorligi oshadi deb hisoblaysiz?	O'qituvchining mahoratiga bog'liq (10 nafar 8 tasi)	Imkon qadar yuqori sinflarda (10 nafardan 2 tasi)
10	Akademik litseyning nechanchi bosqich o'quvchilarida ushbu metodni qo'llash yaxshi samara beradi deb o'yxaysiz?	Barcha bosqichlarda (10 nafardan 8 tasi)	Barcha bosqichlarda, faqat takrorlash darslaridagina (10 nafardan 2 tasi)
15	Bir chorak (bir semestr) mobaynida necha	Unchalik ko'p emas (15	Takrorlash darslarini

	marotaba interaktiv metodlardan foydalangansiz?	nafardan 10 tasi)	imkon qadar interaktiv metodlardan foydalangan holda o'taman (15 nafardan 5 tasi)

Jadvaldagi javoblardan ham ko'rinib turibdiki, o'qituvchilarning aksariyat qismi hatto kichik guruhlarda ishlash metodi va uning afzal tomonlari haqida ma'lumotga ega emas, bu metod asosida darslar tashkil qilinganda o'quvchilar sonining kam bo'lishi yaxshi hatijalarga olib kelishini, faqat undan takrorlash darslaridagina emas, balki darsning barcha bosqichlarida unumli foydalnish mumkinligini tushunib etmaganligining guvohi bo'ldik. Bu esa ular faoliyatida kichik guruhlarda ishlsh metodidan foydalanishning qay darajada ekanligini bilib olishga ham yordam beradi. O'tkazilgan suhbat natijalari bizga kichik guruhlarda ishlash metodining samaradorligini oshiruvchi omillarni belgilab olishga yordam berdi.

Biz maktab va akademik litsey o'quvchilarining kichik guruhlarda ishlash metodi yuzasidan tasavvurlari va qiziqishlarini aniqlash maqsadida ular orasida ham so'rovnomalar o'tkazdik. Quyida so'rovnoma namunasi va natijalari tahlilini keltiramiz:

1. Ona (hozirgi o'zbek adabiy) tili darslarida kichik guruhlarga bo'linib dars o'tasizlarmi?

A) Ha, har doim. B) Yo'q, umuman o'tmaymiz. D) Ha, ba'zan. E) Faqat takrorlash darslarida.

2. Kichik guruhlarga bo'linganingizda guruhda nechtadan o'quvchi bo'lardi?

A) Har doim 10 tadan. B) 8 yoki 10 tadan. D) E'tibor qilmaganmiz. E) Ba'zah 5-6 tadan, ba'zida esa 8 tagacha boradi.

3. Sinfdagi barcha o'quvchilar nechta guruhga bo'linardi?

A) 3 ta guruhga. B) 6 ta guruhga. D) Esimda yo'q. E) Har xil.

4. Qaysi paytlarda ko'proq kichik guruhlarga bo'linib dars o'tardingiz?

A) Ayniqsa takrorlash darslarida. B) Ochiq darslarda. D) Darsning oxirgi vaqtlarida. E) Takrorlash darslarida va darsning mustahkamlash bosqichida.

5. Darslar kichik guruhlarga bo'linib tashkil etilganda unda "Klaster", "Venn diagrammasi", "Aqliy hujum" kabi usullardan foydalanilganmi?

A) Bu usullar haqida tasavvurga ega emasman. B) "Aqliy hujum"dan ko'p foydalanardik. D) Barchasidan foydalanardik. E) Ko'pincha o'yin va musobaqalar bo'lardi.

6. Kichik guruhlarga bo'linib dars o'tganingizda dars siz uchun qiziqarli bo'larmidi?

A) Ha, menga juda yoqadi. B) Boshqa darslarga qaraganda qiziqarliroq. D) Unisi ham yaxshi, bunisi ham yaxshi. E) Faqat yaxshi o'zlashtiradiganlar faol ishtirok etishadi.

7. Kichik guruhlarga bo'linib dars o'tganingizda shartlarini bajarishga baqt etarli bo'ladimi?

A) Na, bemalol ulguramiz. B) Yoq, ulgura olmay qolamiz. D) Shartlarning murakkabligiga darajasiga ko'ra. E) Vaqt to'g'ri taqsimlanmaydi.

8. Guruh bo'lib ishlaganingizda qiyinchiliklar bo'ladimi?

A) Na, ayrim vaqtlarda. B) Yo'q, chunki har bir ishtirokchining vazifasi aniq bo'ladi. D) Bunda guruh sardorining o'rni katta. E) Vazifalarning soda yoki murakkabligiga qarab.

9. Guruhlarda hamma faol ishlaydimi?

A) Ha. B) Yoq. D) Guruh sardori ko'proq vazifani bajaradi. E) Faqat har doim faol bo'lib kelgan o'quvchilargina.

10. Kichik guruhlar bilan ishlashda qanday talablar qo'yiladi?

A) Chaqqonlik va ahillik. B) Ziyrak bo'lishni. D) Juda bilimli bo'lishni. E) Chaqqon, ahil va ziyrak bo'lishni.

Maktab o'quvchilari bilan o'tkazilgan so'rovnomada 160 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Tahlil natijalarini quyidagi jadvalda keltiramiz:

2-jadval

T/r	O'quvchilar soni			
	A javobni belgilaganlar	B javobni belgilaganlar	D javobni belgilaganlar	E javobni belgilaganlar
1.	13	44	51	52
2.	82	43	18	17
3.	99	41	10	10
4.	37	73	55	15
5.	66	50	-	69
6.	31	31	48	50
7.	21	58	41	40

8.	29	32	71	28
9.	11	52	63	34
10.	44	42	48	26

Birinchi savolga 160 o'quvchining 10 nafari "ha, har doim", 50 nafari "yo'q, umuman o'tmaymiz", 50 nafari "ha, ba'zan", 50 nafari esa "faqat takrorlash darslarida" deb javob berishgan. Javoblar mazmunidan ko'rinib turibdiki, darslarni kichik guruhlar asosida tashkil muntazam ravishda olib borilmaydi.

"Kichik guruhlarga bo'linganingizda guruhda nechtadan o'quvchi bo'lardi?" degan savolga 80 o'quvchi "har doim 10 tadan", 40 tasi "8 yoki 10 tadan", 20 o'quvchi "e'tibor qilmaganmiz", 20 tasi esa "ba'zah 5-6 tadan, ba'zida esa 8 tagacha boradi" degan javobni berishgan. Ta'kidlash lozimki, aksariyat ona tili darslarida, asosan, 10 talik guruh bilan ish olib borilgan.

3-savolga eng ko'p javob 3 ta yoki 6 ta guruh deya javob berilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, sinfdagi qatorlar soni e'tiborga olingan. Ikkala javob mazmunidan shu narsa anglashildiki, sinfdagi o'quvchilar sonini guruhlarga ajratishda va guruhlar sonini belgilashda, asosan, qatorlar soni e'tiborga olingan.

4-savolga 160 o'quvchidan 40 nafari "ayniqsa, takrorlash darslarida", 70 nafari "ochiq darslarda", 60 tasi "darsning oxirgi vaqtlarida", 10 tasi esa "takrorlash darslarida va darsning mustahkamlash bosqichida" deb javob berishgan. Demak, kichik guruhlar bilan ishlash darslari o'qituvchi tomonidan o'tkaziladigan ochiq darslar mohiyatini va dars metodini belgilab berarkan, xolos.

5-savolga 60 nafar o'quvchi "bu usullar haqida tasavvurga ega emasman", 40 nafari "aqliy hujum"dan ko'p foydalanardik", 60 ta oq'uvchi "ko'pincha o'yin va musobaqalar bo'lardi" degan javobni qaytarishgan. Maktab ona tili darslarida, kichik guruhlar asosida tashkil qilinadigan aksariyat darslar mohiyatini o'yin va musobaqalar tashkil qolarkan degan xulosaga kelish mumkin.

"Kichik guruhlarga bo'linib dars o'tganingizda dars siz uchun qiziqarli bo'larmidi?" savolga 30 tasi "ha, menga juda yoqadi", 30ta o'quvchi "boshqa darslarga qaraganda qiziqarliroq", 50 ta o'quvchi "unisi ham yaxshi, bunisi ham yaxshi", 50 ta o'quvchi esa "faqat yaxshi o'zlashtiradiganlar faol ishtirok etishadi" degan javobni belgilashgan.

7-savolga 20 nafari "ha, bemalol ulguramiz", 60 nafari "yoq, ulgura olmay qolamiz", 40 ta o'quvchi "shartlarning murakkabligiga darajasiga

ko'ra", yana 40 ta o'quvchi "vaqt to'g'ri taqsimlanmaydi" degan javobni berishgan.

8-savolga 160 nafar o'quvchidan 30 tasi "ha, ayrim vaqtlarda", yana 30 tasi "yo'q, chunki har bir ishtirokchining vazifasi aniq bo'ladi", 70 ta o'quvchi "bunda guruh sardorining o'rni katta", 30 tasi "vazifalarning sodda yoki murakkabligiga qarab" deb javob berishgan.

9-savolga 10 ta o'quvchi "ha", 50 tasi "yo'q", 60 tasi "guruh sardori ko'proq vazifani bajaradi", 40 tasi esa "faqat har doim faol bo'lib kelgan o'quvchilargina" degan javoblarni belgilashgan. Yuqoridagi savollarga berilgan javoblardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'quvchilar bu tarzda tashkil qilingan darslarga qiziqishadi, bunday darslarga nisbatan beparvo emas.

"Kichik guruhlar bilan ishlashda qanday talablar qo'yiladi?" degan savolga 40 ta o'quvchi "chaqqonlik va ahillik", 40 tasi "ziyrak bo'lishni", 50 ta o'quvchi "juda bilimli bo'lishni", 30 tasi esa "chaqqon, ahil va ziyrak bo'lishni" deb javob berishgan. O'quvchilar kichik guruhlar bilan ishlash bo'yicha to'liq tushunchaga ega emas, uning talablarini mukammal bilmaydi.

Endi akademik litsey o'quvchilari bilan o'tkazilgan so'rovnoma natigalariga to'xtalamiz. So'rovnomada litsey o'quvchilaridan jami 80 ta o'quvchi qatnashdi. Ular bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari quyidagicha:

3-jadval

T/r	O'quvchilar soni			
	A javobni belgilaganlar	B javobni belgilaganlar	D javobni belgilaganlar	E javobni belgilaganlar
1.	16	14	32	18
2.	34	15	16	15
3.	34	26	10	10
4.	32	18	13	17
5.	9	21	21	29
6.	31	27	12	10
7.	33	21	20	6
8.	32	20	14	14
9.	11	49	10	10
10.	13	15	23	29

Akademik litsey o'quvchilari tomonidan berilgan javoblarni o' chiqib shunday xulosaga keldik:

1. Akademik litseylarning hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida asosan, o'tilgalasni takrorlashga oid darslaridagina kichik guru ishlash metodidan foydalaniladi.

2. O'qituvchilar kichik guruhlar bilan ishlash met foydalanganda guruh o'quvchilarini guruhlarga ajratishda ko'proq guruhga ajratishni ma'qul ko'rishadi.

3. Maktab o'quvchilariga qaraganda akademik litsey o'quv zamonaviy pedagogik texnologiyalrdan ancha-muncha xabardor ek ma'lum bo'ldi.

4. O'quvchilarning ko'pchiligi kichik guruhlarda ishlash qoid bilmaydilar, ya'ni faqat bilimli bo'lishning o'zi yetarli deb o'ylashadi.

5. Kichik guruhlarda ishlash jarayonida o'quvchilarni ma'lumotlar yuzasida beriladigan topshiriqlardan ko'ra ularni a qo'llashda qiyinchilikni hia etadilar.

Ko'rinib turibdiki, o'qituvchilar va o'quvchilar orasida olib bo suhbat va so'rovnoma natijalari kichik guruhlarda ishlash met foqdalanish, uni amalda qo'llash, uning mazmun-mohiyati, foydalanishning afzalligi xususida nazariy va amaliy bilimlarga ega Uni qo'llashda ham o'qituvchilar, ham o'quvchilar qiyinchilikni etadilar. Bundan ko'rinib turibdiki, nafaqat dars o'tish jarayoniga, guruhlar bilan ishlashga tayanadigan ona tili darslariga, uni tashkil mazmuniga, usullariga va uning samaradorligini belgilovchi omi ham aniqlik kiritish lozim. Bunda asosiy e'toborni ona tilidan maqsadlarini texnologik usaulda loyihalash[35]ga qaratish kerak. Chun A.G'ulomov va H.Ne'matovlar "Ona tili ta'limi mazmuni" kit ta'kidlaganidek, "Ammo, afsuski, o'rta umumta'lim maktablarida o o'qitilishini talab darajasida deb bo'lmaydi. Buning bosh sabablarida shundaki, biz inson ongini, uning tafakkurini rivojlantirishda ona til tutgan o'rniga noto'g'ri baho berib keldik. Ongni, tafak shakllantirishda ijtimoiy fanlarning vazifasi deb bilib, maktabda tilidan ta'lim mazmunini ona tili qurilishining ilmiy talqini, gramma o'rganishdan iborat deb hisobladik. ...O'quvchilarning ko'pchilik qis ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga

35 Мадумаров Т., Камолдинов М. Инновацион педагогик технология асослари ва уни таълим

ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalari hamon past saviyada qolib kelmoqda".[36]

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarni, bunday kamchiliklarning sodir bo'lishini ona tili mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali va o'rinli foydalana olmaslik natijalari deb baholash mumkin. Ona tili mashg'ulotlarida dars jarayonining barcha bosqichlarida kichik guruhlar bilan ishlash usulidan mohirona foydalana olmaslik natijalari ham shunga olib boradi. Chunonchi, kichik guruhlar bilan ishlsh usuli o'quvchida aynan ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantitrishga yordam beradi.

Maktab va akademik litseylarda kichik guruhlarda ishlash amaradorligini oshirishga doir yondashuv va tamoyillar

Mavjud metodik adabiyotlarda til materiallarini o'rgatishda amal qilinishi lozim bo'lgan yondashuv va tamoyillar haqida so'z yuritilgan. Ona tili darslarida kichik guruhlar bilan ishlash metodidan foydalanishda amal qilinadigan yondashuv va tamoyillarni belgilashda N.Mahmudov, H.Nurmonov, A.G'ulomov, H.Ne'matov, R.Safarova, T.G'aniyev, Sh.Yusupova, I.Toshev, Sh.Yo'ldosheva, N.Yo'ldosheva, N.M.Dadajonova, X.Qurbonova, T.Ziyodova, M.Mirmaxsudova, T.Yusupova, F.H.Aminova va boshqa metodist olimlarning, didaktika bo'yicha esa M.I.Maxmutov[37], E.G'oziyev[38]larning tadqiqot ishlari, monografiyalari, metodik qo'llanmalari, ilmiy maqolalariga tayandik. Shuningdek, xorij metodist olimlaridan Yu. K. Babanskiy[39], T.I.Shamova[40], K.D.Ushinskiy[41], Sh. I. Gepelin[42], L.P.Federenko[43], I.Ya.Lerner[44], T.V.Napolnova[45], M.N.Skatkin[46], A.M.Matyushkin[47],

---

36. Ғуломов А., Неъматов Ғ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик қўлланма – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 125 б.

37. Махмутов М.И. Мактабда проблемали таълимни ташкил қилиш. Тошкент. 1981.

38. Ғозиев Э. Ўқувчиларни умумлаштириш усулларига ўргатиш ва уларнинг ақлий тараққиёти. Тошкент. 1979.

39. Бабанский Ю.К. Рациональная организация учебной деятельности. М., 1981.

40. Шамова Т.И. Активизация учения школьников. М., 1979.

41. Ушинский К.Д. Танланган педагогик асарлар. Тошкент, 1959.

42. Гепелин Ш.И. Дидактический принцип сознавательности. М., 1964.

43. Федеренко Л. Принципы и методы обучения русскому языку. М., 1964.

44. Лернер И.Я. Дидактическая система методов обучения. М., 1976.

45. Напольнова Т.В. Познавательные задачи в обучении русскому языку. М., 1968.

46. Скаткин М.Н. Активизация познавательной деятельности учащихся в обучении. – Материалы к научной конференции по дидактике (11 – 13 мая, 1965 г.) М., 1965.

47. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. М., 1972.

Ye.I.Shukina[48], M.R.Lvov[49], N.S.Rojdestvenskiy[50], O.O.Xarchenko[51]larning ishlarini inobatga oldik.

Maktab va akademik litsey til ta'limi jarayoni bugungi kunda birinchi navbatda kommunikativ yondashuv xususiyatlarini o'zida aks ettirmog'i darkor. Kommunikativ yondashuvga ko'ra nutq muayyan nutqiy maqsadni ro'yobga chiqarish, kimgadir axborot berib, kimdandir axborot olish, kim bilandir fikr almashish asosida harakatga keltiriladi. Buning uchun yoshlar nutq o'stirish mashqlari mobaynida muloqot madaniyatini o'zlashtirishlari, suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatish layoqatini egallashlari lozim. Shuningdek, ushbu yondashuvning talabiga ko'ra maktab va akademik litseyning o'quvchilari ona tilini muomala-aralashuv taqozo etadigan, axborot olish ehtiyoji talab qiladigan darajada o'rganishi va egallashi zarur, qolaversa, shu tilning chinakam sohibiga aylanishlari darkor. Kommunikativ yondashuvning mazmun-mohiyati rus tili o'qitish metodikasida yetarlicha o'rganilgan. Metodist-olim O.O.Xarchenko o'z maqolasida bugungi rus tili darsliklari kommunikativ yondashuv asosida yaratilayotganligini uqtiradi va shunga ko'ra ham ta'limning nutqiy (kommunikativ) yo'nalganlik tamoyilini ajratilish lozimligini ta'kidlaydi.[52]

Filologik maqsad bilan nutq o'stirish maqsadi birligini ta'minlash tamoyili kommunikativ yondashuvning amal qilish yo'sinini ifoda etadi. Filologik maqsad – til hodisalarni o'zlashtirish bo'lsa, nutq o'stirish maqsadi – o'rganilgan til hodisalaridan – tilning boy imkoniyatlaridan mumkin qadar to'liqroq foydalanib nutq mahsulini yaratishdir.

Ona tili darslarida filologik maqsad bilan nutq o'stirish maqsadini birlashtirish imkonini beruvchi jarayonni yuzaga keltirishda kichik guruhlar bilan ishlash metodidan foydalanishning o'rni beqiyos. Chunki bunda guruhdagi o'quvchilarning faolligi o'quvchi egallagan bilim, ko'nikma va malakalar asosiga quriladi, faollikni yuzaga keltirish jarayoni o'quvchi nutqi orqali namoyon bo'ladi. Demak, o'qitishga kommunikativlik tamoyili asosida yondashuv ona tili mashg'ulotlarini kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil qilishda, qolaversa, darsda samaradorlikka erishishda juda katta yordam beradi.

---

48. Шукина Е.И. Активизация познавательной деятельности учащихся в учебном процессе. М., 1979.

49 Львов М.Р. Словарь – справочник по методике русского языка М., 1988.

50. Рождественский Н.С. Дидактико-методические принципы начального обучения родному языку // Методика грамматики и орфографии в начальных классах / В.А.Кустарева, Н.К.Никитина, Н.С Рождественский и др.; Под ред. Н.С. Рождественского 2-ое изд. – М.: Просвещение, 1979.

51. Харченко О.О. Через постижение "тайн языка" – к текстовой компетенции // Начальная школа. – 2007. - №5. – С. 36-43.

52. Харченко О.О. Через постижение "тайн языка" – к текстовой компетенции // Начальная школа – 2007. - №5 – С. 36-43.

Ta'lim tamoyillari ta'lim tizimi oldiga qo'ygan talablardan kelib chiqadi, shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish o'qitish tamoyillarini amalda to'g'ri qo'llash bilan bog'liq. Shu o'rinda o'qitish tamoyili nima degan savol tug'iladi. Tamoyil va prinsip atamalari pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarda sinonim sifatida almashinib qo'llaniladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"[53]da prinsip va tamoyil atamalariga quyidagicha ta'rif berilgan: *"Prinsip"* – lotincha so'z bo'ib, *asos, negiz, ibtido* degan ma'nolarni anglatadi. Ko'p ma'noli so'z sanaladi: *1. Biror nazariya, ta'limot, dunyoqarash va sh.k. ning dastlabki, asosiy qonun-qoidasi; faoliyat asos qilib olinadigan bosh g'oya, qonun-qoida. 2. Xulq-atvor, xatti-harakat me'yorlarini belgilaydigan, kishi og'ishmay amal qiladigan ichki ishonch, nuqtai nazar, qarash, moslik. "Tamoyil"* – arabcha so'z bo'lib, *tebranish, chayqalish, o'zgarib turish, o'zgaruvchanlik, moyillik* degan ma'nolarni anglatadi. Ko'p ma'noli so'z bo'lib, quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: *1. Mayl, moyillik. 2. Biror sohada tartib, qoida tusini olgan narsa, tadrijiy yo'nalish.* Demak, bu ma'nolar mazmunidan kelib chiqadiki, ta'lim sohasida, aynan o'zbek tili o'qitish metodikasida biz "prinsip" tushunchasining birinchi ma'nosini, "tamoyil" tushunchasining esa ikkinchi ma'nosini tanlashimiz mumkin. Shunga ko'ra universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun yaratilgan "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligida *"prinsip"* so'ziga shunday ta'rif beriladi: "Prinsip" lotincha so'z bo'lib, *asos, qoida, talab* singari ma'nolarni ifodalaydi. ***"O'qitish prinsipi"*** deganda dars samaradorligini ta'minlash, ta'lim jarayonini tashkil etish, uyushtirishga qo'yilgan asosiy talablar, qoidalar tushuniladi. O'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil qilishda ana shu talab va qoidalardan kelib chiqadi va ular o'rtasidagi uzviy bog'liqni ta'minlagan holda amalda tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishadi.

Ma'lumki ona tili darslarida bir tomondan umumdidaktik tamoyillar, ikkinchi tomondan shu fanni o'qitishning o'ziga xos tamoyillarini hisobga olishga to'g'ri keladi. Umumdidaktik tamoyillar garchand ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha fanlarga aloqador bo'lsa-da, ammo u har bir fanning ichki tabiatidan, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ta'lim muassasalarida o'qitiladigan hamma fanlar uchun umumiy bo'lgan didaktik tamoyillar: o'qitishning o'quvchiga ma'lumot berish, tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilganligi; o'qitishning ilmiyligi va o'quvchi uchun

---

53. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. III. Н – Тартибли/ Таҳрир ҳайъати Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.: ЎзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 688 б.

tushunarliligi; sistemaviylik va izchillik; nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqasi; ongliik, faollik va mustaqillik; ko'rsatmalilik; o'quvchilarga individual munosabatda bo'lish va ularning o'quv imkoniyatlarini hisobga olish kabi tamoyillar garchand umumdidaktik tamoyillar sanalsa-da, ammo ona tili o'qitish nazariyasi va metodikasida ularning har biri o'ziga xos mazmun kashf etadi.

Ona tili o'qitishda umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda shu fanning tabiatidan kelib chiqadigan quyidagi o'ziga xos tamoyillar ham mavjud: 1) "til-me'yor-nutq mutanosibligi" tamoyili; b) o'zbek tili fanini o'qitish orqali o'quvchilar tafakkurining o'sishiga erishish tamoyili; v) o'zbek tilini o'qitishda mavzulararo, bo'limlararo va fanlararo bog'lanishga qat'iy amal qilish tamoyili; g) o'quvchilarni til hodisalarini ajratishga o'rgatish tamoyili; d) o'zbek tilini o'qitish orqali o'quvchilarning nutq malakalarini mustahkamlash va til sezgirligini oshirish tamoyili; e) ona tilini o'qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta'sirini nazarda tutish tamoyili.

Ta'lim bosqichlarida kichik guruhlar bilan ishlashni tashkil etishda ona tili o'qitishning o'ziga xos tamoyillarini umumdidaktik tamoyillar bilan uyg'unlashtirgan holda foydalanganda ona tili darslari samaradorligini oshirish imkoniyatlari to'liq yuzaga keladi.

Demak, kichik guruhlar bilan ishlashda o'qituvchi mashg'ulot jarayonini to'g'ri tashkil qilish uchun umumdidaktik va o'zbek tilining o'ziga xos tamoyillaridan amalda o'rinli foydalana olishni bilishi shart.

Kichik guruhlar bilan ishlsh metodi orqali tashril qilinadigan mashg'ulotlarni o'tkazishda ta'lim, tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi tamoyiliga amal qilish lozim, chunki kichik guruhlarda faoliyat yuritayotgan o'quvchilarning nafaqat zaruriy bilim olishlari, balki guruhda o'zaro muloqotda guruh bilan ishlash qoidalariga amal qilishni ham o'rgatmoq lozim bo'ladi. Bu ham o'quvchini katta hayotga tayyorlashning o'ziga xos usuli sanaladi.

Bu metod o'z o'rnida guruhli va individual ta'limning birligi tamoyili bilan o'zaro uyg'unlashib ketadi. Guruhli va individual ta'limning birligi tamoyili mohiyatida shaxsning atrofdagilar bilan munosabatda bo'lish mazmuni yotadi. Guruhli ta'lim munozara, muzokara tashkil qilish uchun qulay sharoitga ega bo'lib, o'quv masalalarini va topshiriqlarini yechishning samarali yo'llarini birgalikda izlashni ta'minlaydi, o'zaro yordam ko'rsatish uchun sharoit yaratadi, o'quvchilarning mas'uliyat hissini oshiradi. Ona tili darslarida guruhli ta'limni tashkil etish jamoani shakllantirishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Noan'anaviy ta'limda

ham, an'anaviy ta'limda ham guruhli va individual ta'limning birligi tamoyili o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, an'anaviy ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra guruhli hisoblanadi, zero, u 30-40 nafar o'quvchilardan iborat o'quv guruh (yoki sinf)larda tashkil etishadi. 100-200 nafar talabalardan iborat kurslarda esa ta'limga sarflanadigan harakatlarni kamaytirish maqsadida ma'ruzalar o'qish tashkil qilinadi. Bunday ta'lim shakli o'quvchilarning o'quv masalalarini va topshiriqlarini yechishning samarali yo'llarini birgalikda izlashini ta'minlaydi, bir-birlariga yordam ko'rsatish uchun shart-sharoit yaratadi, o'quvchilarda mas'uliyat va javobgarlik hissini kuchaytiradi.

Ma'lumki, ona til ta'limida kichik guruhlar bilan ishlashda izchillik va ketma-ketlilik, uzviylik va uzluksizlik tamoyili ham muhim o'rin tutadi. Ushbu tamoyilga ko'ra til bilimiga oid jihat o'zaro aloqadorlikda, izchil va uzviy taqsimlanmog'i va o'quv yillari mobaynida tadrijiy takomilda o'rganilmog'i darkor. Shuningdek, bu tamoyil mazmuni, asosan, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan sub'yektlarning o'zaro munosabatlari bilan ham belgilanadi. Bu tamoyil mazmuniga ko'ra alohida parsial (yunoncha *partualis* – qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi. Ma'lumki, izchillik va muntazamlilik, uzviylik va uzluksizlik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi. Muntazamlilik va ketma-ketlik, uzluksizlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Kichik guruh bo'lib ishlashni tashkil etishda o'quvchiga beriladigan topshiriqlar va mashqlar mohiyati oddiydan murakkabga qarab borilishini ta'minlashni taqozo etadi. Chunonchi, izchil va uzluksiz ona tili ta'limi mobaynida yoshlar nutq madaniyatini talab darajasida egallashlari kerak. Shunga doir bilim, ko'nikma va malakalarni muntazamlilik, uzviylik, ketma-ketlilik asosida egallana boradi. Ular bosqichma-bosqich aniq, ta'sirchan, lo'nda fikr bayon qilishni o'rganishadi. Bu o'rinda ona tili darslarida o'quvchilar bilan kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish yaxshi natijalarga olib keladi. Ona tili ta'limini uzluksizlik va uzviylik, muntazamlilik va ketma-ketlilik tamoyili asosida tashkil qilishda kichik guruhlar bilan ishlash metodidan foydalanishni guruhlar orasida o'tkaziladigan musobaqalarda amalga oshirish mumkin. Uzoq o'tilganlarni takrorlash va qayta xotiraga tushirish mashqlarini o'tkazish mazmun-mohiyatiga ko'ra uzluksizlik va uzviylik,

izchillik va ketma-ketlilik tamoyiliga asoslanadi. O'rganilayotgan yangi mavzuning mohiyatini o'quvchilarga anglatish ba'zi o'rinlarda uzoq o'tilganlar mavzularning o'quvchilar xotirasida qanchalik saqlanib qolganiga ham bog'liq. O'tilgan mavzularni yangi o'rganiladigan mavzular bilan bog'lashda tatbiq etiladigan metodlarni va innovatsion texnologiyalarni darsga joriy etishda uzluksizlik va uzviylik tamoyiliga tayaniladi. Shunda mavzulararo bog'liqlik amalga oshiriladi, qolaversa, ta'limning bosqichlariaro uzluksizligi va uzviyligi namoyon bo'ladi. Darslarni kichik guruhlar bilan ishlash metodida tashkil etishga muntazam va davomiy amal qilinsa, bu jarayonning o'ziga xos muammolari ham o'z yechimini topadi.

Ona tili darslarini onglilik va ijodiy faollik tamoyili talablarida ko'ra tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mashg'ulot kichik guruh bo'lib ishlash asosida olib boriladigan darslarda o'quvchilarning tafakkurni, mantiqiy fikrlashini, ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda ahamiyati katta, bu ta'lim motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi bog'liq. O'quvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil o'quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Til ta'limida kichik guruhlar bilan ishlashni tashkil etish o'quvchilarning real bilimlarini hisobga olish tamoyiliga asoslanib qurilgan taqdirdagina o'zlashib ketgan grammatik tushunchalarni, nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun behuda urinishdek vaqt isrofgarchiligining oldi olinadi. Real bilimlarni hisobga olish tamoyiliga ko'ra dars kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil qilinganda imkoniyat o'quvchi egallagan ko'nikma va malakalar hisobiga yuzaga keladi. Buni ko'pincha darsning mustahkamlash bosqichida va takrorlash darslarida amalga oshirish mumkin. Shunda o'qituvchi asosiy maqsadni egallangan ko'nikma va malakalarga qaratadi. O'quvchilardagi real bilimlar ularni muloqotga kirishishga undaydi, bu esa ularda o'z fikrini erkin, to'g'ri va ravon ifodalashga, og'zaki va yozma nutqining o'sishiga yaqindan yordam beradi.

Maktab ona tili va akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarini kichik guruhlar asosida tashkil etishda til sathlarini integratsiyalash tariqasida amalga oshirish ham o'quvchilarni faollashtirish va dars samaradorligiga erishishda yaxshi natijalarga erishish imkonini yuzaga keltiradi. Lekin ba'zi mavzularda alohidaliklarni ajratish zaruriyati

ham ko'rinadi. Bunday alohidaliklar mavzuning qaysi jihatlariga e'tiborni ko'proq qaratish, nimalarni mustahkamlash va takrorlashga ko'proq vaqt ajratish kerakligi bilan bog'liq. Ushbu masala ta'lim mazmuniga differentsiatsiya asosida yondashish kerakligini anglatadi.

Ko'rgazmalilik tamoyili ta'lim jarayonini tashkil etish asosida yotuvchi muhim qoidalardan biri hisoblanadi. Y.A.Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. "Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak – deb ta'kidlaydi u – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganilsin"[54].

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15 %, ko'rib qabul qilish esa – 25 % ni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 % gacha ortadi.

Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda. Darslar kichik guruhlar asosida tashkil etilganda ham ko'rsatmali qurollardan yetarli darajada foydalanish zarur. Har bir guruh bajaradigan topshiriqlar va ularning javoblari monitoring qilib borilishi o'qituvch va o'quvchilarni aniq maqsad sari yo'naltiradi.

Ta'limning samaradorligi va ishonchliligi tamoyili an'anaviy didaktikada u mustahkamlik tamoyili kabi ifoda etiladi. Agarda o'qitish jarayoni ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlamasa, u holda ushbu jarayonni tashkil etish zaruriyati yuzaga kelmaydi. Shu bois ta'lim samarali, shuningdek, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'lishi kerak. Ta'limning ishonchliligi va mustahkamliligini ta'minlash uchun o'quvchilar o'qish jarayonida o'quv-o'rganish harakatlarining quyidagi to'la siklini o'zlashtira olishlari zarur: o'rganilayotgan materiallarni dastlabki qabul qilish, uni chuqurroq anglab yetish, eslab qolish, o'zlashtirilgan bilimlarini qo'llash bo'yicha ma'lum faoliyatni amalga oshirish, ularni takrorlash va tizimlashtirish. Darslarning kichik

---

54 Коменский Я.А. Буюк дидактика. Изб. пед. соч. В 2 том. М. 1982. Т.I. – с. 384.

guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil etilishining mazmun-mohiyati ham shuni ifoda etadi. Chunki kichik guruhning har bir a'zosi o'z faoliyatlarida ana shu bosqichlarni bosib o'tadi.

Ta'limning o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi tamoyili o'quvchilarning yoshiga ko'ra va individual yondashuvni anglatadi. Yoshiga muvofiq yondashish o'quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo'yilayotgan talablar yoki ta'limning tashkiliy tuzilishi o'quvchilarning yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgarilab ketsa, o'quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish o'quvchilarning murakkab ichki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo'ladigan ko'p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi. Kichik guruhlar bilan ishlash asosida tashkil etiladigan darslarda ham o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish o'ta muhim. Chunki o'quvchiga taqdim etilayotgan barca o'quv mateiallari va topshiriqlar ularninh o'zlashtirishlari va bajara olishlari uchun mos kelishi kerak. Masalan, 5-sinf o'quvchilari uchun tayyorlanayotgan savol va topshiriqlar mazmunida oddiylik, ma'lum darajada o'yinga moyillik ustun bo'lishi hisobga olinishi zarur.

Ta'lim jarayonida hamkorlik tamoyiliniga amal qilish, ayniqsa, biz tadqiqot olib borayotgan kichik guruhlar bilan ishlash metodida juda ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki darslarni kichik guruhlar asosida tashkil etishning mazmunida ham ta'lim jarayonida shaxsning ustuvor mavqeini ta'minlash, uning o'z-o'zini anglashiga erishish ustuvor o'rin tutadi. Chunonchi, bu tamoyil o'zaro munosabatlar jarayonida subyektlar o'rtasidagi aloqalarning dialog shakli, shaxslararo munosabatlar mazmunida esa empatiya (yunoncha empathlia – birgalikda tashvishlanish, ya'ni boshqa odamning tashvishlarini tushunish)ning ustunligiga erishishni talab etadi. Ona tili ta'limining bosh maqsadlaridan ham biri ham jamoada o'quvchini o'zini va o'zgalarni hurmat qilishga, do'stona munosabatda bo'lishga tarbiyalashdan iborat.

Demak, maktabda ona tili va akademik litseyda hozirgi o'zbek adabiy tili darslarini kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil etish jarayonida, albatta, unga asos bo'ladigan yondashuv va tamoyillarning ahamiyati katta. Ular darsni to'g'ri tashkil qilishda va samaradorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi, o'qituvchi kichik guruhlar bilan ishlsh metodidan qo'llashda bulardan o'rinli foydalana olishi katta rol o'ynaydi.

Kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish jarayonida samaradorlikka erishish mazmuni

Maktabdagi ona tili va akademik litseydagi hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish mazmuni masalalari yuzasidan ilmiy-nazariy fikrlar mavjud. T.S.Tomina, L.A.Trostensova, G.A.Bogdanova, A.G'ulomov, H.Ne'matov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Bobomurodova, Sh.Yusupova, O.Oxunjonova, M.Qodirov, M.Ernazarovalar o'z ishlarida munosabat bildirib o'tganlar. Ammo bu tadqiqot ishlarida aynan kichir guruhlar bilan ishlsh masalasi maxsus tadqiq etilmagan. Ona tili ta'limi jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish yo'l-yo'riqlarigina yoritilgan, xolos. O'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasi fanida bu borada hammualliflikda yaratilgan "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligi va N.Ahmedovaning "O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari" uslubiy qo'llanmasi e'tiborga molik.[55]

Darsda kichik guruhlar bilan ishlsh muammosi maktab va akademik litsey ona tili ta'limi oldida turgan muhim vazifa, amaliy zaruriyat sanaladi. Chunonchi, hozirgi kunda ona tili darslarini kichik gurular bilan ishlash metodi asosida tashkil etish va bu jarayonda samaradorlikka erishish ta'lim mazmunidan joy olgan o'quv faoliyatlaridan hisoblanadi. Ilg'or va tajribali o'qituvchilarning faoliyatida bu yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Matbuotda ham bu haqda bir qator maqolalar chop etilmoqda[56]. Bu maqolalarda ona tili darslarida kichik guruhlar bilan ishlashga doir fikrlarini bayon etishgan. Shunday bo'lsa-da, samaradorlikka erishish masalasi haligacha o'z yechimini topgani yo'q. Samaradorlikka erishish uchun nimalarga e'tibor qaratilishi zarurligi o'rganilmagan.

Ma'lumki, o'quvchilarni guruhlarga birlashtirib, ular o'rtasidagi hamkorlikni yuzaga keltirish o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini emas, balki o'quvchi va o'quvchi hamkorligining yuzaga kelishiga sharoit yaratadi. Chunonchi, maktab ona tili darslarida va akademik litseyning hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida kichik guruhlarda ishlashni tashkil etishning o'ziga xos farqli jihatlari mavjud. Bu farqlar ularning yoshida, fikrlash malakalarida, o'z fikrini erkin, mustaqil va ravon bayon eta olish

---

55. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alautdinova N., Karimjonova I. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: "Fan va texnologiya" 2012, 363-364-betlar. N.Axmedova. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2012, – 27-33-betlar.

56. Абдураззокова Д. Кичик гуруҳларни ташкил этиш қоидалари "Умумтаълим фанлари методикаси". 2013, 2-сон, 16-бет

ko'nikma va malakalarida, mashg'ulotni tashkil etish yo'l-yo'riqlarida, unda qo'llaniladigan usullarda, tatbiq etiladigan savol va topshiriqlarning ko'lami va mazmunida ko'zga tashlanadi. Demak, ona tili darslarini kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil etishda quyidagilarga amal qilish lozim:

1. Dastavval, maktab "Ona tili" va akademik litsey "Hozirgi o'zbek adabiy tili" dastur va darsliklarini o'rganib chiqib, ularni darsliklarning kichik guruhlar bilan metodidan foydalanishdagi imkoniyatlari yuzasidan tahlil qilish va qaysi mavzularni o'tishda kichik guruhlar bilan ishlash imkoniyatlari borligini aniqlash zarur[57]. Chunki darslikda berilgan mavzuga doir nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish, topshiriq va mashqlarni bajartirishni kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tahkil etish samaradorlikka erishishda asosiy omillardan sanaladi.

2. Kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida dars o'tishda o'quvchilarning yoshiga e'tibor berilishi eng muhimi sanaladi. Chunki o'quvchi faoliyatida yoshga qarab ularni darsga va fanga bo'lgan qiziqishlarini ta'minlash mumkin. Masalan, boshlang'ich sinfdan endi yuqori sinf (5- va 6-sinf)ga o'tgan o'quvchilarga "Keys stady", "Aqliy hujum" usullaridan foydalanish nisbatan o'yin texnologiyasidan foydalanishga qaraganda u qadar yaxshi samara bermaydi. 5- va 6-sinf o'quvchilari o'yin o'ynashni juda ham yaxshi ko'rishadi. Ularning bu qiziqishlari va faoliyatidan kelib chiqqan holda kichik guruhlar bilan ishlash metodidan foydalanishda darslarni o'yin texnologiyasi asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. "Aqliy hujum", "Sinkveyn", "Debatlar" kabi usullardan esa 7-9-sinflarda, shuningdek, akademik litseylarda foydalanish samaraliroq bo'ladi. Chunki bu yoshdagi o'quvchilarda mantiqiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalari shakllana boshlagan, qolaversa, o'zini ko'rsatish, bilimlarini namoyon qilish ularda juda ham ustun bo'ladi. Demak, kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil etiladigan darslarda ularni yanada samaraliroq bo'lishini ta'minlashda ularning yoshlarini ham hisobga olish lozim.

3. Kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil qilinadigan darslarda har bir guruh tarkibi ham e'tiborga olinishi kerak. Guruhdagi o'quvchilar soni ham uning samaradorligini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Guruhdagi o'quvchilar soni 5-6 tadan oshmasligi zarur. Chunki jamoa bo'lib ishlash bilan kichik guruhlarda ishlshni chegaralash lozim bo'ladi. Kichik guruhlar bilan ishlash jamoa bo'lib ishlash texnologiyasining bir turi sifatida namoyon bo'ladi. Jamoa bo'lib ishlashda sinfdagi yoki guruhdagi o'quvchilar sonini taqsimlashda o'tkaziladigan

57 Bu haqda ma'lumotlarni qo'llanmaning oldingi qismlarida mufassal ma'lumot berilgan.

faoliyat mohiyatidan kelib chiqib ish yuritish maqsadga muvofiq. Bahs-munozara usulidan foydalanganda 3-5 yoki 5-7 a'zoli guruhlarga ajratish, musobaqa uyushtirilganda esa 10-12 ta a'zodan iborat guruhlar bilan ish ko'rgan ma'qul. "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligining mualliflari ham ona tili darslarini kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil qilishda guruh a'zolarining sonini 3-5 o'quvchidan oshmasligini ma'qul ko'radi.[58]

O'yin xarakteriga ega bo'lgan mashg'ulotlarda esa sinfdagi o'quvchilarning ko'p yoki ozligi inobatga olinishi darkor. Guruhlarga bo'lishning ham bir necha usullari mavjud bo'lib, bu ham ma'lum maqsadga xizmat qilishi lozim. Uning oddiy usuli, partada o'tirgan joyida 1-parta o'quvchilari orqalaridagi 2-parta o'quvchilariga o'girilib oladi; 3-parta 4-partaga va hakozo. Shunday qilib, sinfda 6 yoki 7 guruh hosil bo'ladi. Guruhdagi qatnashchilar (o'quvchilar) yuzma-yuz o'tirishi kerak.

4. Guruhlarga ajratishda fanni yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan birga past o'zlashtiradigan o'quvchilarning teng taqsimlanishini inobatga olish lozim, chunki yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilarning bir guruhga tushib qolishi shu guruhning g'olib chiqishiga, natijada o'zaro guruhlar orasida bir-birlariga nisbata adovat, bir-birlarini hurmat qilmaslik, hatto mensimaslik illatlari ham paydo bo'lishi mumkin. Bu esa guruh bo'lib ishlash qonun-qoidalariga zid sanaladi.

5. Bir guruhga birlashtirilgan o'quvchilarning o'zlari ham bir-birlarini tushunadigan bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu esa kichik guruhlar bilan ishlashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan muhim jihat hisoblanadi. Shundagina guruh a'zolari o'zaro bir-birlarini tushunishi, hurmat qilishi, eng asosiysi, yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Bu esa ularning darsga va fanga bo'lgan qiziqishi yanada oshiradi. Shu o'rinda yuqorida nomi zikr etilgan darslik mualliflari vazifalarni taqsimlashning boshqacharoq usulini ham tavsiya etadilar. Ularning tavsiyalariga ko'ra, bir o'quvchi munozarani boshqaradi, ikkinchisi yuzaga kelgan fikrlarni qog'ozga yozib boradi, uchinchisi vazifaning belgilangan vaqtda bajarilishini muvofiqlashtirib turadi, to'rtinchisi guruhning umumiy xulosalarini taqdim etadi va h.k. Bizningcha, vazifaning bunday taqsimlanishida bir yoqlamalilikka yo'l qo'yilganga o'xshaydi. Bilimi yetarli bo'lmagan yoki ko'pchilik oldida gapirishni, fikr bildirishni istamagan o'quvchiga bu juda ma'qul keladi. Faqat faol o'quvchilarning ishtiroki amalgam oshadigan bo'lsa, unda kichik guruhlar bilan ishlash qoidalari buziladi.

---

58. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alautdinova N., Karimjonova I. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: "Fan va texnologiya" 2012, 363-364-betlar.

6. Vazifani boshqa guruhlarga qaraganda oldin bajarib bo'lgan guruh ishtirokchilariga qo'shimcha topshiriqlar ham oldindan tayyorlab qo'yilishi kerakki, bu orqali topshiqlarni oldinroq bajarib qo'ygan guruh ishtirokchilarining zerikib qolmaslining va nisbatan o'zlarida "bizda hamma juda yaxshi biladi" degan xudbin tushuncha paydo bo'lishining oldi olinadi.

7. Taqdimot paytida har gal boshqa-boshqa o'quvchining chiqishi inobatga olinmog'i juda ham muhim. Shunda guruh a'zolarining barchasining birday va teng qatnashishi ta'minlanadi. Qolaversa, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham bu jarayonda faol qatnashish imkoniga ega bo'ladi. Bora-bora bunday yomon o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ham bilim olishga bo'lgan ishtiyoqining ortishiga erishiladi, ularning og'zaki va yozma nutqi o'sadi, fikrlash ko'nikma va malakalari oshib boradi, ijodiy tafakkur qilish qobiliyati rivojlanadi.

8. Guruhda ish jarayoni tugaganidan keyin yakuniy xulosalar taqdimoti o'tkaziladi. Taqdimot natijalari asosida muhokama uyushtiriladi va baholanadi. Unda taxminan quyidagicha savoolar o'rtaga tashlanadi:

A.Guruhlarga bo'linib ishlash jarayonida qanday natijalarga erishiladi?

B.Qanday muammo ustida fikrlashildi, u o'z yechimini topdimi?

C.Jarayonda o'zingizni qanday his etdingiz va h.k.

O'qituvchining pedagogik mahorati hamkorlikka asoslangan ta'limni amalga oshirishda asosiy kuch hisoblanadi. Chunki o'quvchilarni jipslashtirish, hamkorlikka undash, faollashtirish va bilim samaradorligini oshirish juda murakkab vazifa. Shunday ekan, guruhlar bilan ishlaganda bugungi o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

– guruhlarga doimo aniq, tushunarli yo'riqlar bera bilishga, bunda o'quvchilarning yoshi va fiziologik-ruhiy holatlarini inobatga olishga va natijada ishning samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsata olishga erishishi lozim;

– guruh bajarishi lozim bo'lgan vazifalarning murakkabligiga qarab, ketadigan vaqtni aniq chamalash, oldindan ko'ra olish va natijaga erishish uchun yetarli vaqtni belgilashi darkor;

– ish yakuniga ko'ra guruhni ma'naviy jihatdan rag'batlantirish lozimligini unutmagan holda, qanday mukofot (yoki baho mezonlari) berishni o'ylab qo'yishi (bu jarayon o'quvchilarni juda qiziqtiradi) va ular ishlarining natijasi qanday yakun topishini bilishlari zarur;

– guruh bo'lib ishlaganda shovqin bo'lishini ham hisobga olish kerak. Chunki aynan ana shu shovqin o'quvchilarning fikrlayotganligidan,

g'oyalar ustida izlanayotganligidan, nimalarnidir isbot qilayotganligidan dalolat beradi;

– guruh tashkil etganda va bahs davomida o'quvchilarga tazyiq o'tkazmaslik, guruh a'zolari bilan samimiy va ochiq munosabatda bo'lish shart. Bu orqali u o'z o'quvchilariga nisbatan do'stona munosabat zaruriyligini ham uqtirib o'tishga muvaffaq bo'ladi.

– guruhlar ishini tashkil etganda qaysidir birinchi bo'lgan guruhga qo'shimcha topshiriq berilishi kerak, chunki bekorchi o'quvchilar ortiqcha shovqin ko'tarilishiga, boshqalarning diqqati bo'linishiga sabab bo'ladi. O'qituvchi ana shu holatning oldini olish uchun barcha tayyorgarliklarni ko'rgan bo'lishi, ya'ni qo'shimcha savol, topshiriq va vazifalar bilan o'quvchilarni band qilib qo'yishi maqsadga muvofiqdir.

– guruhlar ishlayotganda o'qituvchi barcha guruhlar oldiga borib faqat kuzatadi, eshitadi va, albatta, o'zi uchun belgilab boradi: kim nima qilyapti?, qanday yondashyapti? Vazifaga tushunmagan guruhlar bo'lsa yana bir bor tushuntiradi. Fikr bildirayotganlar faqat faol o'quvchilar bo'lsa, sust qatnashayotgan o'quvchilarni ham qiziqtirib, mavzuga jalb qilib boradi. O'qituvchi o'zlashtirishi past bo'lgan yoki o'z mulohazalarini aytishga qiynalayotgan o'quvchini qo'llab-quvvatlash orqali fikr aytishga undashi lozim. Bu bilan, birinchidan, fikrini aytgan o'quvchida o'ziga ishonch uyg'otiladi, ikkinchidan, guruhda yana bir yangi g'oyaning paydo bo'lishiga turtki beriladi.

– kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida ishlaganda sinf doskasidan foydalanishni yoddan chiqarmaslik lozim. Ba'zi bir topshiriqlar doska bilan ishlashga mo'ljallanishi shart. Chunki doska bilan ishlashda o'quvchining yozma savodxonligini tekshirish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa o'qituvchiga ham, o'quvchilarga ham to'g'ri va xatosiz yozishga o'rganishi uchun xizmat qiladi. Chunonchi, o'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligiga erishish masalasi har doim ta'lim sohasidagi eng ustuvor va bosh masala bo'lib kelgan. Bu talab darsni kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida olib borilganda ham o'zining ahamiyatini yo'qotmaslogi kerak. Doska bilan ishlash o'quvchilarning yozma savodxonligini tekshirishga yordam beradigan qulay usuliardan biri hisoblanadi.

O'qituvchi o'quvchi bilan og'zaki (yozma) muomaladan tashqari, xatti-harakatlari yoki tashqi qiyofasi orqali ham moloqot qila oladi. Bu holatlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Agar o'qituvchi diqqatsiz (boshqa narsalarni o'ytlab o'tirgan yoki chalg'iyotgan) o'quvchining oldiga kelib turib olsa yoki shu

o‘quvchining boshini (yelkasini) silab qo‘ysa, demak, o‘quvchiga yaqinligini (befarq emasligini) bildiradi.

- Agar o‘qituvchi o‘quvchiga topshiriq yoki savol berganda uning ko‘zlariga qarab (yoki tikilib) tursa, ko‘rish orqali (uning his-tuyg‘ularini bilish uchun) muloqotga kirishadi.
- Agar o‘quvchi javob berayotganida (yoki biror savol berayotganida) o‘qituvchi unga o‘girilib, yuzma-yuz turib olsa, bu holat gapirayotgan o‘quvchiga yaqinlik va qulaylikni bildiradi.
- Shuni yodda tutush kerakki, o‘quvchi bilan gaplashayotganda imkon qadar unga teskari o‘girilib (yoki jurnal yozib, daftar tekshirib) o‘tirgan holatda muloqotga kirishish mumkin emas.
- O‘qituvchi biror o‘quvchining intizom buzayotganligini (yoki berilgan vazifani bajarmayotganligini) ko‘rsa, u shu o‘quvchiga qarab qoshlarini chimirib qo‘yadi. Sinfdoshiga yordam berayotgan o‘quvchiga esa ma’qullovchi ifodani anglatuvchi tabassum qiladi.
- Javob berayotgan sinfdoshining gapini bo‘layotgan o‘quvchiga qarab qo‘lini oldinga cho‘zib, kaftini ko‘rsatadi (*to‘xta* ma’nosida) yoki ko‘rsatkich barmog‘ini labiga qo‘yib ishora qiladi.
- Ba’zi so‘zlarga e’tibor qaratish uchun o‘qituvchi ovozini o‘zgartiradi. Masalan, ovoz tonini ko‘tarishi (yoki aksincha pasaytirishi) mumkin.

Demak, kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish jarayonida samaradorlikka erishish mazmuni ona tili mashg‘ulotlarini ana shu talab va qoidalarga amal qilgan holda olib borishni, ya’ni tashkil etishni taqozo qiladi. Chunki o‘qitish jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi asosida emas, balki o‘quvchi va o‘quvchi hamkorligi asosida tashkil etiladi. Kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida dars o‘tayotgan o‘qituvchi buni esdan chiqarmasligi lozim.

Kichik guruhlarda ishlash jarayonida alohida masalalar yuzasidan o‘z fikrini guruhda muhokama qilishga, turlicha fikrlarni uyg‘unlashtirib, umumiy nuqtayi nazarga kelishga o‘rgatiladi. Shuningdek, har bir o‘quvchi guruh a’zosi sifatida sinfdoshlari oldida so‘zga chiqib, guruh nuqtayi nazarini himoya qiladi va bu bilan o‘quvchida ko‘pchilik oldida so‘zlash, o‘z fikrini himoya qilish, fikrlarini uyg‘unlashtira olish, xatosiz va chiroyli yozish kabi ko‘nikma va malakalar shakllana boradi.

Kichik guruhlarda ishlash jarayonida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarning turlari

O'rganilayotgan mavzuni o'zlashtirish maqsadida darsning qaysi didaktik siklini tanlash, har bir mavzu doirasidagi mavjud axborotlar hajmi, ularni qayta ishlash, bunda qaysi mexanizmlarni ishga qanday usulda qo'llashdan xabardor bo'lish ta'lim sifatini oshirishni, ta'lim muassasida iliq va samimiy munosabat o'rnatilishini ta'minlaydi. Pedagog o'z ishiga astoydil, hech bir jihatini, talablari va shartlarini ko'zdan qochirmagan holda yondashib, zimmasidagi vazifani chin dildan bajarsa, bu kutilganidan ham ortiq samara beradi. Bunday intiluvchanlik va g'ayrat, ayniqsa, ona tili ta'limida katta ahamiyat kasb etadi.

Maktabdagi ona tili va akademik litseydagi hozirgi o'zbek tili darslarida o'quvchilarni jamoada ishlashga o'rgatish metodikasini yaratish, avvalo, qaysi metoddan foydalanish va shu metodning mohiyatini ochib berish, uni shakllantirish yo'llarini va usullarini aniqlab berish, texnologiyasini ishlab chiqishdan iboratdir. Chunonchi, o'qitishning faol metodlari va zamonaviy pedagogik (innovatsion) texnologiyalarini qo'llashdan asosiy maqsad o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi faoliyatining izchilligini ta'minlash va uni maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etishdan iboratdir. O'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, bunda hech qanday psixologik noqulaylik bo'lmasligi, o'quvchilar o'z imkoniyatlariga to'la ishonoshlari zarur. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining imkoniyatini hisobga olish, bajarilgan ish uchun past baho kamdan-kam holda qo'yilishi va bunda ham o'quvchiga uni to'g'rilash, ya'ni yaxshi bahoga o'zgartirish imkonini berish lozim. Ona tili ta'limini kichik guruhlar asosida tashkil qilishda quyidagi innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish mumkin:

– ***"Seminar-musobaqa" texnologiyasi.*** Bu texnologiyani, ayniqsa, o'tilganlarni takrorlash darslarida unumli qo'llash mumkin. Avvaldan tayyorgarlik ko'rish uchun mavzular o'quvchilarga taqsimlab beriladi. Birgalikda reja tuzib foydalanishi lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati aytib o'tiladi. Har bir mavzu muhokama qilinadi va savol-javob o'tkaziladi, javoblar boshqa o'quvchilar tomonidan to'ldirilib boriladi. Dars oxirida har bir so'zga chiqqan o'quvchi mehnati rag'batlantiriladi. "Seminar-musobaqa" darslari o'quvchilarda mustaqil izlanish va ularda javobgarlik hissini tarbiyalaydi. Har bir o'qituvchi kichik guruhlarda "Seminar-musobaqa" darslarini tashkil qilishda samaradorlikka erishish uchun quyidagilarga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi:

– guruhga bitta topshiriq berish lozim;

– guruhga bitta rag'bat berilishi kerak;

– guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a'zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig'indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya'ni guruh muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog'liq;

– har birining o'z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a'zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas'uliyatligi;

– hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o'zaro yordam berish kabi o'zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;

– muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o'qiyotgan o'z shaxsiy yutug'ini takomillashtirishga, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o'qishga berilgan bo'lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi[59].

Har bir guruh a'zosi uchun ham umumiy qoidalar mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

– Topshiriqni faqatgina birgalikda bajarishigina emas, balki birgalikda o'qishi va o'rganishi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi;

– Musobaqalashishigina emas, balki hamkorliklashishi, hamkorlikda ishlay ham bilishi;

– Har doim bir-biriga yordam qilishi, muvaffaqiyat quvonchi yoki muvaffaqiyatsizlik g'amini birga his qilishga tayyor tura olishi;

– Guruhdagi har bir a'zo o'z o'rtaqlarining nutqini xushmuomalalik bilan tinglay olishi[60].

"Seminar-musobaqa" texnologiyasidan umumta'lim maktablarining ona tili va akademik litseylarning hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'tilganlarni takrorlashda doimiy va boshqa texnologiyalarni omuxta qo'llash samaradorlikka va ijobiy natijalarga erishishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Masalan, 6-sinf "Ona tili" darsligida berilgan 164-dars "Ot – so'z turkumi" yuzasidan o'tilganlarni takrorlashga bag'ishlangan darsni olib ko'raylik[61]. Bu dars o'tilganlarni takrorlashga qaratilgan dars bo'lganligi bois uni "Seminar-musobaqa" texnologiyasi asosida tashkil qilish yaxshi samara beradi. Yanada yaxshiroq natija berishiga erishish uchun "Klaster" va "Aqliy hujum" texnologiyalaridan ham birgalikda

---

[59] Худойқулов Х.К. Ўқитишнинг интерфаол технологияларидан фойдаланиш – касбий билимларни ўзлаштиришнинг муҳим омили. "Касб-ҳунар таълими", 2014, 5-сон, 15-бет.

[60] Абдуллаева Ш., Кангалиев Ш., Содиқова А. Янги педагогик технологиялар – Т.: 2010.

[61] Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva O. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi. 2009. – 179 b.

foydalanish lozim. Shunda dars ham qiziqarli, ham samarali bo'lishi kafolatlanadi. So'z turkumlariga oid o'tilganlarni takrorlashda "Seminar-musobaqa" darsining bitta bosqichida o'quvchilarga so'z turkumlari yuzasidan egallagan bilimlari asosida quyidagi "Klaster"ni to'ldirib berish talab qilinadi. Tayyor bo'lgan "Klaster" ham ko'rsatmali qurol vazifasini ham o'taydi. "Klaster" oddiy jadvallarga qaraganda nisbatan yangi turdagi ko'rsatmali qurol bo'lib, o'quvchilar o'zlari birgalikda ijod qilgan va yaratgan yangiliklarini xotirada uzoq va davomli saqlab qoladilar. Bu esa, o'z navbatida, kichik guruhlar bilan ishlashga mo'ljallangan darsning samarali bo'lishiga olib keladi. Bu haqda H.Boqiyeva "Har bir darsda hamkorlik" maqolasida batafsil to'xtalib o'tgan[62]. Muallifning bayon etishiga ko'ra, "Klaster" texnologiyasida o'quvchilar deduktiv metodga xos ravishda yakka tartibda yoki guruhlarga bo'linib ishlaydilar. Bunda ularga quyidagi umumiy savol beriladi: "So'zlarni ma'nolariga ko'ra qanday guruhlarga bo'lib o'rgandik?" Javoblar quyidagi tartibda doskaga yozib boriladi[63]: Shaxs. Narsa. Belgi. Harakat. Miqdor.



Ko'rinib turibdiki, hosil bo'lgan tarmoqlanish (tasnif) o'z navbatida ko'rsatmalilik vazifasini ham bajaradi.

Jamoa bo'lib o'qitish usulu haqida G.I.Shuljenko ham "o'zaro almashinib turadigan tarkib bilan ishlash samaralidir" deya ta'kidlaydi [64].

– ***"Aqliy hujum" texnologiyasi.*** Darsning uyga vazifani so'rash va o'tilganlarni mustahkamlash bosqichlarida bu texnologiyadan unumli foydalanish mumkin. O'quvchilarga tayyorlanib kelishi uchun taxminiy savollar oldindan taqdim etiladi. Savollar o'qituvchi tomonidan beriladi. Guruhdagi o'quvchilarning tez va aniq javobi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qaysi guruhdan o'quvchi birinchi bo'lib to'g'ri javob bersa shu javob

---

[62] Боқиева Х. Ҳар дарсда ҳамкорлик // Бошланғич таълим. – 2008. 2-сон. – Б. 28-29.

[63] Biz H.Boqiyeva tavsiya etgan namunani so'z turkumlarini takrorlashga moslashtirib o'zgartirib berdik.

[64] Шульженко Г.И. Изучение темы "Члены предложения" в IV классе в парах сменного состава / Русский язык в школе. – 1989. № 5. – С. 13-20.

rag'bat olish imkonini qo'lga kiritadi. Natijalar jamlanib, g'olib guruh aniqlanadi. "Aqliy hujum" texnologiyasidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

– har bir o'quvchini bergan to'g'ri javobi uchun rag'batlantirish lozim;

– guruhning barcha a'zolari ishtirok etishini ta'minlash zarur;

– har birining o'z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a'zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas'uliyatliligini his qilishga yo'naltirish kerak.

"Aqliy hujum" texnologiyasi ham maktab ona tili darslarida, ham akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida unumli qo'llash va ijobiy natijalarga erishish mumkin bo'lgan samarali texnologiyalardan hisoblanadi. Shu bois uni tatbiq etishda quyidagilarga e'tibor qaratiash juda ham muhim:

– ta'limning qaysi bosqichiga tatbiq etilayotganiga;

– o'quvchilarning yoshiga;

– taqdim etilayotgan savollarning sodda yoki murakkabliligiga;

– egallagan bilim, ko'nikma va malakalariga.

Quyida "Aqliy hujum" texnologiyasi asosida tashkil qilingan takrorlash darsidan namuna keltiramiz. Bu dars 6-sinf ona tili darslariga tatbiq etilgan. Ma'lumki, o'quvchilar so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlariga oid ma'lumotlarni 5-sinfda o'rganganlar. 6-sinfda o'tiladigan bu takrorlash darsida (7-dars)[65] esa o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash va to'ldirish, mavzu haqida yanada chuqurroq bilim berish, shakldosh, ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar bo'yicha bilimlarini mustahkamlash ko'zda tutiladi. O'qituvchi dars davomida bilimlarni mustahkamlashda kichik guruhlarda (hamkorlikda) ishlash metodidan foydalanadi va darsning yanada samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida "Aqliy hujum" texnologiyasini tatbiq etadi. Darsning borishi jarayoniga batafsil to'xtalib o'tamiz:

O'qituvchi darsni o'quvchilardan uyga vazifani so'rash bilan boshlaydi. Uyga vazifa: Rasm asosida "Kuzda" mavzusida matn tuzing, unda ko'chma ma'noli so'zlardan foydalaning. O'quvchilar baholangandan so'ng yangi mavzu e'lon qilinadi. Yangi mavzu: So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Ushbu mavzuni

---

[65]. Абдураимова М., Зиёдуллаева Г. Она тили фанидан умумий ўрта таълимнинг ўқув дастури (1 – 9 - синфлар), Республика таълим маркази. – Т: 2010, 40-бет. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. 2-nashri. – T.: 2009, 11-bet.

o'rgatishga noan'anviy yondashgan holda, dastlab, sinfdagi o'quvchilarni kichik guruhlarga: ***"Aristokrat"***, ***"Intellekt" va "Everest"*** kabi guruhlarga bo'lib olinadi va musobaqa tarzida o'tkaziladi.

Yangi mavzuni o'rganish ***"Bilimlar oroliga sayohat"*** o'yini bilan boshlanadi. O'qituvchi orol manzarasi, ya'ni uchta kema, daraxtlar, qirg'oq va dengiz tasviri tushirilgan plakatni doskaga ilib qo'yadi. Uch guruhga bo'lingan o'quvchilar o'z kemalarida bilimlar oroliga sayohatga chiqadilar. Oroldagi ***"Savol-javob"*** va ***"Davom ettir"*** bekatlarida to'xtab, undagi shartlarni bajarish lozim. Birinchi bekat: ***"Savol-javob"*** deb nomlanadi. O'quvchilardan berilgan savollarga guruh bilan kelishgan holda javob beradilar.

Savollar quyidagicha:

1. Sinonim so'zlar deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.
2. Qanday so'zlarni antonim so'zlar deymiz? Misollar keltiring.
3. Omonim so'zlarga ta'rif bering va misollar keltiring.

Savollarga to'g'ri javob bergan guruh ikkinchi bekatga yo'l oladi. Bu bekatda o'quvchilar bosh qismi berilgan maqollarning, qolgan qismini mustaqil ravishda topishlari kerak.

Maqollar:

1. Avval o'yla, ... (keyin so'yla)
2. Baxilning bog'i ... (ko'karmas)
3. Dangasaning ishi bitmas, ... (yoz kelsa ham qishi bitmas)
4. Do'sting ming bo'lsa ham oz, ... (dushmaning bir bo'lsa ham ko'p)
5. Do'stsiz boshim- ... ... (tuzsiz oshim)
6. Ota-ona ... ... (oltin qanot)
7. Yaxshilik qilsang yashir, ... (yaxshilik ko'rsang oshir)
8. Yaxshi niyat- ... ... (yarim mol)
9. Yaxshi so'z jon ozig'i, yomon so'z- ... ... (bosh qozig'i)

Bekatlardagi shartlarni a'lo darajada bajargan guruh g'olib deb e'lon qilinadi va rag'batlantiriladi.

Bundan tashqari, ***"Ilmga parvoz"*** o'yinidan ham foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi havo sharining maketini yasab, sinfga olib kiradi. Unda to'rt tomon mavjud. 1-tomonida kirish eshigi bor bo'lib, qolgan uch tomoniga konvertlarga joylashtirilgan uchta shartning nomi yoziladi. Shartlarda test savollari berilgan bo'lib, har bir guruh quyidagi bekatlarda uchtadan shartni bajarishlari kerak: ***1-bekat: "O'zingni sinab ko'r"; 2-bekat: "Boshqotir"; 3-bekat: "Kamalak jilosi". "O'zingni sinab ko'r"*** bekatida quyidagi test savollari beriladi:

Sinonim so'zlar berilgan qatorni toping.
A) yorishmoq-ochilmoq, naf-ziyon
B) xursand-xushvaqt, yaroqli-layoqatli
D) sayoz-chuqur, xulq-axloq

Qaysi qatorda o'zaro antonim so'zlar berilgan?
A) yangi-eski, to'g'ri-egri
B) tejamkor-isrofgar, g'alaba-zafar
D) tayyor-muhayyo, jahl-g'azab

Takabbur-kamtar so'zlari o'zaro ... so'zlardir.
A) sinonim
B) omonim
D) antonim

2-bekatda o'quvchilarga o'zaro antonim, sinonim va omonim so'zlar beriladi. O'quvchilar ushbu so'zlar yordamida ta'sirchan va mazmundor gaplar tuzishlari kerak. Masalan, ***aqlli, es-hushli:*** Buvijonim menga har doim aqlli, es-hushli qiz bo'lgin deb nasihat qiladilar. ***"Kamalak jilosi"*** deb nomlanuvchi bekatda esa o'quvchilarga oldingi bekatda tuzgan gaplari asosida kichik matn yoki hikoya tuzish topshiriladi. Qaysi guruh barcha shartlarni bosqichma-bosqich a'lo darajada bajarsa, o'sha guruh g'olib sanaladi. Dars yanada qiziqarli, o'quvchilar faolligi yuqori bo'lishi uchun mavzu doirasidagi turli boshqotirma va rebuslarni yechishni tavsiya etish mumkin. Chunki qiziqarli topshiriqlardan bo'lmish boshqotirmalar ham darsning yanada qizg'inroq o'tishini ta'minlaydi. O'quvchilarga quyidagi boshqotirmani yechish vazifa qilib topshiriladi:

					1	S					
					2	I					
3						N					
					4	O					
5						N					
					6	I					
					7	M					

1. ***Asta*** so'zining sinonimi.
2. ***Birinchi*** so'zining sinonimi.
3. ***Yoqimli*** so'zining sinonimi.
4. ***Taniqli*** so'zining sinonimi.
5. ***Katta*** so'zining sinonimi.
6. ***Go'zal*** so'zining sinonimi.
7. ***Kichik*** so'zining sinonimi.

Rebusni yechish navbatdagi vazifa qilib topshiriladi. Bunda o'quvchilar tushirib qoldirilgan harflarni yozish natijasida hosil bo'ladigan matalni topishlari lozim. So'ngra mataldagi anonim (yashirin) so'zlarni belgilashadi va izohlashadi.

	A									O	
					I						
		M									G'

Javobi: Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog'.

Navbatdagi topshiriqda bajariladigan ish o'quvchilarning antonimlar yuzasidan egallagan bilim va ko'nikmalari sinab ko'riladi.

Antonim boshqotirma



1. Qora so'zining antonimi.
2. Qish faslining aksi, ya'ni eng issiq fasl.
3. .....siz odamning mevasiz daraxtdan farqi yo'q. *(Nuqtalar o'niga dushman so'zining antonimini toping).*
4. ..... gapirding. Yaxshi gap, diqqat e'tibor har qanday doridan kuchli ekan *(O'. Umarbekov)*. Nuqtalar o'rniga noto'g'ri so'zining zid ma'nosini topib, qo'ying.
5. .....lik muhtojlik eshigidir. *(Nuqtalar o'rniga ishchan so'zining antonimini toping).*
6. Kuz fasli. Shamollar mayin, ... esadi *(Oybek)*. *(Nuqtalar o'rniga noxush so'zining zid ma'nosining munosibini qo'ying).*

Darsning oxirida barcha o'quvchilarga umumiy tarzda bir xil topshiriq beriladi. Unda o'quvchilar berilgan so'zlarning antonimlarini topishlari lozim. Topshiriq quyidagicha: Quyidagi so'zlarga antonim

so'zlar toping.

1. Do'st- ……..,
2. Ozg'in- ……..,
3. Uzun- ……..,
4. Oq- ……..,
5. Sarishta- ……..,
6. Odobli- ……..,
7. Tayyor- ……..,
8. Qimmat-……
9. Bekorchi- ……..,
10. Xavf- ……..,
11. Katta- ……..,
12. Badbaxt- ……..,
13. Noto'g'ri- ……..
14. Kasal- ……..,
15. Shirin- ……..,
16. Xursand- ……..,
17. Kecha- ……..,
18. Sergo'sht- ……..,
19. Mazmunli - ……..
20. Noqobil- ……..

Dars yakunida guruhdagi barcha o'quvchilar baholanadi va ma'naviy rag'batlantiriladi. Uyga vazifa sifatida darslikdagi 32-mashqni bajarib kelish topshiriladi. Unga qo'shimcha ravishda quyidagi jadvalli labirintni bajarib kelishni ham vazifa qilib berish mumkin: *Antonim so'zlar bo'yicha olgan bilimingizni Jadvalli labirint orqali sinab ko'ring. 4-ustundagi so'zlar qaysi so'zning antonimi ekanligini toping va raqamlar orqali belgilang.*

T/r	So'z	Javob	Antonimi
1.	Yaxshi	5	Achchiq
2.	Oq	7	Yaqin
3.	Shirin		Xunuk
4.	Chiroyli		Semiz
5.	Uzoq		Yomon
6.	Og'ir		Qisqa
7.	Baland		Qora
8.	Keng		Tor
9.	Uzun		Yengil
10.	Ozg'in		Past

Quyida akademik litseyning 2-bosqichida "Aqliy hujum" texnologiyasi asosida tashkil qilingan hozirgi o'zbek adabiy tili darslaridan birini namuna sifatida keltiramiz. 10- va 11-darslarda o'qitiladigan mavzular "Omonim va sinonimlar hamda ularning uslubiy xususiyatlari" va "Antonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari" deb nomlanadi. Unda omonimlar, sinonimlar va antonimlar hamda ularning uslubiy xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni batafsil o'rganish ko'zda tutilgan.[66] Ma'lumki, o'quvchilar so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlariga oid ma'lumotlarni, dastavval, 5-sinfda o'rganganlar. 6-sinfda[67] esa o'quvchilar

[66]. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh., Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun darslik. 2-bosqich. – Toshkent: – "Ilm Ziyo" nashriyot uyi, 2013, – B. 70-79.

[67]. Абдураимова М., Зиёдуллаева Г. Она тили фанидан умумий ўрта таълимнинг ўқув дастури (1–9-синфлар), Республика таълим маркази. – Т: 2010, 40-бет. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. 2-nashri. – T.: 2009, 11-bet.

bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash va to'ldirish, mavzu haqida yanada chuqurroq bilim berish, shakldosh, ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar bo'yicha bilimlarini mustahkamlash ko'zda tutiladi. Maktab ona tili ta'limida, ko'rinib turganidek, o'quvchilarga, asosan, sof nazariy bilimlar beriladi hamda ularda amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Demak, akademik litseylarning hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida omonim, sinonim, antonim so'zlarning uslubiy xususiyatlari o'rganiladi. Dars davomida yangi bilim berish va bilimlarni mustahkamlashda kichik guruhlarda (hamkorlikda) ishlash metodidan foydalaniladi va darsning yanada samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida "Aqliy hujum" texnologiyasi tatbiq etiladi. Darsning borishi jarayoniga batafsil to'xtalib o'tamiz:

Ushbu mavzuni o'rgatishga noan'anviy yondashgan holda, dastlab, sinfdagi o'quvchilarni kichik guruhlarga: ***"Aristokrat", "Intellekt" va "Everest"*** kabi guruhlarga bo'lib olinadi va musobaqa tarzida o'tkaziladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarish uchun *bir nechta bekatlarni* bosib o'tishi lozim. *Birinchi bekatda* ular maktab ona tili darslarida o'rganganlarini xotiraga tishiradilar. O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi topshiriqni bajarishni aytadi.

Topshiriqlar:

1-vazifa: *bir, bosh, o't, yoz, ot, yuz* shakldosh so'zlarining ma'nolarini izohlang.

2-vazifa: *yuz, bosh, o't,* ma'nodosh so'zlarining ma'nolarini izohlang.

3-vazifa: *kulmoq, sevinmoq, uquvsiz* so'zlariga zid ma'noli so'zlar toping va ma'nolarini izohlang.

Shu vazifalarni bajarish jarayonida o'quvchilar omonim, sinonim, antonim so'zlarga doir uzoq o'tilganlarni xotiraga tishiradilar va yangi mavzu uslubiy xususiyatlarini o'rganishga poydevor yaratadilar.

Ikkinchi bekatda yangi mavzuni o'rganishga oid topshiriqlarni bajaradilar. Topshiriqlar mazmuni, asosan, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra so'zlarning uslubiy xususiyatlariga qaratiladi. Bunda o'quvchilar ko'proq izohli lug'at bilan ishlashlari lozim. Darslikning 70-beti[68]da berilgan 1-2-topshiriqlarni bajartirish ishini izohli lug'atlar bilan ishlashga qaratish shart. 1-2-topshiriqlar shartiga ko'ra o'quvchilar ***"yutmoq"*** va ***"o't"*** so'zining boshqa shakldoshlarini topishi talab qilinadi.

---

[68] Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh., Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun darslik 2-bosqich. – Toshkent: – "Ilm Ziyo" nashriyot uyi, 2013, – B. 70-71.

Uchinchi bekatda topilgan har bir shakldoshlarning ma'nolarini izohli lug'atdan topib, ulardan klaster (tugunchalar) hosil qilish vazifa qilib beriladi.

To'rtinchi bekat oxirgi bekat sanaladi. Unda o'quvchilarga har bir ma'no asosida gap tuzishlari kerakligi tushuntiriladi.

Darslik[69]ning 73- va 78-betlaridagi 1-2-topshiriqlarga nisbatan ham shunday tarzda qo'llash mumkin.

"O'yin" texnologiyasi. Ma'lumki, kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy talablaridan biri ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirib, o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, erkin fikrlashga o'rgatishdir. Chunonchi, maktabda o'tiladigan barcha fanlar qatori ona tili fanidan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, ayniqsa, "o'yin texnologiyasi"dan foydalanish yaxshi samara berayotganligi hech kimga sir emas. Shunday ekan, ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi-yoshlarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayoniga turli xildagi ilg'or pedagogik texnologiyalar (ta'limiy o'yinlarni) tatbiq etish lozim.

Chunonchi, hozirgi kunda ilg'or o'qituvchilarning ijodiy izlanishlari natijasida bir qancha zamonaviy ta'lim usullari ishlab chiqildi.[70] Bu usullardan samarali foydalanish – o'qituvchidan o'z fanini puxta bilishni, ilg'or zamonaviy o'qitish usullaridan samarali foydalanish yo'llarini kashf eta olish va amalda qo'llay olishni talab qiladi. Shundagina o'qitish sifati ham, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi ham yuqori bo'ladi.

"O'yin" texnologiyasini darsning uyga vazifani so'rash va mustahkamlash bosqichlariga tatbiq etilsa maqsadga muvofiq. Chunki umumta'lim maktablarining 5-, 6-sinflarida bu texnologiyaning qo'llanilishi nisbatan ona tili ta'limining boshqa bosqichlariga qaraganda samaradorlikka erishishga qulay va oson. O'quvchilarning yoshi, fiziliogik holati, psixologiyasi o'rganish va tahlil qilish natijalari hamda o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari shundan dalolat beradi. Demak, bu texnologiyaning tatbiqi o'quvchilarning darsga va mavzuni yaxshiroq o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning faol harakat qilishlari uchun zamin yaratadi. Bu darsning yanada samarali bo'lishiga imkon beradi.

Biz bu o'rinda darslikdagi mashq va topshiriqlarni bajartirish jarayoniga kichik guruhlar bilan ishlash metodini tatbiq etish yo'llarini ko'rsatib berishga va didaktik o'yinlar asosida tashkil etiladigan dars

---

[69]. Yuqorida nomi ko'rsatilgan darslik. – B. 73-78.

[70]. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. – Тошкент: Шарқ, 1999. 1-махсус сон.

mazmunini ochib berishga harakat qilmoqchimiz. Buni 5-sinfda o'tiladigan ***"So'zning o'z va ko'chma ma'nolari"*** mavzusi misolida yoritishni ma'qul topdik.[71] O'tgan darsda uyga berilgan vazifalar so'rab, mustahkamlangach, yangi mavzuni to'g'ridan-to'g'ri ijodiy ish bilan boshlaydi. Bunda 1-topshiriq shartiga ko'ra, o'qituvchi o'quvchilarga (har bir partaga) oq qog'oz tarqatib chiqadi va unga ***bosh, lab, ko'z*** so'zlarini o'qib eshittira turib, quyidagi topshiriqni aytadi. Ular bu so'zlar haqida bilganlarini yozishlari kerak. Bunda ular inson a'zolarining xususiyatlarini anglatuvchi so'z birikmalarini yozishadi, hatto qobiliyatli o'quvchilar bu so'zlarning ma'nolari anglashilgan rasmlarni ham taqdim etadilar va ma'nolarini izohlashadi. Shu yo'l orqali darsning yangi mavzusiga qadam qo'yiladi. Yangi mavzuga kirish bosqichi amalga oshirilgach, 2-topshiriqqa o'tiladi. Unda o'qituvchi asosiy e'tiborni ko'chma doskadagi quyidagi so'zlarga qaratadi. Ko'chma doskada quyidagi so'zlar yozilgan bo'ladi: ***ishning boshi, ko'chaning boshi, daryoning labi, piyolaning labi, derazaning ko'zi, buloqning ko'zi; temir intizom, oltin kuz.*** O'quvchilar bu so'z birikmalaridagi ***bosh, lab, ko'z, temir*** va ***oltin*** so'zlarining qaysi ma'noda kelganligini aytadilar. Ikkala topshiriqni bajarib bo'lgandan so''ng, o'quvchilarning javoblarini umumlashtiradi va umumlashgan fikrlardan kelib chiqqan holda shu hodisani nazariy jihatdan qoidalashtiradi. Va quyidagi qoidani keltirib chiqaradi: – Demak, o'quvchilar ***so'zlarning nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan atash ma'nosi o'z ma'nosi sanaladi. So'zning nutqda boshqa so'zlarga bog'lanib hosil qiladigan yondosh ko'chma ma'no hisoblanadi. Masalan, odamning ko'zi – o'z ma'nosida, uzukning ko'zi – ko'chma ma'noda.***

O'z va ko'chma ma'no birikib ko'p ma'noli so'zlarni hosil qilishi haqidagi nazariy ma'lumot quyidagi slayd yordamida tushuntiriladi.

O'Z MA'NO	KO'CHMA MA'NO
1.Ko'ylakning yoqasi	*daryoning yoqasi*
2.Odamning ko'zi	*uzukning ko'zi*
3.Oltin uzuk	*oltin qo'l*
4.Tosh ko'cha	*tosh yurak*
5.Yumshoq tuproq	*yumshoq ko'ngil*

Mustahkamlash maqsadida darsning keyingi bosqichlarida turli xildagi grammatik o'yinlarni tashkil etish mumkin.

---

[71]. Н.Махмудов, А.Нурмонов, А.Собиров, В.Кодиров, З.Жўрабоева. Она тили. 5-синф учун дарслик. Тошкент: "Маънавият", 2004. 172-бет.

1. ***"Qo'sh daraxt"* o'yini:** Bu o'yin darslikdagi 487-mashq asosida[72] tashkil etiladi. Mayda oq qog'oz parchalariga yozilgan so'zlardan o'z ma'nosida qo'llanilganlarini bir-biriga moslab, birinchi daraxtga, ko'chma ma'nodagilarini esa bir-biriga moslagan holda ikkinchi daraxtga ilib qo'yishlari kerak. Bunda sinfdagi o'quvchilar ikki guruhga ajratilib, musobaqa uyushtiriladi. Har bir o'quvchidan o'zi ilib qo'ygan qog'oz parchasidagi so'zlarni yodda saqlab qolish talab etiladi. To'g'ri va tez bajargan guruh rag'batlantiriladi.

2. ***"Uch so'z"* o'yini:** Bu o'yinda sinfdagi uchta qator uchta jamoa sifatida ishtirok etadi. Bu o'yin darslikdagi 488-mashq asosida[73] tashkil etiladi. Shu mashqdagi ***gul, shirin, issiq*** so'zlari doskaga yozib qo'yiladi. Har bir guruh vakillari chiqib doskadan o'zlari uchun ajratilgan joyga shu so'zlar ishtirok etgan maqollardan yozishi kerak. Kam vaqt ichida qancha ko'p topgan o'quvchi topshiriq g'olib sanaladi. Qolganlar esa mustaqil ravishda daftarlariga bilganicha maqollardan yozishi shart. Ular ham yuqorida qo'yilgan shartga amal qilishlari lozim. Bunday o'yinlardan darsda unumli foydalanish mumkin, bunda, albatta, darsga ajratilgan vaqtni to'g'ri taqsimlash lozim.

Xullas, umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili o'qituvchilari har bir darsda pedagogik texnologiyalardan, jumladan, o'yin (ta'limiy o'yinlardan) texnologiyasidan foydalanib dars o'tishi lozim. Zero, ona tili darslarida bilim olishni osonlashtiruvchi, qiziqtiruvchi ta'lim usullaridan foydalanish ta'lim jarayonining yanada samarali bo'lishini ta'minlovchi qudratli omildir.

"Labirint" va "Mening yulduzim" texnologiyalari. Ta'lim jarayonining samarali natija berishi uchun ta'limning yangi usullari ustida ishlash zarur. Bu esa mashg'ulotda o'quvchining faolligini oshirish, mustaqil fikrga egaligi hamda o'z fikrini asosli himoya qila olish ko'nikmasini shakllantirish imkonini beradi. Chunonchi, har bir darsga alohida mas'uliyat bilan tayyorgarlik ko'rish o'qituvchining burchidir. O'qituvchining dars o'tishdagi mahorati mavzuga mos metodlar va ularni to'g'ri tanlay olishiga ham bog'liqdir. Noan'anaviy darslar oddiy darslardan farq qilib, ularning o'quvchi mustaqil fikrlashini shakllantirishda o'rni beqiyosdir. Aynan shu maqsadda dars samaradorligiga erishish uchun o'quvchilar bilan yakka holda (individual) ishlash – o'quvchining hali ochilmagan qirralarini kashf etishga olib

---

[72]. Н.Махмудов, А.Нурмонов, А.Собиров, В.Кодиров, З.Жўрабоева. Она тили 5-синф учун дарслик. Тошкент: "Маънавият", 2004. 172-бет.

[73]. Юқорида номи тилга олинган дарслик. 172-бет.

keladi. “Labirint” va “Mening yulduzim” teznologiyalarini ko‘proq darsning mustahkamlash jarayoniga tatbiq etish yaxshi natija beradi. Masalan, 5-sinfda o‘rganiladigan “Ma’nodosh so‘zlar” mavzusini mustahkamlashda uni tatbiq etish mumkin:

1. 5-sinfda “Ma’nodosh so‘zlar” mavzusi o‘tish bo‘yicha o‘z tavsiyalarimizni bermoqchimiz. Mavzuga “Ona tili” darsligida 1soat (8-dars) ajratilgan. Darsning mustahkamlash bosqichida (yangi mavzuni mustahkamlash uchun) “Labirint” usulini tatbiq etish va u orqali o‘quvchilar faolligiga erishish mumkin. O‘quvchilarga labirint kataklarida joylashgan ma’nodosh so‘zlarni aniqlab ularni strelkalar orqali bir-biriga bog‘lab chiqish topshiriq qilib beriladi. Buni har bir kichik guruhga turlicha tarzda tayyorlash joiz. Chunki guruh a’zolari o‘z labirintlarini ishlab, fikrlarini aytib bo‘lganlaridan so‘ng bir-birlarining yo‘l qo‘ygan kamchiliklari xususida ham o‘zaro o‘rtoqlashadilar. Masalan, guruhlarga beriladigan labirintlardagi ma’nodosh so‘zlarni topish quyidagi ko‘rinish-da bo‘lishi mumkin: go‘zal-nafis, ko‘rkam-yorug‘, baland-ulkan kabi.

“Labirint”



“Labirint” usulini darslikdagi 31-mashq[74]ni bajartirishda qo‘llash mumkin. Bir xillikdan qochish maqsadida mashqni daftargagina bajartirmasdan, undgi ma’nodosh so‘zlarni topib labirnt katakchalariga joylashtirishni vazifa qilib berish mumkin.

2. “Ma’nodosh so‘zlar” mavzusini mustahkanlashda yana “Mening yulduzim” metodidan ham foydalanishni tavsiya etamiz. Ushbu metodda o‘zaro sinonim so‘zlar ishtirok etgan gaplarni yulduzchaning beshta qirrasiga, o‘zaro sinonim so‘zlar ishtirok etmagan gapni esa yulduzchaning markaziga oltinchi gap sifatida yozib, ustidan iks (X) chizig‘i chizib qo‘yiladi. Gaplarni yozish uchun o‘quvchilar quyidagi tartibda doskaga chiqadilar. Har bir guruhning barcha vakili o‘z maxsus kod raqamiga ega

---

[74] N.Mahmudov., A.,Nurmonov,.A.,Sobirov.,V.,Qodirov.,Z.Jo‘raboyeva. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarinung 5-sinfi uchun darslik. 2-nashri. Toshkent. “Ma’naviyat” 2007.

bo'ladi. Masalan, 1-o'quvchi-1, 2-o'quchi-2 va hokazo. O'qituvchi qaysi raqamni aytsa, guruhlardan o'sha kod egasi doskaga chiqadi va berilgan gaplardan birini yulduzchaning qirrasiga yozib o'z o'rnini egallaydi. O'yin shu tariqa davom etadi. Qaysi guruh vakillari yulduzchaning qirralarini tez va to'g'ri to'ldirsa, o'sha guruh g'olib sanaladi.

Yulduzcha qirralariga joylashtiriladigan gaplar quyidagich bo'ladi:

1. Samarqand tarixiy va qadimiy shahar.

2. Lolaqizg'aldoq nafis, nozik guldir.

3. Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog'.

4. Toshkentda baland va ulkan binolar qad ko'targan.

5. Siz ancha gapdon va so'zamol ekansiz.

6. Ulug' bobkalonimiz al-Beruniyning buyuk ishlari dunyoga mashhur.

"Mening yulduzim"



Bulardan tashqari, umumta'lim maktablarining ona tili va akademik litseylarning hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida "Sinkveyn", "Auksion", "FSMU", "Zinama-zina" texnologiyalaridan unumli foydalangan holda darslarni kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil qilib yuqori natijalarga erishish mumkin. Chunki bu taexnologiyalarning mazmun-mohiyati va tashkil qilinish metodikasi mashg'ulotni kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil qilish imkonini beradi.

Xullas, guruhlar bilan ishlashda o'quvchidan mas'uliyat, ziyraklik, donolik talab etiladi. O'quvchilarni darsga jalb etish, ularning qiziqishini orttirish, bilimini boyitish, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beruvchi metod va usullardan foydalanish dars sifati va samaradorligini oshirishning omilidir. Demak, ma'nodosh so'zlar mavzusini mustahkamlashga tavsiya qilinayotgan ushbu metod va usullardan

foydalanish, albatta, dars samaradorligining oshishiga yordam beradi. Bunga erishish uchun esa dars jarayonini innovatsion texnologiyalar darajasida maqsadga muvofiq tarzda loyihalay bilish muhimdir. Bundan asosiy maqsad – ona tili darslarini zamon talablari darajasida tashkil etishdir, qolaversa, mustaqil fikrlay oladigan, o'z qarashlariga ega bo'lgan va zarur paytda uni himoya qila oladigan, muhimi, bilimlarini jamlab, ulardan mustaqil foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini shakllantirishdir.[75]

Hozirgi kunda ilg'or fikrli o'qituvchilarning ijodiy izlanishlari natijasida bir qancha zamonaviy ta'lim usullari ishlab chiqildi.[76] Bu usullardan samarali foydalanish – o'qituvchidan o'z fanini puxta bilishni, ilg'or zamonaviy o'qitish usullaridan samarali foydalanish yo'llarini kashf etish va uni amalda qo'llay olishni talab qiladi. Shundagina o'qitish sifati ham, o'quvchilarning fanni o'zlashtirish darajasi ham yuqori bo'ladi.

Kichik guruhlar bilan ishlashda tatbiq etiladigan topshiriq va mashqlarning turlari va mazmuni

Umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili va akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarini kichik guruhlar bilan ishlsh metodi asosida tashkil etishda topshiriq va mashqlar tizimini ishlab shiqish va undan samarali foydalanish muammolari bir qator metodist olimlar T.G'aniyev[77], M.Mahmudov[78], E.M.Sorokina[79], A.G'ulomov[80], R.Safarova[81], G.Urumboyeva[82], M.Saidov[83], V.A.Saakyan[84], Sh.Yusupova[85],

---

[75]. Yo'ldoshev S. Kasb-hunar ta'limida pedagogik texnologiyalar. -T.: 2009.

[76]. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008.

[77]. Ганиев Т.Т. Активизация познавательной деятельности учащихся в процессе выполнения упражнений по родному (узбекскому) языку. Авт-т дисс... канд.пед.наук. – Ташкент. 1991. 23 стр.

[78]. Махмудов М.Х. Таълимни дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари. Пед.фан.докт... дисс. автореферати. – Тошкент. 2004. 45 б.

[79]. Сорокина Е.М. Обучение построению сложного синтаксического целого на уроках русского языка в узбекской школе. Автореферат дисс... канд.пед.наук. – Ташкент. 1991. 20 стр.

[80]. Ғуломов А.,Қобилова Б.Нутқ ўстириш машғулотлари. –Т.:"Ўқитувчи", 1995. –158 б.

[81]. Сафарова Р.Г. Теория и практика обучения родному языку в школах Узбекистана в условиях национального возрождения. Автореферат дисс... докт.пед.наук. – Ташкент. 1998. – 34 стр.

[82]. Урумбаева Г.Н. Лингводидактические основы обучения учащихся 7–9-классов сложному синтаксическому целому как базовой структуре русской монологической речи (на материале школ с каракалпакским языком обучения). Автореферат канд.дисс... пед.наук. – Ташкент. 2001. 19 стр.

[83]. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед.фан. номзоди ...дисс.-Тошкент, 2000. - 128 б.

[84]. Саакян В.А. Роль упражнений в усвоении, закреплении знаний по синтаксису и в развитии речи учащихся VII-IX классов армянской школы: Автореф. дис...канд. пед. наук. – Ереван, 1983. -26 с.

[85]. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида). Пед.фан.докт...дисс. автореферати. –Тошкент. 2005. 45-бет.

T.Ziyodova[86], M.Sobirova[87], N.Qosimova[88], T.A.Yusupova[89], M.Rixsiyeva[90], Bobomurodova[91], A.Ergasheva[92]lar tomonidan tadqiq etilgan. O'zlarining ilmiy ishlarida rekonstruktiv, reproduktiv hamda ijodiy mashq turlari haqida ma'lumot berishgan, tasnif qilishgan.

Maktabdagi ona tili va akademik litseydagi hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarda hamkorlikda ishlash hissini tarbiyalash masalalarini ona tili ta'limi mazmuniga tayangan holda samarali tashkil etish masalasi, birinchi navbatda, o'quvchiga bajartiladigan mashq va topshiriqlar mazmuni bilan belgilansa, ikkinchidan esa, shu jarayonni qanday tashkil qilish bilan ham bog'liq. Ta'lim samaradorligini oshirish, hamkorlikda ishlash texnologiyalari va darsni kichik guruhlar asosida tashkil etish masalalarini to'liq hal etishda biz mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqishni lozim topdik.

Biz ilmiy adabiyotlarni o'rganib va tahlil qilib chiqib, ona tili ta'limini kichik guruhlar bilan ishlsh metodi asosida tashkil etishda foydalaniladigan mashq va topshiriqlarning turlarini shartli ravishda katta 3 guruhga ajratdik:

1. Xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlar;
2. Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashq va topshiriqlar;
3. Ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar.

Bunday tasniflashdan asosiy maqsad – darsning har shakliga va bosqichlariga mos keluvchi mashqlar va topshiqlar tizimini ishlab chiqishdan iboratdir. Masalan, uyga vazifani so'rash jarayonida ko'proq qayta xotirlash xarakteridagi doir mashq va topshiqlardan foydalanish

---

[86]. Зиёдова Т. Ўқувчиларни мустакил фикрлашга ўргатиш. – Тошкент, 2000. – 163 б. Зиёдова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. фан.номзоди ... ёзилган дисс. - Т., 1995. - 141 б. Зиёдова Т. Тилсим топишмоклари – нуткий фаолиятни шакллантириш омили. Она тили ўқитувчилари учун методик қўлланма. – Тошкент: РТМ, 1999. – 73 б.

[87].Собирова М.Ю. Ўзбек мактаблари юкори синф ўқувчиларига содда гап синтаксисини мунозара усулида ўргатиш: Пед. фан. номз. . дис. автореф. - Тошкент, 1994. – 23 б.

[88]. Ғуломов А., Қобилова Б. Нутк ўстириш машғулотлари. – Т.: "Ўқитувчи", 1995. – 158 б.

[89]. Юсупова Т. Гапнинг бош бўлакларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нуткини ўстиришнинг лингвометодик асослари: Пед. фан.номзоди ... дисс. - Тошкент, 2005. - 157 б. Юсупова Т. Гапнинг бош бўлакларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нуткини ўстириш. – Тошкент, "Fan va texnologiyalar", 2006. – 87 б. Юсупова Т. Синтаксисни морфологияни такрорлаш билан боғлаб ўрганиш методикаси (5- ва 8-синфлар мисолида). Монография. – Тошкент "Fan va texnologiyalar", 2009. –176 б.

[90]. Рихсиева М. Таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларнинг ўзбек тили дарсларида ўқувчиларни матн тузишга ўргатиш методикаси. Пед.фан.номз. ... дисс.автореферати. – Тошкент, 1999. – 20 б.

[91].Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоклардан фойдаланиш. Пед. фан.номзоди ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1996. – 146 б.

[92]. Эргашева А. Она тили дарсларида назарий маълумотларни мустаҳкамлаш жараёнида нутк ўстириш методикаси. – Т.: "Fan va texnologiyalar", 2010. – 69 б.

yaxshi natijaga olib keladi. Chunonchi, o'quvchi uzoq o'tilganlarni qayta xotirlash orqali o'tiladigan yangi mavzuning bir qator qirralarini yodga oladilar va guruh bo'lib yangi mavzuni o'zlashtirishga kirishadilar. Bu esa darsning yanada qiziqarli bo'lishini hamda o'quvchilarning faol harakat qilishlarini ta'minlaydi. Sinfda va har bir kichik guruh (jamoa)larda jonlantirilgan va faollashgan vaziyat qaror topadi. ***Qayta xotirlash xarateridagi mashq va topshiqlar.*** Qayta xotirlashga xarakteridagi mashq va topshiriqlar o'quvchiga muayyan qiyinchilik tug'dirmaydi, uni bajarishda tayyor o'quv materiali sifatida ish ko'radi. O'rganilgan til hodisalarini xotirada tiklash, topshiriqni to'lig'icha muayyan andaza yoki namunaga qarab bajarish kabilar shunday mashq va topshiriqlar sirasiga kiradi.

Maktabda o'qitiladigan ona tili va akademik litseylarda o'qitiladigan hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida bajariladigan bir qator ish turlari (mashq va topshiriqlar), jumladan, ko'chirib yozish, izohli yozuv, saylanma diktant, muayyan andazaga qarab bajariladigan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik tahlillar, berilgan she'riy many mazmunini nasriy yo'l bilan bayon qilish kabi topshiriqlar o'quvchilardan bilimlarni xotirada tiklashni talab qiladi.

Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashq va topshiqlar. Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashqlar tarkibini ko'proq qayta xotirlashga qaratilgan mashq va topshiriqlar egallaydi. Chunki o'quvchi ona tilidan egallangan bilimlarga tayanmay turib, uni yangi sharoitda qo'llay olmaydi.

Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashq va topshiriqlar sirasiga quyidagi mustaqil ish turlarini: a) nuqtalar o'rniga zarur harflar, kelishik qo'shimchalri, so'zlarni topib qo'yish; b) ma'lum bir so'zni uning ma'nodoshi, uyadoshi, qarama-qarshi ma'noli so'z bilan almashtirish; d) berilgan gaplar yoki matnning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zlashtirish; d) berilgan tayanch so'zlar yoki so'z birikmalaridan foydalanib, gaplar mantlar tuzish kabilarni kiritish mumkin. Bu kabi mashq va topshiriqlar o'quvchidan qisman izlanuvchanlikni talab qiladi. Chunki bu topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchi ma'lum darajada yordam oladi. Berilgan so'zlar, so'z birikmalari va gaplar o'quvchiga mashq va topshiriqni bajarishi uchun ko'maklashadi.

Ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar. Izlanish til materiallarini ijodiy faoliyat bilan o'rganish demakdir. Shubhasiz, o'quvchi maktab ona tili va akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida ma'lum bir yangilik kashf etmaydi, balki berilgan ma'lumot mazmunini ijodiy yo'l bilan o'rganadi. Bunday ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar

o'quvchilardan oldin o'rganilganlarni tamoman yangi sharoitda qo'llashni talab qiladi. Maktab ona tili va akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida yoziladigan insholar, o'qilgan badiiy asarga taqriz yozish, maqola yozish, ilmiy ma'ruzalar tayyorlash o'quvchidan hach qanday andaza yoki tashqi yordam olmasdan bajariladigan asosiy ishlar sanaladi. Demak, maktab ona tili va akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida izlanishga asoslangan ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlardan foydalanish, birinchidan, o'quvchilarning til hodisalariga qiziqishini oshiradi, ikkinchidan, til hodisalarini mustaqil tahlil qilishga o'rgatish orqali ularda ijodiylik rivojlanib boradi.

O'qituvchi mashq va topshiriqlarni tayyorlashda uning o'rganilayotga til materiali mazmuniga muvofiq kelishi, mavzuning murakkablik darajasi, o'rganilayotgan o'quv materiali yuzasidan o'quvchilarda tushunchalarning mavjudligi, o'quv materialining hajmi kabilarni to'liq inobatga olishi lozim. Chunki mashq va topshiriqlarning turlari va ularninh mazmun-mohiyati shuni talab qiladi. Masalan, qayta xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlarni tanlash va uni ta'lim jarayonida qo'llash o'quvchining oldin o'tilganlar yuzasidan ayrim tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'lishini talab qiladi. Andaza yoki namunaga qarab bajarilish talab qilinadigan qayta xotirlashga qaratilgan mashq va topshiriqlar uyga berilgan vazifani so'rash jarayonida qo'llanilgani maqsadga muvofiq. Bu jarayonda qayta xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlardan foydalanish o'quvchining o'tgan darsdagi o'rganganlarini xotiraga tushirishiga va o'qituvchi ham ularni baholay olishiga imkon beradi. Yangi mavzuni mustahkamlashda esa qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashq va topshiriqlardan foydalanilsa, ham o'tilgan yangi mavzu o'quvchi xotirasida yaxshi saqlanadi, ham o'quvchida mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Bu esa uchinchi turdagi mashq va topshiriqlarning dars jarayoniga tatbiq etilashiga zamin yaratadi.

Endi yuqorida tasnif qilingan mashq va topshiqlarning har bir turiga amaliy nuqtai nazardan yondashamiz va ona tili mavzulari hamda ta'lim bosqichlari bo'yicha misollar keltiramiz:

Qayta xotirlash xarateridagi mashq va topshiqlarlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar:

Qayta xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlarga misol sifatida darslikda berilgan mashq va topshiriqlarni misol qilib keltirish mumkin.

Masalan, 5-sinf "Ona tili" darsligi[93]dagi 161-dars (So'zning o'z va ko'chma ma'nolari) da berilgan 1- va 2-topshiriqlar shu mazmundagi topshiriqlarga misol sifatida keltirish mumkin. Topshiriq shartiga ko'ra o'quvchilar ***ko'z, oltin, temir, quloq, og'iz*** atash ma'nosini, keyin esa ***derazaning ko'zi, ishning ko'zi, buloqning ko'zi, oltin bosh, oltin kuz, qozonning qulog'i, temir intizom*** kabi birikmalar tarkibida kelgan ***ko'z, oltin, temir, quloq*** so'zlarining qaysi ma'noda kelganini aytib, tushuntirib berish talab qilinadi. Bunda o'quvchilar har bir so'z anglangan ma'noni, ya'ni atash ma'nosini misollarni tushuntirish jarayonida yodga oladilar. Boshlang'ich sinfda va o'quv yili boshida o'rganganlari asosida so'zning o'z va ko'chma ma'nolari haqidagi amaliy va nazariy bilimlarni xotiraga tushiradilar. O'qituvchi o'quvchi izohlagan tushuncha va ma'lumotlar orqali yangi mavzuni tushuntirishni boshlaydi. Demak, bu xildagi ishlarni uy vazifasini so'rash jarayonida qo'llash yaxshi samara beradi hamda uzoq o'tilganlarni yangi o'tiladigan mavzu bilan bog'laydi. Faqat bu jarayonni tashkil etishda so'zlar miqdorini hisobga olgan holda o'quvchilarni guruhlarga taqsimlab chiqish zarur. Yuqorida berilgan topshiriq shartiga binoan, bunda o'quvchilarni 4 ta guruhga taqsimlasa bo'ladi.

6-sinf darsligi[94]dan misol tariqasida 11-betda berilgan 8-darsi (Eskirgan va yangi so'zlar. Atamalar. Shevaga xos so'zlar. Iboralar. Lug'atshunoslik) dagi 33- va 34-mashqlarni shartiga binoan o'quvchilar eskirgan va yangi so'zlarga oid o'tilganlarni xotiraga tushiradilar va takrorlaydilar. 33-mashq shartiga ko'ra o'quvchilar matnda berilgan eskirgan so'zlarni topishi va izohlashi lozim. Bunda har bir kichik guruhdan bittadan o'quvchi doskaga chaqirtiriladi va matndan 1(bir) minut vaqt ichida mashq matnida berilgan eskirgan so'zlarni topib yozishi kerak. Qancha ko'p so'zni topgan o'quvchi g'olib sanaladi. Bu birinchi bosqich sanaladi. Ikkinchi bosqichda boshqa o'quv-chi chaqirilib, undan shu so'zlarga izoh yozish vazifa qilib beriladi. Har bir so'zga izoh berilgandan so'ng shu so'zlarning hozirgi kunda unga teng keladigan tushunchalarni aytish va zamonaviy atamasini keltirish talab qilinadi. Matndagi ***fiqhshunoslar, muhaddislar, muarrixlar, faylasuflar, shuaro va musiqashunoslar, tabiblar*** termin-tushunchalariga izoh berilgandan so'ng ulardan hozirgi kunda shu atamalar anglatgan ma'noga teng keluvchi termin-tushunchalarni aytib berishni so'rash orqali bu so'zlarning ma'nolari to'liq ochib beriladi va uning mantiqiy davomi sifatida 34-

---

[93]. N.Mahmudov., A.Nurmonov,.A.,Sobirov.,V.,Qodirov ,Z.Jo'raboyeva. Oni tili. Umumiy o'rta ta'lim maktabiarinung 5-sinfi uchun darslik. 2-nashri. Toshkent. "Ma'naviyat" 2007.

[94]. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Oni tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarinung 6-sinfi uchun darslik. 2-nashri. Toshkent "Tasvir" nashriyot uyi. 2009.

mashqqa o'tiladi. Bu mashqda yangi so'zlar haqida gap boradi. Unda o'quvchilar ***tadbirkor, ishbilarmonlik, fermer, internet*** kabi so'zlarga izoh berishadi va ularning paydo bo'lish sabablarini tushuntirishadi. Taxminan o'quvchilar hozirgi kunda Prizentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikning, fermer xo'jaligining yaxshi yo'lga qo'yilayotganligiga va internetning jadal rivojlanayotganligiga o'z munosabatini bildirishadi. Uning paydo bo'lish sabablarini mamlakat taraqqiyoti bilan bog'lab izohlashga harakat qilishadi. Bu esa mazkur fanni va mavzuni ijtimoiy va siyosiy hayot bilan bog'lash imkonini beradi. Natijada ona tili va ijtimoiy-siyoisiy hayot integratsiyasi vujudga keladi. Demak, o'qituvchi o'z darsida fanlararo intagratsiyani qo'llash imkoniga ega bo'ladi. Hayotiy voqealar o'quvchida ham qiziqish va o'z munosabatini bildirish hissini paydo qiladi. Bu esa o'quvchida ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, yurtboshimiz I.A.Karimov ham o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim..., deya ta'kidlaydi[95].

Qayta xotirlash xarakteridagi bu kabi ishlarni akademik litseyning hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida ham o'rta umumta'lim maktablari ona tili darslaridagi uzoq o'tilganlarni xotirlash tarzida davom ettirish mumkin. Masalan, "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (akademik litsey II bosqich) darsligining (4-dars. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. Ko'chma ma'nolar va ularning turlari) 191- betida berilgan 1- va 2-topshiriq[96]larini bajartirish jarayonida ham quyidagicha davom ettirish mumkin:

Guruhdagi o'quvchilar 4ta guruhga bo'linadi. Guruhlardan ikkitasi asal va xom so'zlarining to'g'ri ma'nolari ustida ishlaydi, qolgan ikkitasi esa shu so'zlarning ko'ma ma'nolari ustida ish olib boradi. Bunda o'quvchilar izohli lug'atlar bilan ishlaydi. Izohli lug'at bilan ta'minlashning iloji bo'lmaganda o'qituvchi shu so'zlar aks etgan qismining nusxasi bilan guruhni ta'minlashi juda zarur.

Qisman izlanuvchanlik xarateridagi mashq va topshiqlarlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar:

Bu turdagi mashq va topshiriqlarni ham, dastavval, darslik asosida tashkil qilish lozim. Chunki o'qituvchi o'quvchilarni doskada ishlashga

---

95.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент:Маънавият, 2008.–176 б.

96. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining I, II, III talabalari uchun darslik. II kitob. – Toshkent: "Ilm ziyo" nashriyot uyi, 2013. – 592 bet.

o'rgatmog'i, qolaversa, darslik va qo'shimcha manbalar bilan ishlash malakalarini shakllantirib bormog'i ustuvor masala sanaladi. Darsliklarni tahlil qilish natijasida shunga amin bo'ldikki, maktab "Ona tili" va akademik litsey "Hozirgi o'zber adabiy tili" darsliklarida ham qisman izlanuvchanlikka asoslangan mashq va topshiriqlarni tashkil qilishga imkoniyat mavjud.

Masalan, o'rta umumta'lim maktablari "Ona tili" darsliklarining barchasida o'tilganlarni takrorlashga doir darslar bor bo'lib, ularda uzoq o'tilganlarni takrorlashga va mustahkamlashga oid "Savol va topshiriqlar" bir qator savollar berilgan. 7-sinf "Ona tili" darsligining 8-betida berilgan 5-dars "Leksikologiya bo'yicha o'tilganlarni takrorlsh"ga oid bilimlarni o'z ichiga oladi[97]. Mavzu tagida berilgan savol va topshiriqlarga e'tiborni qarataylik: Unda 1-topshiriq "*Meva, daryo, oy so'zlarini turli ma'noda qo'llab gap tuzing*" deb talab qilinadi. O'quvchilar uzoq o'tilganlarni xotiraga tushirish bilan bir qatorda shu so'zlarni avval o'z ma'nosiga, so'ngra ko'chma ma'noda qo'llab gap tuzadilar. Dastavval, turli ma'no nima ekanligi ustida bosh qotirishining o'ziyoq o'quvchini oldin o'rganganlari asosida qisman izlanuvchanlikka undaydi. O'rgangan bilimlari asosida avval "meva, daryo, oy" so'zlari ishtirokida o'z ma'nosida qollab, taxminan quyidagicha gaplarni tuzishi mumkin: *1. Bog'da har xil mevalar g'arq pishgan. 2. Darsdan so'ng daryo bo'yiga bordim. 3. Kechasi osmonda to'lin oy ko'rindi.* Bu gaplarni o'qitib, ularda shu so'zlarning ma'nosini aytib berish talab qilinadi va bundan so'ng bularni 3 ta ustunga bo'lib, har bir ustundagi o'z ma'nosida berilgan gaplarning tagiga ularni ko'chma ma'noda qo'llab tuzilgan gaplar yoziladi. Natija quyidagi jadvalda yaqqol ko'rinib turibdi:

So'zlar o'z ma'nosida qo'llangan	*1.Bog'da har xil mevalar g'arq pishgan.*	*1.Darsdan so'ng daryo bo'yiga bordim.*	*1.Kechasi osmonda to'lin oy ko'rindi.*
So'zlar ko'chma ma'noda qo'llangan	*1. Mevasini eginu, bog'ini surishtirma.* *2.Qanday urug' qadasang, shunday meva olasan.*	*1.Ko'z yoshlarim daryo bo'lib oqdi.* *2.Yurgan daryo, O'tirgan bo'yra.*	*1.Ko'rdim, oydekkina qiz ekan.* *2.Oy borib, omon kelgin.*

97. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Oni tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarinung 7-sinfi uchun darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri. Toshkent. "Ma'naviyat" nashriyot uyi. 2009.

Navbatdagi topshiriq ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar ishtirok etgan gaplarni tahlil qilish va na'nolarini izohlashdir. Hab gapdagi so'zlarning ma'nolarini izohlash uchun o'quvchi izohli lug'atga murojaat qiladi va undan shu so'zlarning gapda anglatgan ko'chma ma'nolarini topishadi. Shundan so'ng o'z va ko'chma ma'nolar orasidagi o'zaro uzviylik va aloqadorlikni aniqlashadi. Demak, darslikda berilgan topshiriq va mashqlar ga nisbatan bunday yondashuv o'quvchidan qisman bo'lsada izlanishni talab qiladi.

Akademik litsey darsliklarida ham qisman izlanuvchanlikka doir topshiriq va mashqlar talaygina. Masalan, akademik litseyning II bosqichi uchun yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida ham "Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. Ko'chma ma'nolar va ularning turlari" mavzusi o'z ifodasini topgan[98]. Shu mavzuni o'tishda 189-betda berilgan "Savol va topshiriqlar" ruknidagi quyidagi savollarga javob berish jarayonida maktab ona tili darslarida o'rganilgan bilimlarga tayangan hilda izlanadilar: 1.Ko'p ma'noli so'zlar nima? 2. Ko'p ma'noli so'zlar nima uchun paydo bo'ladi? 3. Ko'chma ma'nonini qanday aniqlashadi? 4. To'g'ri ma'no-chi? Shu savollarga berilgan javoblar yangi mavzuni induktiv ta'lim asosida o'qitishga imkon beradi. Chunki bu ta'limning asosiy maqsadi amaliyotdan nazariyaga tamoyiliga asoslanadi. O'quvchilar amaliy ish qilish natijasida nazariyaga qarab boradilar va o'qituvchi yordamida nazaiy xulosalar chiqaradi.

Ijodiy xarakterdagi mashq va topshiqlarlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar: Ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlarni ham o'qituvchi qilinishi mumkin. Masalan, 8-9-sinflarda o'rganiladigan tashkil mavzularini o'qitish jarayonida bunga juda ko'p imkoniyatlar mavjud. 8-sinf "Ona tili" darsligi[99]ni olib ko'raylik. Ma'lumki, 8-sinfda asosan, sodda gap sintaksisi o'qitiladi. Bu jarayonga kelib, o'quvchilar fonetika va grafika, orfoepiya va orfografiya, leksikologiya va leksikografiya, morfemika va so'z yasalishi hamda morfologiyaga oid barcha bilimlarni egallagan va ko'nikma va malakalar hosil qilgan bo'ladilar. "Kirish" qismida takrorlashga oid mavzular berilgan bo'lib, unda mustaqil va yordamchi so'z turkumlari bo'yicha o'tilganlar takrorlanadi, yani qayta xotiraga tushiriladi. 3-dars 7-mashqda berilgan topshiriqni sinfdagi o'quvchilarni 6ta guruhga ajratib, darsni kichik guruhlar bilan ishlash

---

98. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey kollejlarining I, II, III talabalari uchun darslik. II kitob. – Toshkent: "Ilm ziyo" nashriyot uyi, 2013. – 192 b.

99. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim tasb-hunar 8-sinfi uchun darslik – Toshkent Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010. – 144 bet.

metodi asosida tashkil qilish va o'tkazish mumkin. Mashq shartiga ko'ra o'quvchilar gapdagi berilgan so'zlarni jadvalga joylashtirishlari lozim. 1-guruh fe'l – so'z turkumiga oid so'zlarni, 2-guruh ot – so'z turkumiga oid so'zlarni, 3-guruh sifat – so'z turkumiga oid so'zlarni, 4-guruh son – so'z turkumiga oid so'zlarni, 5-guruh – ravish so'z turkumiga oid so'zlarni va 6-guruh esa olmosh – so'z turkumiga oid so'zlarni jadval katakchalariga joylashtiradilar:

Fe'l	Ot	Sifat	Son	Ravish	Olmosh
.....	.....	.....	.....	.....	.....

Demak, darsni uzoq o'tilganlarni qayta xotiraga tushirish bilan boshlash kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil etildi. Buning davomiyligini saqlab qolish maqsadida keyingi ishlarni ham ana shu metodga asoslangan holda davom ettirish kerak. 8-mashq ham bizga ana shu imkonni beradi. Bu mashq shartiga ko'ra, "Topqirlar bellashuvi" o'tkaziladi. "Topqirlar bellashuvi"da o'quvchilar mustaqil so'z turkumlariga oid misollar topishlari lozim. Xullas, oldingi taqsimlangan guruh a'zolariga bir bet oq qog'oz beriladi va ular shu oq qog'ozga mustaqil so'z turkumlariga misollani yozadilar. Vazifani bajarish uchun ularga bor-yo'g'i 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Bellashuvni davom ettirish maqsadida topshiriqni topilgan har bir so'zga gap yozish vazifasini berib, ularning mustaqil ravishda gap tuza olish malakalarini sinab ko'rish mumkin. Bu vazifani bajarishga topilgan so'zlarning miqdoriga qarab vaqt ajratish joiz. 9-mashq 2ta topshiriqdan iborat bo'lib, birinchi topshiriqqa ko'ra ular "Sharafli burch" rivoyatini oqish, mazmunini so'zlab berish va *"insonlik sha'niga isnod"*, *"tiriklikdagi o'liklik"* iboralarining ma'nosini sharhlashlari zarur. Ikkinchi topshiriqqa ko'ra esa matndagi mustaqil so'zlarni turkumlarga ajratadilar va ularni o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda ko'chirib yozadilar. 10-mashqni bajarish jarayonida o'quvchilarning odob-axloq haqidagi tushunchalari va ularni boshqalarga tushuntira olish layoqatlari namoyon bo'ladi. Shu darsga aloqador oxirgi, ya'ni yakunlovchi vazifa darslikning 8-betida berilgan ***"Takrorlash uchun savollar"***dir. Buni bajartirish uchun ***"Lift"*** texnologiyasidan foydalansa bo'ladi.

6ta yo'lagi bor 9ta qavatdan iborat uyning 9-qavatiga chiqish uchun o'quvchilar ***"Takrorlash uchun savollar"*** ruknida berilgan 9 ta savolga javob berishlari talab qilinadi:

1. Ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish nima uchun mustaqil so'z turkumlari deyiladi?

2. Olmosh qanday xususiyatlari bilan boshqa turkumlardan ajralib turadi?

3. Ot so'zlar gapda qanday sintaktik vazifalarda keladi?

4. Sifat va son so'zlar qaysi gap bo'laklari vazifasida kelishi mumkin? Misollar keltiring.

5. Ravishlar gapda ko'pincha qaysi gap bo'lagiga bog'lanib keladi?

6. Fe'l so'zlarining gapdagi asosiy vazifasi nimadan iborat?

7. Mustaqil so'z turkumlarini o'rganish nega fe'l fe'l turkunidan boshlanadi?

8. Gapda ot so'zlarga bog'lanib keluvchi va ot o'rnida qo'llanuvchi so'z turkumlari qaysilar?

9. Otlashuv hodisasiga misollar keltira olasizmi?

Xullas, bu savollarga javob topgan kichik guruhlar yuqoriga qarab ko'tarilashadi va marraga yetishadi. Oxirgi savolgacha birinchi va to'g'ri javob bergan guruh g'olib sanaladi. Ko'rinib turganidek, samaradorlikka erishish uchun texnologiyalarni to'g'ri tanlash va uni darslikda berilgan nazariy ma'lumotlar hamda amaliy mashq va topshiriqlar bilan uyg'unlashtira olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktab va akademik litsey ona tili ta'limida qo'llaniladigan qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik va ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlarning mazmuni va mohiyati, tatbiq etish yo'l-yo'riqlari kichik guruhlar bilan ishlash metodiga moslashtirilsa, albatta, samaradorlikka erishish imkoniga muvaffaq bo'lish mumkin. Bajariladigan har bir mashq va topshiriq kichik guruhlarning a'zolari tomonidan hamkorlida amalga oshirilsa, o'z-o'zidan darsda o'quvchilar faolligi yuzaga keladi va bu darsning yanada samarador bo'lishini ta'minlaydi.

Metodik qo'llanma bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov materiallari tavsifi va tajriba natijalari

Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun maktab "Ona tili" va akademik litsey "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklari materiallarini o'tish yuzasidan dars ishlanmalari (tavsiyalar) tayyorlandi.

Nazorat sinflarida darslar darslik qolipi va o'qituvchilarning ijodiy yondashuvlari asosida tashkil etildi.

Tajriba sinflarida esa tavsiyalarimiz asosida ish olib borildi.

Quyida kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil qilingan darslarning ishlanmalarimizdan namunalar keltiramiz.

6-sinf uchun kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosiida tashkil qilingan darsning ishlanmasi.

Mavzu: So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.

I. Darsning maqsadi: O'quvchilarga 5-sinfda o'tilgan so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari haqidagi bilimlari mustahkamlanadi, ularda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini farqlash yuzasidan ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

II. Asosiy tushuncha va atamalar: So'zlar, shakl va ma'no munosabati, ma'nodosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, paronimlar, shakldosh so'zlar, uyadosh so'zlar.

O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi:

Metod: Kichik guruhlar bilan ishlash, "Aqliy hujum" texnologiyasi.

Shakl: Guruhlarda ishlash.

Usul: Savol-javob, darslik bilan ishlash, mashq, musobaqa.

Vosita: Darslik, plakat, jadvallar, kompyuter, tarqatma materiallar.

III. O'tilgan darsni takrorlash va uyga vazifani so'rash:

Topshiriq: Uyga berilgan 27-mashq tekshiriladi. Rasm asosida "Kuzda" mavzusida matn tuzish va unda ko'chma ma'noli so'zlardan foydalanish talab qilingan. O'quvchilardan bu vazifalar so'ralib bo'lingandan so'ng, ular "Aristokrat", "Intellekt" va "Everest" guruhlariga taqsimlanadi.

IV. Yangi mavzuning bayoni: Yangi mavzuni o'rganish ***"Bilimlar oro-liga sayohat"*** o'yini bilan boshlanadi. O'qituvchi orol manzarasi, ya'ni uchta kema, daraxtlar, qirg'oq va dengiz tasviri tushirilgan plakatni doskaga ilib qo'yadi. Uch guruhga bo'lingan o'quvchilar o'z kemalarida bilimlar oroliga sayohatga chiqadilar. Oroldagi ***"Savol-javob"*** va ***"Davom ettir"*** bekatlarida to'xtab, undagi shartlarni bajarish lozim. Birinchi bekat: ***"Savol-javob"*** deb nomlanadi. O'quvchilar berilgan savollarga guruh bilan kelishgan holda javob beradilar.

Savollar quyidagicha:

1. Sinonim so'zlar deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.

2. Qanday so'zlarni antonim so'zlar deymiz? Misollar keltiring.

3. Omonim so'zlarga ta'rif bering va misollar keltiring.

Savollarga to'g'ri javob bergan guruh ikkinchi bekatga yo'l oladi. Bu bekatda o'quvchilar bosh qismi berilgan maqollarning, qolgan qismini mustaqil ravishda topishlari kerak.

Maqollar:

1. Avval o'yla, ... (keyin so'yla)

2. Baxilning bog'i ... (ko'karmas)

3. Dangasaning ishi bitmas, ... (yoz kelsa ham qishi bitmas)

4. Do'sting ming bo'lsa ham oz, ... (dushmaning bir bo'lsa ham ko'p)

5. Do'stsiz boshim- ... ... (tuzsiz oshim)

6. Ota-ona ... ... (oltin qanot)

7.Yaxshilik qilsang yashir, ... (yaxshilik ko'rsang oshir)

8.Yaxshi niyat- ... ... (yarim mol)

9. Yaxshi so'z jon ozig'i, yomon so'z- ... ... (bosh qozig'i)

Bekatlardagi shartlarni a'lo darajada bajargan guruh g'olib deb e'lon qilinadi va rag'batlantiriladi.

"Ilmga parvoz" o'yinidan foydalaniladi. Bunda o'qituvchi havo sharining maketini yasab, sinfga olib kiradi. Unda to'rt tomon mavjud. 1-tomonida kirish eshigi bor bo'lib, qolgan uch tomoniga konvertlarga joylashtirilgan uchta shartning nomi yoziladi. Shartlarda test savollari berilgan bo'lib, har bir guruh quyidagi bekatlarda uchtadan shartni bajarishlari kerak: ***1-bekat: "O'zingni sinab ko'r"; 2-bekat: "Boshqotir"; 3-bekat: "Kamalak jilosi". "O'zingni sinab ko'r"*** bekatida quyidagi test savollari beriladi:

1.Sinonim so'zlar berilgan qatorni toping.

A) yorishmoq-ochilmoq, naf-ziyon

B) xursand-xushvaqt, yaroqli-layoqatli

D) sayoz-chuqur, xulq-axloq

2. Qaysi qatorda o'zaro antonym so'zlar berilgan?

A) yangi-eski, to'g'ri-egri

B) tejamkor-isrofgar, g'alaba-zafar

D) tayyor-muhayyo, jahl-g'azab

3. Takabbur-kamtar so'zlari o'zaro ...

A) sinonim

B) omonim

D) antonim

2-bekatda o'quvchilarga o'zaro antonim, sinonim va omonim so'zlar beriladi. O'quvchilar ushbu so'zlar yordamida ta'sirchan va mazmundor gaplar tuzishlari kerak. Masalan, ***aqlli, es-hushli:*** Buvijonim menga har doim aqlli, es-hushli qiz bo'lgin deb nasihat qiladilar.

3-bekatda ***"Kamalak jilosi"*** deb nomlanuvchi bekatda esa o'quvchilarga oldingi bekatda tuzgan gaplari asosida kichik matn yoki hikoya tuzish topshiriladi. Qaysi guruh barcha shartlarni bosqichma-bosqich a'lo darajada bajarsa, o'sha guruh g'olib sanaladi.

V. Darsni mustahkamlah: Dars yanada qiziqarli, o'quvchilar faolligi yuqori bo'lishi uchun mavzu doirasidagi turli boshqotirma va rebuslarni yechishni tavsiya etish mumkin. Chunki qiziqarli boshqotirmalar ham darsning yanada qizg'inroq o'tishini ta'minlaydi. O'quvchilarga quyidagi boshqotirmani yechish vazifa qilib topshiriladi:



*1. **Asta** so'zining sinonimi.*
*2. **Birinchi** so'zining sinonimi*
*3. **Yoqimli** so'zining sinonimi.*
*4. **Taniqli** so'zining sinonimi.*
*5. **Katta** so'zining sinonimi.*
*6. **Go'zal** so'zining sinonimi.*
*7. **Kichik** so'zining sinonimi.*

Rebusni yechish navbatdagi vazifa qilib topshiriladi. Bunda o'quvchilar tushirib qoldirilgan harflarni yozish natijasida hosil bo'ladigan matalni topishlari lozim. So'ngra mataldagi anonim (yashirin) so'zlarni belgilashadi va izohlashadi.

***Javobi:** Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog'.*

Navbatdagi topshiriqda bajariladigan ish o'quvchilarning antonimlar yuzasidan egallagan bilim va ko'nikmalari sinab ko'riladi.

Antonim boshqotirma



1. Qora so'zining antonimi.
2. Qish faslining aksi, ya'ni eng issiq fasl.
3. .....siz odamning mevasiz daraxtdan farqi yo'q. *(Nuqtalar o'niga*

dushman so'zining antonimini toping).

4. ..... gapirding. Yaxshi gap, diqqat e'tibor har qanday doridan kuchli ekan *(O'. Umarbekov).* Nuqtalar o'rniga noto' ri so'zining zid ma'nosini topib, qo'ying.

5. .....lik muhtojlik eshigidir. *(Nuqtalar o'rniga ishchan so'zining antonimini toping).*

6. Kuz fasli. Shamollar mayin, ... esadi *(Oybek). (Nuqtalar o'rniga noxush so'zining zid ma'nosining munosibini qo'ying).*

Darsning oxirida barcha o'quvchilarga umumiy tarzda bir xil topshiriq beriladi. Unda o'quvchilar berilgan so'zlarning antonimlarini topishlari lozim.

Topshiriq quyidagicha:

Quyidagi so'zlarga antonim so'zlar toping.

1. Do'st- ....., 2. Ozg'in- ....., 3. Uzun- .....,
4. Oq- ..... 5. Sarishta- ....., 6. Odobli- .....,
7. Tayyor- ....., 8. Qimmat-..... 9. Bekorchi- .....,
10. Xavf- ....., 11. Katta- ....., 12. Badbaxt- .....,
13. Noto'g'ri- ....., 14. Kasal- ....., 15. Shirin- .....,
16. Xursand- ....., 17. Kecha- ....., 18. Sergo'sht- .....,
19. Mazmunli - ....., 20. Noqobil- .....

Dars yakunida guruhdagi barcha o'quvchilar baholanadi va ma'naviy rag'batlantiriladi. Uyga vazifa sifatida darslikdagi 32-mashqni bajarib kelish topshiriladi. Unga qo'shimcha ravishda quyidagi jadvalli labirintni bajarib kelishni ham vazifa qilib berish mumkin: *Antonim so'zlar bo'yicha olgan bilimingizni Jadvalli labirint orqali sinab ko'ring. 4-ustundagi so'zlar qaysi so'zning antonimi ekanligini toping va raqamlar orqali belgilang.*

T/r	So'z	Javob	Antonimi
1.	Yaxshi	5	Achchiq
2.	Oq	7	Yaqin
3.	Shirin		Xunuk
4.	Chiroyli		Semiz
5.	Uzoq		Yomon
6.	Og'ir		Qisqa
7.	Baland		Qora
8.	Keng		Tor
9.	Uzun		Yengil
10.	Ozg'in		Past

Uyga vazifa: Darslikdagi 32-mashq uyga vazifa qilib beriladi.

Akademil litsey 2-bosqich uchun kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosiida tashkil qilingan darsning ishlanmasi va texnologik xaritasi

DARS REJASI №4

Guruhlar	2-03									
Dars o'tkaziladigan sana	26-sen-yabr									

O'quv fanining nomi: Hozirgi o'zbek adabiy tili.

Mavzu nomi: Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. Ko'chma ma'nolar va ularning turlari.

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy: O'quvchilarda so'zning o'z va ko'chma ma'nolari haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

b) tarbiyaviy: o'quvchilarda nutqiga e'tiborli bo'lish ko'nikmalarini tarbiyalash.

c) rivojlantiruvchi: o'quvchilarda o'z nutqlarida so'z ma'nolaridan to'g'ri foydalana olishga o'rgatish.

Darsdan kutilayotgan natijalar – mavzuni o'zlashtirgandan so'ng o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

1. Bir ma'noli so'z haqida tushunchaga ega bo'lishadi va uni ko'p ma'noli so'zlardan farqini bilib olishadi.
2. Ko'p ma'noli so'zlar haqidagi bilimlarga ega bo'lishadi va ularning paydo bolish sabablarini bilib olishadi.
3. Ko'chma ma'noni aniqlash malakasiga ega bo'lishadi.
4. Ma'no ko'chish usullari haqidagi bilimlarni o'zlashtirishadi.

Ta'lim metodlari: Kichik guruhlar bilan ishlash metodi, "Aqliy hujum" texnoligiyasi.

Baholash metodlari: guruhni rag'batlantiruvchi va jarima kartochkalari bilan, faol ishtirok etgan guruh a'zosini esa individual tarzda reyting ko'rsatkichi bilan baholash.

Axborot manbalari va texnik vositalari: Darslik, qo'shimcha o'quv adabiyotlari, O'zbek tilining izohli lug'ati, kompyuter va proektor vositasida slaydlar namoyishi.

Dars turi: Aralash.

Darsga ajratilgan vaqt miqdori: 80 daqiqa.

Uyga vazifa: 61-mashq.

O'qituvchi: Nizomiy nomidagi TDPU magistranti Usarova Go'zal

Darsning texnologik xaritasi

T/r	Mashg'ulot bosqichlari	Ajratilgan vaqt	Mashg'ulot mazmuni	Ta'lim metodlari	Ta'lim vositalari
1.	**Tashkiliy qism**	5 daq.	Salomlashish, davomatni aniqlash		
2.	**Kirish qismi (motivatsiya)**	10 daq.	Uyga berilgan vazifa (52-mashq) asosida suhbat uyushtirish, halollik gigiyenasi haqida qo'shimcha ma'lumotlar aytish talab qilinadi	Kichik guruhlar bilan ishlash, "aqliy hujum" texnologiyasi	Darslikdagi mashq
3.	**Yangi mavzuning bayoni**	40 daq.	188- va 191-betlardagi 1-va 2-topshiriqlarni maktab ona tili darslarida o'tilganlarni xotiraga tushirish orqali bajartiriladi. Keyin reja asosida yangi mavzu tushuntiriladi. Ko'p ma'noli so'zlarning paydo bo'lish sabablari, bir ma'noli so'zlardan farqlari, ko'chma ma'nolar va ularning turlari haqidagi dastlabki bilimlar bayon qilinadi.	Kichik guruhlar bilan ishlash, tushuntirish va savol-javob metodlari "aqliy hujum" va "Klaster" texnologiyalari, xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlar,	Darslikdagi mashq va topshiriqlar, kompyuter va proektorda slaydlar namoyishi
4.	**Mustahka**	20 daq.	Darslikdagi 56-,	Kichik	Dars-

	mlash (qo'llash)		57-, 58-mashqlarni bajartirish, So'zning to'g'ri ma'nosini markazga, ko'chma ma'nolarini uning atrofiga joylash-tirish orqali "Klaster" hosil qilish.	guruhlar bilan ishlash, "Klaster" texnologi-yasi, ijodiy xaraterda gi mashqlar	likdagi mashq va topshiriq-lar
5.	**Yakuniy qism**	5 daq.	60- va 61-mashqlar uyga vazifa qilib beri-ladi.		

O'qituvchi: Nizomiy nomidagi TDPU magistranti Usarova Go'zal

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: a) salomlashish; b) davomat.

O'tilgan mavzuni so'rash: Mavzuni mustahkamlash maqsadida guruhdagi o'quvchilar uch guruhga bo'linadi va 1-guruh- "Fikr", 2-guruh- "So'z", 3-guruh "Amal" deb nomlanadi. Uyga berilgan vazifa, ya'ni 52-mashqdagi matn o'qitiladi, 9ta xat boshi guruh o'quvchilari tomonidan ifodali o'qitilib, undagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar va so'z birikmalarining leksik ma'nolari va qo'shimcha ma'nolarini izohlab berish talab qilinadi. Har bir guruh halollik gigienasi haqidagi fikrlarni tahlil qilishadi, shuningdek, yana xalq maqollaridan va hadisdan namunalar keltirishib, ularni ham sharhlashadi.

Yangi mavzuning bayoni: Yangi mabzuni tushuntirish ishi, dastavval, darslikning 188- va 191-betlaridagi 1-va 2-topshiriqlarni bajartirish bilan boshlanadi.

188-betdagi 1-topshiriq: "Navoiy" dramasida Mansur Navoiyga: "Pirim, kechiring, itlik qildim" deb yolvoradi" jumlasidagi ***it*** so'zining to'g'ri va ko'chma ma'nolarini izohlash. Bunda o'quvchilar "Izohli lug'at"dan ***it*** so'zining to'g'ri ma'nosini aniqlashadi. Buning uchun ularga bor-yo'g'i 1 daqiqa vaqt beriladi. O'quvchilar tomonidan "Izohli lug'at" da berilgan quyidagi javob aytiladi: *Itga xos xatti-harakat, qiliq*. Shundan so'ng shu so'zning ko'chma ma'nosi izohlanadi. O'quvchilar insonga xos

bo'lmagan ba'zi qiliqlari bilan itdan ham battar qiliqlar qilishi mumkin degan fikrlarni keltirishadi.

Shundan so'ng 2-topshiriqda berilgan ***bulbul*** so'zining o'z va ko'chma ma'nolarini izohlashadi. Dastavval, ***bulbul*** so'zining to'g'ri ma'nolarini "Izohli lug'at"dan topishadi: *1. Chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlaroilasiga mansub sayroqi qush. 2. O'zbek xalq amaliy san'atining ko'p sohalarida qo'llanadigan, o'yma va quyma usullarda bajariladigan naqsh.* So'ngra uning ko'chma ma'nolarini tushuntirishadi: *1.Xushovaz xonanda; mohir notiq. 2. Oshiq, xushtor.*

191-betdagi 1-va 2-topshiriqlarni esa lug'at yordamisiz bajarishlarini talab qilish zarur. Topshiriqlar shartiga ko'ra o'quvchilar ***asal*** va ***xom*** so'zlarining o'z va ko'chma ma'nolarini aniqlashadi va ular o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishadi. O'quvchilar bu vazifalarni maktab ona tili darslarida o'rganganlari asosida bajaradilar. Shuning uchun ham ularni qayta xotirlash xarakteridagi mashqlar sirasiga kiritish lozim.

Darslikning 188-191-sahifalaridagi reja va nazariy qoidalar asosida slaydlar tayyorlanib yangi mavzu tushutiriladi va ko'p ma'noli so'zlarning paydo bo'lish sabablari, bir ma'noli so'zlardan farqlari, ko'chma ma'nolar va ularning turlari haqidagi dastlabki bilimlar bayon qilinadi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash: Darslikdagi 56-, 57-, 58-mashqlarni bajartirish, so'zning to'g'ri ma'nosini markazga, ko'chma ma'nolarini uning atrofiga joylashtirish orqali "Klaster" hosil qilish vazifa qilib beriladi.

Darsni yakunlash:

1. Baholash: Guruhlar rag'batlantiruvchi va jarima kartochkalari bilan, faol ishtirok etgan guruh a'zosini esa individual tarzda reyting ko'rsatkichi bilan baholanadi.

2. Uyga vazifa berish: 60- va 61-mashqlar uyga vazifa qilib beriladi.

Tajriba-sinov ishlari Toshkent viloyati Olmaliq shahridagi 17 -, 20 - maktablarda va Navoiy davlat konchilik instituti qoshidagi 3-sonli akademik litseyda olib borildi. Tahlil ishlarini, dastavval, saylanma diktant o'tkazish asosida amalga oshirdik. Tajriba va sinov sinflaridagi o'quvchilar bir xilda kichik guruhlarga ajratilib, ularga saylanma diktant yozdirildi. O'quvchilar 6 ta guruhga ajratiladi va so'z turkumlari bo'yicha nomlanadi: "Ot", "Sifat", "Son", "Olmosh", "Ravish", "Fe'l".

Topshiriq quyidagicha: *Har bir guruh mustaqil so'z turkumlariga oid so'zlarni o'qilayotgan matndan topib yozish.*

Biz quyida umumta'lim maktablarining 7-sinf uchun tanlangan matnni va diktant natijalarini namuna sifatida keltiramiz:

Non

Qadim zamonlardan buyon insonlar nonni e'zozlab, uni oltinga, quyoshga, hayotga qiyoslab kelganlar. Nonni tejab-tergashgan, "non – hammamizning rizq-ro'zimiz", deb uning sharafiga madhiyalar o'qishgan. Mehmon kelganda uning oldiga eng avvalo non qo'yishadi. Non muqaddasdir. Uning uvog'ini ham qadrlash va uvol qilmaslikni bolalikdan o'rgatishadi.

Bundan 16 ming yil muqaddam – inson g'alla ekinlarini o'stira boshlagan davrdan buyon yer yuzida non paydo bo'lgan. Oldin kishilar donni xom holida iste'mol qilishgan. Keyin uni ikki tosh o'rtasida ezib, yanchish va suv bilan aralashtirishni o'rganishgan, olov kashf qilinishi bilan esa don bo'tqasidan non yopadigan bo'lishgan. Oradan ko'p ming yillar o'tib, Qadimgi Misrda birinchi marta oshirilgan xamirdan foydalanish rasm bo'ldi. Non yopish san'ati keyinroq misrliklardan yunonlar va rimliklarga o'tdi.

Qadimgi Rimda bundan 2 ming yil muqaddam bir necha katta novvoyxonalar bunyod etgan usta novvoy sharafiga haykal o'rnatishgan. Bu haykal hozirgi kunlarda qadar saqlanib qolgan.

Diktant matni ikki marotaba o'qib beriladi. Uchinchi o'qishda saylanma diktantni yozishni boshlashadi. Guruhdagi har bir a'zo indibidual ishlaydi va natijalar esa guruh bo'lib umumlashtiriladi. Bunda har bir a'zo yakka holda guruhning g'olib bo'lishi hamda o'zining ijobiy baho olishi uchun harakat qiladi. Matnda ishtirok etgan har bir so'z turkumining qancha ekanligi o'quvchilarga oldindan e'lon qilinadi. Guruhning har bir a'zosi matn o'qilayotgan paytda barchasini qoldirmasdan topishga harakat qilishadi, keyin topilgan so'zlarni jamlashtirishadi.

Nazorat va tajriba sinflarida natijalar quyidagicha bo'ldi:

Nazorat sinfida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari

17-maktab 7A-sinf	**Matndagi mustqil so'z turkumlai soni va olib borilgan tajriba-sinov natijalari**					
Nazorat sinfi 30 ta o'quvchi	**43**	**7**	**4**	**8**	**3**	**24**
"Ot" guruhi	35	4	2	5	1	18
"Sifat" guruhi	36	4	1	5	1	20
"Son" guruhi	29	5	2	6	1	16
"Olmosh" guruhi	27	2	2	6	-	17
"Fe'l" guruhi	33	2	1	2	-	19

"Ravish" guruhi	34	4	1	1	1	20
Jami:	194	21	9	25	4	110

Tajriba sinflarida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari

17-maktab 7A-sinf Tajriba sinfi 30ta o'quvchi	**Matndagi mustqil so'z turkumlai soni va olib borilgan tajriba-sinov natijalari**					
	43	**7**	**4**	**8**	**3**	**24**
"Ot" guruhi	42	7	4	8	3	24
"Sifat" guruhi	42	6	4	7	3	20
"Son" guruhi	42	6	3	7	2	23
"Olmosh" guruhi	40	5	3	7	2	23
"Fe'l" guruhi	40	7	4	8	2	23
"Ravish" guruhi	44	7	4	8	3	22
Jami:	250	38	22	45	15	135

Jadvallardagi raqamlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, tajriba sinfidagi guruhlarning ko'rsatkichi nazorat sinfidagi guruhlarning ko'rsatkichiga qaraganda ancha yuqori: 250>194; 38>21; 22>9; 45>25; 15>4; 135>110. Demak, ona tili ta'limida kichik guruhlar bilan ishlash samaradorligini aniqlashga doir nazorat natijalarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekan.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Maktabdagi ona tili va akademik litseydagi hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida kichik guruhlar bilan ishlashni tashkil etishning samaradorligini oshirishningning nazariy-metodik va amaliy asoslarini ishlab chiqish yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Maktabdagi ona tili va akademik litseydagi hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida kichik guruhlar bilan ishlashni tashkil etishga doir amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida, yaratilgan metodik adabiyotlarda darslarni kichik guruhlar bilan ishlsh asosida tashkil etishga qaratilgan, ayniqsa, bu jarayonda uning samaradorligiga erishish masalalari maxsus yoritilgani yo'q. Ma'lumki, istiqlol yillarida ona tili ta'limida til hodisalarini o'rganish va takrorlashda induktiv ta'lim usullariga ustuvor ahamiyat berildi, natijada amaliy mashq va topshiriqlarga kengroq o'rin ajratildi, grammatikani o'rganish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar kam bajariladigan bo'ldi. Biz o'rgangan va tahlil qilgan ilmiy metodik va pedagogik-psixologik adabiyotlarda kichik guruhlar bilan ishlashni tashkil etish masalalariga to'xtalib o'tilgan, uning mazmun-mohiyati ochib berilgan, tashkil qilish bosqichlari yoritilgan, lekin o'zbek tili o'qitish nazariyasi va metodikasiga oid adabiyotlarda bu muammo yetarlicha tahlil qilinmagan, uni tashkil etishda samaradorlikka erishish yo'llari ham ko'rsatib berilmagan.

2. Shuni eslatish lozimki, darslarni kichik guruhlar asosida tashkil etish samaradorligini oshirish mazmuniga aniqliklar kiritish va uning mazmuni, shakl, vosita va usullarini tadqiq etish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili va akademik litseyning hozirgi o'zbek adabiy tili Davlat ta'lim standarti va dasturlarini o'rganib chiqish, ularda kichik guruhlar bilan ishlash imkoniyati qay darajada ekanligini aniqlash lozim. Chunonchi, bu keyingi bosqichlarda ishni qay tarzda davom ettirish va diqqatni qaysi jihatlarga qaratish lozimligini belgilab beradi. Shunga muvofiq umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litsey Davlat ta'lim standarti va dasturlarini o'rganib chiqildi.

3. DTS, dastur va darsliklar tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, mavzularning ta'lim bosqichlari yuzasidan taqsimlanishi maktab ona tili va akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslaida kichik guruhlar bilan ishlsh metodidan unumli foydalanish imkonini beradi. Alohida ta'kidlash mumkinki, darslikdagi topshiriq hamda mashqlarning mazmun-

mohiyati va bajarilish tartibining o'ziyoq ham o'qituvchiga, ham o'quvchiga jamoa bo'lib ishlashga nisbatan qiziqish uyg'ota oladi.

4. Maktab ona tili va akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida kichik guruhlar bilan ishlsh metodidan foydalanishda o'quvcilarning tayanch bilimlarini hisobga olish maqsadga muvofiq. Takrorlash darslarini kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil etishda barcha o'quvchilarning real bilimlari inobatga olinishi, guruhlarda ajratishda yaxshi biladigan va unchalik yaxshi o'zlashtira olmagan o'quvchilar teng taqsimlanishi zarur.

5. Maktab ona tili va akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida kichik guruhlar bilan ishlsh samaradorligini oshirish myammolari ona tili o'qituvchilari duch keladigan qiyinchiliklar sirasini ifoda etadi. Ayniqsa, kichik guruhlar bilan ishlashning metod va usullari yangi pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, innovatsiyalar nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi metodik zaruriyat sanaladi.

6. Maktab va akademik litsey o'qituvchilari bilan olib borilgan suhbat va o'quvchilar orasida o'tkazilgan anketa-testlarning natijalari kichik guruhlarda ishlash metodining samaradorligini oshiruvchi omillarni belgilab olishga yordam berdi. Bunda, dastavval, tashkil qilinuvchi guruhlar soni imkon qadar 3-4 ta yoki, juda bo'lmaganda, 5-6 tadan oshmasligi, o'quvchilarning guruhlarda ishlash qoidalarini bilishi ham inobatga olinishi lozim. Qolaversa, kichik guruhlar bilan ishlsh usuli o'quvchida aynan ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantitirishga yordam beradi.

7. Maktabda ona tili va akademik lutseyda hozirgi o'zbek tili darslarini kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil etishda quyidagi yondashuv va tamoyillarga amal qilish zarur: 1) Kichik guruhlar bilan ishlashda samaradorlikka erishish uchun mashg'ulotini kommunikativ yondashuv asosida tashkil etish; 2) Ta'lim, tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi tamoyiliga amal qilgan holda kichik guruhlar bilan ishlsh metodi orqali tashkil qilish; 3) Guruhli va individual ta'limning birligi tamoyili; 4) uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash; 5) onglilik va ijodiy faollik tamoyili talablariga rioya qilish; 6) o'quvchilarning real bilimlarini hisobga olish tamoyili; 7) kichik guruhlar bilan ishlashni nutq madaniyatini rivojlantirish, ijodkor shaxsni tarbiyalsh sari yo'naltirish; 8) til sathlarini intagratsiyalash va differensiasialash; 9) til ta'limida ko'rgazmalilik tamoyiliga amal qilish; 10) ta'limning o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi tamoyili.

8. Maktab ona tili darslarida va akademik litseyning hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish o'quvchilarning yoshi, fikrlash malakalari, o'z fikrini erkin, mustaqil va ravon bayon eta olish ko'nikma va malakalarida, mashg'ulotni tashkil etish yo'l-yo'riqlarida unda qo'llaniladigan usullarda tatbiq etiladigan savol va topshiriqlarning ko'lami va maz-munida farqli jihatlar ko'zga tahlanadi. Ona tili darslarini kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil etishda, eng avvalo, maktab "Ona tili" va akademik litsey "Hozirgi o'zbek adabiy tili" dastur va darsliklarini o'rganib chiqib, ularni darsliklarning kichik guruhlar bilan metodidan foydalanishdagi imkoniyatlari yuzasidan tahlil qilish va qaysi mavzularni o'tishda kichik guruhlar bilan ishlash imkoniyatlari borligini aniqlash zarur. Ikkinchidan, kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida dars o'tishda o'quvchilarning yoshiga e'tibor berilishi eng muhimi sanaladi. Chunki o'quvchi faoliyatida yoshga qarab ularni darsga va fanga bo'lgan qiziqishlarini ta'minlash mumkin. Masalan, boshlang'ich sinfdan endi yuqori sinf (5- va 6-sinf)ga o'tgan o'quvchilarga "Keys stady", "Aqliy hujum" usullaridan foydalanish nisbatan o'yin texnologiyasidan foydalanishga qaraganda u qadar yaxshi samara bermaydi. 5- va 6-sinf o'quvchilari o'yin o'ynashni juda ham yaxshi ko'rishadi. Ularning bu qizi-qishlari va faoliyatidan kelib chiqqan holda kichik guruhlar bilan ishlash metodidan foydalanishda darslarni o'yin texnologiyasi asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. "Aqliy hujum", "Sinkveyn", "Debatlar" kabi usullardan esa 7-9-sinflarda, shuningdek, akademik litseylarda foydalanish samaraliroq bo'ladi. Chunki bu yoshdagi o'quvchilarda mantiqiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalari shakllana boshlagan, qolaversa, o'zini ko'rsatish, bilimlarini namoyon qilish ularda juda ham ustun bo'ladi. Uchinchidan, kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil qilinadigan darslarda har bir guruh tarkibini, ya'ni guruhdagi o'quvchilar soni 5-6 tadan oshmasligini ham hisobga olish zarur. To'rtinchidan, guruhlarga ajratishda fanni yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan birga past o'zlashtiradigan o'quvchilarning teng taqsimlanishini inobatga olish lozim, chunki yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilarning bir guruhga tushib qolishi shu guruhning g'olib chiqishiga, natijada o'zaro guruhlar orasida bir-birlariga nisbatan adovat, bir-birlarini hurmat qilmaslik, hatto mensimaslik illatlari ham paydo bo'lishi mumkin. Bu esa guruh bo'lib ishlash qonun-qoidalariga zid sanaladi. Beshinchidan, vazifani boshqa guruhlarga qaraganda oldin bajarib bo'lgan guruh ishtirokchilariga qo'shimcha topshiriqlar ham oldindan tayyorlab qo'yilishi kerakki, bu orqali topshiqlarni oldinroq

bajarib qo'ygan guruh ishtirokchilarining zerikib qolmaslining va nisbatan o'zlarida "bizda hamma juda yaxshi biladi" degan xudbin tushuncha paydo bo'lishining oldi olinadi. Oltinchidan, taqdimot paytida har gal boshqa-boshqa o'quvchining chiqishi inobatga olinmog'i, ya'ni guruh a'zolarining barchasining teng qatnashishining ta'minlanmog'i juda ham muhim.

9. O'qituvchining pedagogik mahorati hamkorlikka asoslangan ta'limni amalga oshirishda eng asosiy kuch hisoblanadi, chunki o'quvchilarni jipslashtirish, hamkorlikka undash, faollashtirish va bilim samaradorligini oshirish juda murakkab vazifa. O'qituvchi guruhlar bilan ishlaganda guruhlarga doimo aniq, tushunarli yo'l-yo'riqlar bera olishga, ya'ni o'quvchilarning yoshi va fiziologik-ruhiy holatlarini inobatga olishga va natijada ishning samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsata olishga, guruh bajarishi lozim bo'lgan vazifalarning murakkabligiga qarab ketadigan vaqtni aniq chamalash, oldindan ko'ra olish va natijaga erishish uchun yetarli vaqtni belgilashga, ish yakuniga ko'ra guruhni ma'naviy jihatdan rag'batlantirish lozimligini unutmagan holda, qanday mukofot (yoki baho mezonlari) berishni o'ylab qo'yishi va ular ishlarining natijasi qanday yakun topishini bilishlariga, guruh bo'lib ishlaganda shovqin bo'lmasligini, guruh tashkil etganda va bahs davomida o'quvchilarning bir-birlariga tazyiq o'tkazmaslik, guruh a'zolari bilan samimiy va ochiq munosabatda bo'lishini ta'minlashga, kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida ishlaganda sinf doskasidan unumli foydalanishni nazardan chetda qoldirmaslikka e'tiborini qaratishi zarur.

10. O'qituvchi o'quvchi bilan og'zaki (yozma) muomaladan tashqari, xatti-harakatlari yoki tashqi qiyofasi orqali ham moloqot qila oladi. Bu holatlar quyidagicha bo'lishi mumkin: a) agar o'qituvchi diqqatsiz (boshqa narsalarni o'ynab o'tirgan yoki chalg'iyotgan) o'quvchining oldiga kelib turib olsa yoki shu o'quvchining boshini (yelkasini) silab qo'ysa, demak, o'quvchiga befarq emasligini bildiradi; b) agar o'qituvchi o'quvchiga topshiriq yoki savol berganda uning ko'zlariga qarab (yoki tikilib) tursa, ko'rish orqali muloqotga kirishadi; d) o'quvchi javob berayotganida (yoki biror savol berayotganida) o'qituvchi unga o'girilib, yuzma-yuz turib olsa, bu holat gapirayotgan o'quvchiga yaqinlik va qulaylikni bildiradi; e) shuni yodda tutush kerakki, o'quvchi bilan gaplashayotganda imkon qadar unga teskari o'girilib (yoki jurnal yozib, daftar tekshirib) o'tirgan holatda muloqotga kirishish mumkin emas; f) o'qituvchi biror o'quvchining intizom buzayotganligini (yoki berilgan vazifani bajarmayotganligini) ko'rsa, u shu o'quvchiga qarab qoshlarini chimirib qo'yadi. Sinfdoshiga yordam berayotgan o'quvchiga esa ma'qullovchi ifodani anglatuvchi tabassum

qiladi; g) javob berayotgan sinfdoshining gapini bo'layotgan o'quvchiga qarab qo'lini oldinga cho'zib, kaftini ko'rsatadi (*to'xta* ma'nosida) yoki ko'rsatkich barmog'ini labiga qo'yib ishora qiladi; h) ba'zi so'zlarga e'tibor qaratish uchun o'qituvchi ovozini o'zgartiradi. Masalan, ovoz tonini ko'tarishi (yoki aksincha pasaytirishi) mumkin.

11. Maktabda ona tili va akademik litseyda hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilarni jamoada ishlashga o'rgatish metodikasini yaratish, avvalo, qaysi metoddan foydalanish va shu metodning mohiyatini ochib berish, uni shakllantirish usullarini aniqlab berish, texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat. O'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, bunda hech qanday psixologik noqulaylik bo'lmasligi, o'quvchilar o'z imkoniyatlariga ishonishlari zarur. Ona tili ta'limini kichik guruhlar asosida tashkil qilishda "Seminar-musobaqa", "Aqliy hujun", "O'yin", "Labirint", "Mening yulduzim", "Sinkveyn", "Auksion", "FSMU", "Zinama-zina" kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanish mumkin.

12. Ilmiy adabiyotlarni o'rganib va tahlil qilib chiqib, ona tili ta'limini kichik guruhlar bilan ishlsh metodi asosida tashkil etishda foydalaniladigan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqdik va ularni shartli ravishda katta 3 guruhga: a) xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlar; b) qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashq va topshiriqlar; d) ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar ajratdik. Bunday tasniflashdan asosiy maqsad – darsning har shakliga va bosqichlariga mos keluvchi mashqlar va topshiqlar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Masalan, uyga vazifani so'rash jarayonida ko'proq qayta xotirlash xarakteridagi doir mashq va topshiqlardan foydalanish yaxshi natijaga olib keladi. Chunki o'quvchi uzoq o'tilganlarni qayta xotirlash orqali o'tiladigan yangi mavzuga oid bilimlarni ham esga oladilar va guruh bo'lib yangi mavzuni o'zlashtirishga kirishadilar. Bu darsning yanada qiziqarli bo'lishini va o'quvchilarning faol harakat qilishlarini ta'minlaydi. Sinfda va har bir kichik guruh (jamoa)larda jonlantirilgan va faollashgan vaziyat qaror topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

2. Ўзбекстон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни // Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент; Шарқ, 1998. – 20-29-б.

3. Ўзбекстон Республикасининг "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури" Қонуни // Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент; Шарқ, 1997. – 31-60-б.

4. Давлат таълим стандартига шарх: Она тили//Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. – Таълим тараққиёти. Ахборотнома, 1-махсус сон. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 46-54.

5. Эргашева А. Она тили дарсларида назарий маълумотларни мустаҳкамлаш жараёнида нутқ ўстириш методикаси. – Т.: "Fan va texnologiyalar", 2010. – 69 б.

7. Абдуллаева Ш., Канглиев Ш., Содиқова А. Янги педагогик технологиялар. – Т.: 2010.

8. Абдураззоқова Д. Кичик гуруҳларни ташкил этиш қоидалари. "Умумтаълим фанлари методикаси", 2013, 2-сон, 16-бет.

9. Абдураимова М., Зиёдуллаева Г. Она тили фанидан умумий ўрта таълимнинг ўқув дастури (1 – 9 -синфлар), Республика таълим маркази, – Т: 2010, 40-бет.

10. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat. – T.: Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006, – 240b.

11. N.Axmedova. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2012, – 27-33-betlar.

12. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш. - Пед. фан.номзоди ... ёзилган дисс. - Т., 1996. – 8-бет.

13. Боқиева Ҳ. Ҳар дарсда ҳамкорлик // Бошланғич таълим. – 2008. 2-сон. – Б. 28-29.

14. Ганиев Т.Т. Активизация познавательной деятельности учащихся в процессе выполнения упражнений по родному (узбекскому) языку. Авт-т дисс… канд.пед.наук. – Ташкент. 1991. 23 стр.

15. Гепелин Ш.И. Дидактический принцип сознавательности. М., 1964.

16. Ishmuhammedov.R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari". – T, 2009, 3-b.

17. Karimova B. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T: O'qituvchi. 1994, 75-bet.

18. Коменский Я.А. Буюк дидактика. Изб. пед. соч. В 2 том. М. 1982. Т.1. – с. 384.

19. Мадумаров Т., Камолдинов М. Инновацион педагогик технология асослари ва уни таълим-тарбия жараёнида қўллаш. Тошкент: "Талқин", 2012, 24-25-бетлар.

20. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. М., 1972.

21. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Oni tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarinung 6-sinfi uchun darslik. 2-nashri. Toshkent. "Tasvir" nashriyot uyi. 2009. – 179 b.

22. Н.Маҳмудов, А.Нурмонов, А.Собиров, В.Қодиров, З.Жўрабоева. Она тили. 5-синф учун дарслик. Тошкент: "Маънавият", 2004. 172-бет.

23. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. Oni tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarinung 5-sinfi uchun darslik. 2-nashri. Toshkent. "Ma'naviyat" 2007.

24. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Oni tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarinung 7-sinfi uchun darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri. Toshkent. "Ma'naviyat" nashriyot uyi. 2009.

25. Маҳмудов М.Ҳ. Таълимни дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари. Пед.фан.докт... дисс. автореферати. – Тошкент. 2004. 45 б.

26. Махмутов М.И. Мактабда проблемали таълимни ташкил қилиш. Тошкент. 1981.

27.Мирмахсудова М. Ўқувчилар нутқини такомиллаштиришда грамматик терминлардан фойдаланишнинг лингвометодик асослари (5-7-синф она тили дарслари мисолида): Пед.фан.номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 24 б.

28. Напольнова Т.В. Познавательные задачи в обучении русскому языку. М., 1968.

29.Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining I, II, III talabalari uchun darslik. II kitob. – Toshkent: "Ilm ziyo" nashriyot uyi, 2013. – 592 bet.

30. Ona tili fanidan Davlat ta'lim standarti: Uzviylashtitilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 10-19.

31. Ona tili fanidan umumiy o'rta ta'lim maktabining o'quv dasturi: Uzviylashtitilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 20-41

32. Омилхонова М., Абдуллаев Й., Абдулаҳатова Р., Иноғомова Р., Орифжонов А. 5- ва 6-синфда она тили дарслари (методик қўлланма). - Т.: Ўқитувчи, 1978. - 262 б.

33. Омилхонова М., Абдуллаев Й. ва бошқалар. 7- ва 8- синфда она тили дарслари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1982. - 205 б.

34. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – Toshkent. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010. – 144 bet.

35. Розиқов О. Ўзбек тилидан дарс типлари: Педагогика институтларининг филология факультетлари студентлари ҳамда тил ва адабиёт ўқитувчилари учун қўлланма - Тошкент: Ўқитувчи, 1976. - 123 б.

36. Рихсиева М. Таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларнинг ўзбек тили дарсларида ўқувчиларни матн тузишга ўргатиш методикаси. Пед.фан.номз. ... дисс.автореферати. – Тошкент, 1999, – 20 б.

37. Саакян В.А. Роль упражнений в усвоении, закреплении знаний по синтаксису и в развитии речи учащихся VII-IX классов армянской школы: Автореф. дис...канд. пед. наук. – Ереван, 1983. -26 с.

38. Сафарова Р. Она тили таълимининг янгиланган мазмуни ва унинг дидактик асослари. – Т.: «Фан», 1995. – 108 б.

39. Сафарова Р.Г. Теория и практика обучения родному языку в школах Узбекистана в условиях национального возрождения. Автореферат дисс… докт.пед.наук. – Ташкент. 1998. – 34 стр.

40. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириклари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед.фан. номзоди ...дисс.-Тошкент, 2000. - 128 б.

41. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириклари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. номз.... дис. автереф. – Тошкент, 2000. – 23 б.

42. Сайфуллаев А. Она тили дарсларида нутқ ўстириш: методик қўлланма (5-синф материаллари асосида). - Т .: ЎзПФИТИ, 1997. - 72 б. 43. Сайфуллаев А. Она тили дарсларида нутқ ўстириш: методик қўлланма (6-синф материаллари асосида). - Т .: ЎзПФИТИ, 1998. - 50 б. 44. Сайфуллаев А. Она тили дарсларида нутқ ўстириш: методик қўлланма (7-синф материаллари асосида). - Т .: ЎзПФИТИ, 2000. - 52 б. 45. Sayfullayev A.R., Sayfullayeva R.R. Ona tili darslarida nutq o`stirish (8-sinf materiallari asosida metodik qo`llanma). – Toshkent: O`zPFITI, 2002.– 51 b.

46. Собирова М.Ю. Ўзбек мактаблари юқори синф ўқувчиларига содда гап синтаксисини мунозара усулида ўргатиш: Пед. фан. номз.... дис. автореф. – Тошкент, 1994. – 23 б.

47. Сорокина Е.М. Обучение построению сложного синтаксичес-кого целого на уроках русского языка в узбекской школе. Автореферат дисс…канд.пед.наук. – Ташкент. 1991. 20 стр.

48. To'xliev B., Shamsieva M., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 174 b.

49. Урумбаева Г.Н. Лингводидактические основы обучения учащихся 7–9-классов сложному синтаксическому целому как базовой структуре русской монологической речи (на материале школ с каракалпакском языком обучения). Автореферат канд.дисс… пед.наук. – Ташкент. 2001. 19 стр.

50. Харченко О.О. Через постижение "тайн языка" – к текстовой компетенции // Начальная школа. – 2007. - №5. – С. 36-43.

51. Xaydarov Z.O. Ta'lim jarayonida interfaol o'qitish usullari qo'llashning ahamiyati. "Ta'lim texnologiyalari", 2013-y, 3-son, 17-b.

52. Xodiyev B., Golish L. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. – T.: "Fan" nashriyoti, 2010, 255b.

53. Худойқулов Х.К. Ўқитишнинг интерфаол технологияларидан фойдаланиш – касбий билимларни ўзлаштиришнинг муҳим омили. "Касб-ҳунар таълими", 2014, 5-сон, 15-бет.

54. Yo'ldoshev S. Kasb-hunar ta'limida pedagogik texnologiyalar. - T.: 2009.

55. Юсупова Т. Гапнинг бош бўлакларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг лингвометодик асослари: Пед. фан.номзоди ... дисс. - Тошкент, 2005. - 157 б.

56. Юсупова Т. Гапнинг бош бўлакларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстириш. – Тошкент, "Fan va texnologiyalar", 2006. – 87 б.

57. Юсупова Т. Синтаксисни морфологияни такрорлаш билан боғлаб ўрганиш методикаси (5- ва 8-синфлар мисолида). Монография. – Тошкент. "Fan va texnologiyalar", 2009. –176 б.

58. Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш (ноанъанавий усуллар ва компьютердан фойдаланиш): Пед. фан.номзоди ... дисс. – Тошкент, 1998. – 26 б.

59. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан.доктори ... дисс. автореферати. – Т., 2005. – 44 б.

60. Зиёдова Т. Ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш. – Тошкент, 2000. – 163 б.

61. Зиёдова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. фан.номзоди ... ёзилган дисс. - Т., 1995. - 141 б.

62. Зиёдова Т. Тилсим топишмоқлари – нутқий фаолиятни шакллантириш омили: Она тили ўқитувчилари учун методик қўлланма. – Тошкент: РТМ, 1999. – 73 б.

63. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. III. Н – Тартибли/ Таҳрир ҳайъати. Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.: ЎзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 688 б.

64.Ўзбек мактабларида она тилини ўқитиш концепцияси. – Тошкент: ЎзПФИТИ, 1993. – 21-б.

65. Ғозиев Э. Ўқувчиларни умумлаштириш усулларига ўргатиш ва уларнинг ақлий тараққиёти. Тошкент. 1979.

66. Ғуломов А., Неъматов Ғ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 125 б.

67. G'ulomov A., Qodirov M. va boshqlar. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2012, 380 bet.

68. Ғуломов А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулотлари. – Т.: "Ўқитувчи", 1995. – 158 б.

69. Шамова Т.И. Активизация учения школьников. М., 1979.

70. Шукина Е.И. Активизация познавательной деятельности учащихся в учебном процессе. М., 1979.

71. Шульженко Г.И. Изучение темы “Члены предложения” в IV классе в парах сменного состава / Русский язык в школе. – 1989. № 5. – С. 13-20.

MUNDARIJA

Kirish 3
Dars samaradorligini oshirish, kichik guruhlarda ishlash pedagogik tushunchalarining nazariy – metodik talqini 8
Maktab va akademik litseylarda kichik guruhlarda ishlash samaradorligini oshirishning bugungi holati 14
Maktab va akademik litseylarda kichik guruhlarda ishlash samaradorligini oshirishga doir yondashuv va tamoyillar. 26
Kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish jarayonida samaradorlikka erishish mazmuni. 34
Kichik guruhlarda ishlash jarayonida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarning turlari 40
Kichik guruhlar bilan ishlashda tatbiq etiladigan topshiriq va mashqlarning turlari va mazmuni 54
O'tkazilgan tajriba-sinov materiallari tavsifi va tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili 63
Xulosa va tavsiyalar 74
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 79

YOZUVLAR UCHUN

T.Yusupova

ONA TILI DARSLARIDA KICHIK GURUHLARDA ISHLASHNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Adadi 100 nusxa. Hajmi 5,5 b/t. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$
«Times New Roman» garniturasi. Ofset usulida bosildi.
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi.
Toshkent, Yusuf Xos Hojib 103.